

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK ()**

SAPARBAYEV BUNYOD XURRAMBEK O‘G‘LI

**“Firdavs ul-iqbol” asarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning aks etishi
(Muhammad Rahimxon I davri)**

5A 120302-Tarix (yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. dots., O‘.I. Abdullayev

Urganch – 2017

**MAVZU: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA
MADANIY HAYOTNING AKS ETISHI
(Muhammad Rahimxon I davri)**

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I BOB. “Firdavs ul-iqbol” asari va Muhammad Rahimxon I davrining tarixshunoslikda o‘rganilishi.....	6
1.1. Muammoning chet el sharqshunoslari tomonidan o‘rganilishi.....	6
1.2. Muammoning o‘zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi.....	14
II BOB. Muhammad Rahimxon I ning davlat tepasiga kelishi va islohatlari.....	25
2.1. Xiva xonligidagi tarixiy sharoit.....	25
2.2. Xiva xonining mamlakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini yuksaltirish yo‘lidagi hal qiluvchi pallaga o‘tishi.....	36
III BOB. XIX–asrning birinchi choragida mamlakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining yuksalishi.....	47
3.1. Xiva xonining ijtimoiy-siyosiy sohada barqarorlikni ta’minlashdagi yakunlovchi faoliyati.....	47
3.2. Xonlikda madaniy hayotning yuksalishi, arxitektura va sug‘orish tizimini yanada rivojlanishi.....	54
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizning tarixchi olimlari bilan uchrashuvida shu narsani ta'kidladiki, "davlatchiligimizda qat'iy burilish yuz bergan hozirgi davrda biz uchun dunyoda egallagan o'rnimizni, kimligimizni, qadimiy ildizlarimizni aniq belgilab olish zarur bo'ladi"¹. Uning fikricha, gap o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, uning o'zligi, ma'naviyati haqida ketar ekan, bu masalada bizda chuqur ilmiy asosga ega bo'lgan dalillar, tahlillar yetishmaydi. Ilmiy til bilan aytganda, bu borada tugal konsepsiya yo'q. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab qilmaydigan bu haqiqatni davlat siyosati darajasiga ko'tarish lozim. I.A.Karimov ning ta'kidlashicha, davlatchilik hozirgi davrda muhim siyosiy masalaga aylandi. Biz mamlakatimizning birinchi prezidenti oldimizga qo'ygan ushbu tarixiy haqiqatni o'tmishda ro'y bergan tarixiy voqea-hodisalarni, tarixiy shaxslar faoliyatini yoritib berish orqaligina kishilar ongiga yetkazishimiz mumkin. Binobarin, jamiyatimizda shakllanganayotgan milliy mafkuramiz ham tarixiy manbalardan oziq oladi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz va xalqimizning real ilmiy tarixini yaratish hozirgi davrda keng jamoatchilikning eng zarur va dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoldi.

Oldimizga qo'yilgan ana shu vazifalarni amalga oshirishda Munis va Ogahiyarning "Firdavs ul-iqbol" asarini har tomonlama tadqiq va tahlil qilish muhim dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning o'rganilishi.

Munis va Ogahiyarning tarixiy asarlari, biografiyalari xususida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Munis to'g'risida dastlabki ma'lumotlar A.Vamberi asarlarida uchraydi. Uning yozishicha, Munis-mirob (Vamberi bu ism va lavozimni ikki og'a-
ini tarzida tushungan. Munisni shoir, Mirobni tarjimon deb beradi. Qolaversa u Munisni uchratmagan, chunki Munis A.Vamberi Xivaga kelishidan 34 yil oldin

¹ Каримов И.А.Тарихий хотирасиз-келажак йўқ.-Т. "Ўзбекистон", 1998. –.252-б.

vafot etgan edi.) og‘a-ini bo‘lib, shoirlik va tarjimonlik bilan shug‘ullanishgan. Tarjimonlik deganda u Mirxondning “Ravzat ul-safo” asarini nazarda tutadi².

Munis va Ogahiylarga tegishli qo‘lyozmalar dastlab 1873-yilda Xivaga kelgan A.L.Kunning nazariga tushdi³.

V.V. Bartoldning Rossiya fanlar akademiyasi Osiyo muzeyida saqlanayotgan, hech kim tomonidan nashr etilmagan, XIX-asrda yozilib, Xiva xonligi haqida rasmiy ma‘lumot berilgan to‘la nusxadagi asar tarzida ko‘rsatib o‘tgan manba xuddi o‘sha A.L.Kun tomonidan olib ketilgan qo‘lyozmalardir. A.L.Kun ushbu qo‘lyozma manbalar bo‘yicha qisqacha mulohazalar bayonini tuzib chiqsa-da, bu tahlil materiallar e‘lon qilinmagan.

A.L.Kundan keyin Munis va Ogahiylarga tegishli tarixiy asarlar haqida mulohazalar bildirgan talantli sharqshunos olim V.V.Bartolddir. Uning ta’kidlashicha, “Munis va Ogahiylarning ushbu batafsil xronikal asarlari Xorazmning keyingi uch yuz yillik tarixi haqida ma‘lumot beruvchi asosiy manba bo‘lib qoladi. Ushbu xronikalardan mulla Bobojon (Bayoniy) ham “Shajarai Xorazmshohiy” asarini yozishda foydalangan⁴.

V.V.Bartold tomonidan “Firdavs ul-iqbol”ning yig‘ma matni ham tayyorlangan, ammo nashr qilinmagan.

“Firdavs ul-iqbol”dan ayrim parchalar P.P.Ivanov tomonidan tarjima etilib, “Материалы по истории туркмен и Туркмении” kitobiga kiritilgan⁵.

P.P.Ivanov Munis va Ogahiylarning ushbu asarini “XVIII-XIX asrlarga oid Xiva xonligi tarixi bo‘yicha asosiy manba”⁶, deb baholaydi.

“Firdavs ul-iqbol” asaridan ayrim parchalar “Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII в.”⁷ kitobida ham berilgan.

² Вамбери А. Путешествие по средней Азии. –Т.: Институт истории народов средней Азии им. Махпират, 2007. –стр.360.

³ Бартольд В.В. Сочинения. Т. 2. ч.2. Работы по отдельным проблемам истории средней Азии. –М.: 1964. – стр.57.

⁴ Ўша манба, ўша бет.

⁵ Материалы по истории туркмен и Туркмении. Труды Института Востоковедения. Т. XXIX Источники по истории народов СССР. –Т.2 Иранские, бухарские и хивинские источники. –М., -Л.: 1938.-стр. 323-354; 355-426.

⁶ Иванов П.П.Очерки истории по Средней Азии. XVI-середина XIX в.в. –М.: изд. “Вост. Лит”. 1958-стр.56.

⁷ Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII в. (составители: С.К.Ибрагимов, Н.Н.Мингулов, К.А. Пищулина, В.П. Юдин) -Алма-Ата.: 1969. –стр.431-475.

O'zbek tarixshunosligida Munis va Ogahiyning mazkur asari haqida ko'pgina tadqiqotlar mavjud⁸.

Bu asar ilk marotaba yig'ma tarzda tarixchi Yu.Bregel tomonidan ingliz tiliga tarjima qilindi va nashr etildi⁹. Nihoyat 2010-yilda ushbu asar to'laligicha o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi¹⁰.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Ishni yozishda asosan "Firdavs ul-iqbol" asarining 2010-yilda Toshkentda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan nusxasiga tayanildi. Ayrim hollarda N.Muravyovning 1822-yilda Moskvada chop etilgan "Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 г." asariga ham murojaat etildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

"Firdavs ul-iqbol" asari asosida Muhammad Rahimxon I davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni yoritib berish tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Asarning tarixshunoslikda o'rganilishiga tavsif berish;
- Muhammad Rahimxon I ning davlat tepasiga kelishidagi tarixiy sharoitni yoritish;
- Muhammad Rahimxon I ning dastlabki islohotlari haqida ma'lumot berish;
- Xonlikdagi madaniy hayotni yuksaltirishda mamlakat hukmdorining rolini ochib berish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Ishda yaqinda nashr etilgan "Firdavs ul-iqbol" asarining mukammal matni asosida Muhammad Rahimxon I davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan ilk marotaba monografik tarzda tahlil qilish uning ilmiy yangiligini belgilaydi.

⁸ Qarang: Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари.-Т.: "Фан", 1960; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. -Т.: "Ўқитувчи", 1967.-113-116-б; Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. -Т.: 2005 va boshqalar.

⁹ Шермухаммад Мунис Хоразмий ва Муҳаммадризо мироб алмутахаллис бил Огахий. Фирдавс ул-иқбол. Лейден, 1988.

¹⁰ Шермухаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огахий. "Фирдавс ул-иқбол". -Т.: "Ўқитувчи", 2010. (Нашрга тайёрловчилар: Н.Жумахўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов).

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazi.

Tadqiqotda Xiva xonligining Muhammad Rahimxon I davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning yangi bosqichga ko'tarilishi, davlatchilik siyosatining ustuvorlik sari qadam qo'yishi, ko'plab islohotlarning amalga oshirilishi xususida so'z yuritilib, tubandagicha farazlar kun tartibiga qo'yildi:

1. Muhammad Rahimxon I davridagi murakkab tarixiy sharoitning yoritib berilishi, xonlikdagi ayirmachilik tendensiyalariga barham berilishi, ichki nizolarning bartaraf etilishi masalalarining aniq dalillarga suyanilgan holda tadqiq etilishi tarixnavislik ilmiga muayyan ulush qo'shadi.
2. Masalani yoritishda chet el tarixchilari, xususan, rus missionerlarining Muhammad Rahimxon I davri haqida yozib qoldirgan ma'lumotlarini tanqidiy nuqtai nazardan tadqiq qilish mamlakatimizning yangi tarixini barpo qilishga ko'maklashadi. Hozirgacha kam yoritilgan tarixiy ma'lumotlarni yuzaga chiqaradi.
3. "Firdavs ul-iqbol"dagi aniq dalillarga tayangan holda Muhammad Rahimxon I davridagi madaniy hayotni yoritib berish arxitektura-qurilish obidalarining qad ko'tarishi, sug'orish inshootlarining barpo etilishi, ko'priklar qurilishi, zarbxona tashkil etilishi, kitobxonlik, mushoiralar, san'at ahllari haqida ma'lumotlar berish, sho'ro davrida bu o'lkaning "yoppasiga savodsiz edi", degan "tamg'asi"ning asossizligini isbot qiladi.
4. Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligining yuksalishi, uning qo'shni Eron, Buxoro, hatto Rossiya tomonidan e'tirof etilishi, chet el davlatlari bilan savdo-sotiq va siyosiy aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilishi kabi masalalarning yoritilishi o'zbek davlatchiligi tarixining azaldan mustahkamligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning metodikasi tavsifi. Ishni yozish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A Karimovning 1998-yil 26-iyul kuni bir guruh tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvidagi ko'rsatmalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, tarixchi olimlardan: Q.Munirov, Ya.G'ulomov, M.Yo'ldoshev, I.Jabborov, matnshunos olimlardan: N.Jumaxo'ja, A.Ahmedov va boshqalarning ishlariga ham tayanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy ma'lumotlarni tizimlashtirish,

tahlil qilish va umumlashtirish, mavzuga taalluqli ilmiy yo`l-yo`riqlarni jamlab o`rganish va qiyosiy tahlil qilish asosiy tamoyil qilib olindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari Vatan tarixini yaratishda, darslik va o`quv qo`llanmalari tayyorlashda qo`shimcha material sifatida xizmat qilishi mumkin. Undan oliy o`quv yurtlaridagi tarix fani bo`yicha o`tkaziladigan seminar mashg`ulotlarida, akademik litsey, kollej va umumta`lim maktablarida sinfdan tashqari darslarda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi.

Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan bo`lib, 89 betdan iborat.

I BOB

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI VA MUHAMMAD RAHIMXON I DAVRINING TARIXSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI.

1.1. Muammoning chet el sharqshunoslari tomonidan o‘rganilishi.

Xorazm bir vaqtlari ulkan hududni egallagan, qadimiy davlatchilik an‘analariga ega bo‘lgan, yuksak madaniyat markazlaridan biri bo‘lib shakllangan ilm o‘choqlaridan sanaladi.

Bu vohaning ulkan tadqiqotchisi S.P.Tolstovning ta’kidlashicha, Xorazm “Shimoliy Yevro-Osiyo cho‘llari bilan O‘rta Osiyoning old va janub qismi tog‘li yerlari hamda Shimoliy Hind pasttekisligini bog‘lovchi halqa, Sharqiy O‘rta Yer dengizi, Hind va Shimoliy Yevro-Osiyo etnik elementlari birlashgan halqadir”¹.

Bu voqa qator qardosh xalqlar-o‘zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qoraqalpoqlar qisman qozoqlar madaniyatining manbaidir².

Xorazm o‘z tarixi davomida ko‘plab urush-talashlarni, qirg‘inlarni boshdan kechirdi. Arablar, mo‘g‘ullar, ruslar istilosi davrida parokandalikka yuz tutdi.

Abulg‘oziy davriga kelib ma’lum darajada iqtisodiy–madaniy yuksalish sari qadam tashladi. O‘sha davrdan boshlab tarixnavislik an‘anasi yuzaga keldi.

Muhammad Rahimxon I davrigacha kelib bu an‘ana yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan “Firdavs ul-iqbol” asari ham o‘sha xon davri mahsuli hisoblanadi.

Mazkur tarixiy solnoma, undagi ayrim voqealar, xususan Muhammad Rahimxon I shaxsi va uning davri haqida ko‘plab tadqiqotlarda turli fikrlar qayd qilingan.

O‘sha xon davrida Xivaga kelgan rus zobiti Nikolay Muravyov Muhammad Rahimxon I haqida dastlabki ma’lumotlarni bergan chet el missionerlaridan biridir. Darvoqe, xon haqida u shunday yozadi: “Muhammad Rahim baland bo‘yli, sog‘lom va baquvvat gavda tuzilishiga ega bo‘lib, hozir ellik yoshlarda. Uning istarasi ancha issiq, vahshiyona qiliqlari va shunga loyiq axloqi yuzlaridan

¹ Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: Изд. МГУ, 1948. –стр.341.

² Карриев Б.А. Эпические сказание о Кёроглы у тюркоязычных народов. –М.: «Восточная литература», 1968.-стр.216.

bilinmaydi. Yuz tuzilishi cho‘zinchoq, ko‘zlari kichik, lekin o‘tday chaqnaydi, qarashlari ziyrak, soqoli kichik va sarg‘ish”³.

N.Muravyov xon haqida gapirar ekan, unga o‘zi bergan sovg‘a haqida ham so‘z yuritadi. U xon oldiga kirish oldidan yuzboshi bilan suhbatlashganini va u kishining xon haqidagi so‘zlarini keltiradi: “Bizning xonimiz nima bersang olaveradi, faqat undan biror narsa undirish qiyin. Bizda shisha juda noyob narsa, bu sovg‘a unga yoqadi. Faqat unga idishdan o‘nta bermang. Bu raqamni bizda uncha xushlashmaydi. Agar to‘qqizta bersangiz yaxshi. Bu son bizda baxtli raqam hisoblanadi”⁴.

Amaldorning xon haqida shunday gaplarni aytishi haqiqatdan yiroq. Bu gaplarni missionerning o‘zi to‘qib chiqargani ehtimolga yaqin.

N.Muravyov Xivada bo‘lganida madaniy hayotga ham qiziqqan. Baxshilar ijrosini tinglagan. Musiqa asboblari haqida yozib qoldirgan: “Ularning musiqa asbobi ikki torli balalaykadan iborat bo‘lib, yarim oy shaklidagi qutiga monand keladi. Uni noxun yoki qalamcha bilan chalishadi. Ulardagi yana bir cholg‘u asbobi to‘rt torli, nihoyatda yoqimsiz tovush chiqaradigan narsa bo‘lib, pastdan chiqqan o‘qini yerga tirab, skripkaga o‘xshab chalishadi”⁵.

Muravyovning so‘ziga qaraganda birinchi asbob tanbur, ikkinchisi qo‘buzdir. Chunki o‘sha paytda qo‘ng‘irotlar sulolasi saroyida qo‘buz bilan aytadigan baxshilar xizmat qilgan. Yo‘l-yo‘lakay missioner “Oshiq G‘arib” dostoni mazmunini ham qisqacha qistirib o‘tadi.

Rus zobiti kitobining “O‘zbeklarning fe‘l-atvori, diniy e‘tiqodi, urf-odatlar va ma‘rifiy qarashlari” deb nomlangan beshinchi bobida xivaliklarning xarakter-xususiyatlari, kiyimlari, iste‘mol qiladigan ovqatlari (palov, go‘ja, qovurdoq, kabob), musiqaga munosabatlari, baxshilar, xonandalar, musiqa va sozandalar haqida ma‘lumot beradi. Sartlarning (yerli aholi) ancha madaniyatli va mag‘rur, o‘zbeklarning esa oddiyroq ekanliklariga urg‘u beradi. N.Muravyovning bergan ma‘lumotlari ba‘zan bir-biriga zid, ba‘zan mensimaslik xususiyatlariga ega bo‘lsa-

³ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1818 и 1820 г. –М.: 1822. –стр. 53-56, 127.

⁴ Ўша манба, 131-бет.

⁵ Ўша манба, 132-бет.

da, o'sha davr madaniy hayotini, xalq etnografiyasini o'rganishda muayyan qiymatga egadir. Uning qarashlariga albatta tanqidiy nuqtai nazardan yondoshmoq zarur bo'ladi. Chunki uning qarashlarida shovinistik munosabat ancha kuchli.

Chet el sayohatchilari orasida Xiva xonligining Muhammad Rahimxon I davrini batafsil bayon qilgan kishi Nikolay Muravyovdir, desak xato qilmagan bo'lamiz. U xonning shaxsiyatiga har tomonlama to'liq tavsif beradi:

“Muhammad Rahim hamma narsada mo'tadillik va oddiylilikni yoqtiradi. Uning kiyimi bir necha to'nlardan iborat bo'lib, boshidagi sallasi Buxoro atlasidan ishlangan. Ba'zan boshidagi telpagiga, oq qoshiya bog'laydi. Ovqatlanishi ham oddiy, kuniga uch ovqat – palov, olma solingan yovg'on osh, yog'siz kabob.

Oddiy ko'chmanchi hayotni sevadi. Yaxshigina yorug' xonalarga ega bo'lsa-da, ularda xotinlari yashaydi. O'zi esa doimo qora uyda istiqomat qiladi. Ovni yaxshi ko'radi, o'rgatilgan burgut bilan qashqaldoq oviga chiqadi. O'sha paytlarda o'rniga Qutlimurod inoqni qo'yib ketadi”⁶.

Muhammad Rahimxon siyosatni, davlat boshqaruvini, kishilar bilan muomala qilishni, hokimiyat imkoniyatlarini takomillashtirishni yaxshi tushungan. Xalqlarni birlashtirish siyosatini yurgizgan. Demokratik tamoyilga to'la asoslanmagan bo'lsa-da, Oliy kengash tuzgan, har bir masalada ko'proq o'z fikriga tayansa-da, a'yonlari bilan maslahatlashgan.

Oliy kengashga o'zi raislik qilgan. “Kengashning birinchi a'zosi xonning eng ishonchli kishisi, birinchi vazir Yusuf mehtar og'a bo'lib, sart toifasidan, chamasi 50 yoshlarda, qattiqqo'l, hech kimga ishonmaydigan kishi. Xon xazinasini ham uning ixtiyorida. Ikkinchi a'zo aqlli, jasur, ko'ngilchan va iltifotli Muhammadiyor qushbegi. Uchinchisi xonning sevimli akasi Qutlug'murod inoqdir.

Xo'jash mahram kengashga a'zo bo'lmasa ham qatnashib turadi.

Kengashga qozi, o'zbek urug'ining yo'lbo'shchilari ham qatnashadi. Kengash juma kuni xon ko'rinishxonasida o'tkaziladi⁷.

⁶ Кўрсатилган асар, 55-бет.

⁷ Кўрсатилган асар, 61-62-бетлар.

N.Muravyov Xo‘jash mahram haqida o‘z asarida ko‘proq to‘xtalib o‘tadi. Mahram urushda ko‘rsatgan jasoratlari sababli xonga yaqin bo‘lgan. Aslida uning bobosi Xurosondan asir qilib olingan qullardan bo‘lib, yaxshi xizmatlari uchun qullikdan ozod etilgan. Xon unga Mirza ham tayinlagan. Xo‘jash mahram 40 yoshlarda, istarasi issiq, qora soqolli kishi bo‘lib, so‘zlaganda ham nutqi yoqimli, deya ta’kidlaydi, N.Muravyov.

Rus zobitining qayd qilishicha, Xiva xonining yana bir ishonchli kishisi rus millatiga mansub bo‘lib, musulmon dinini qabul qilgan. Ismi Tangriquli. Uning xizmatkorlari, qullari bor. Xon unga ancha narsalarni ishonadi, xizmatlar buyuradi. Ammo Tangriquli Xo‘jash mahram darajasiga yetgan emas⁸.

N.Muravyov xonlikdagi rus asirlari va ularning ayanchli hayoti haqida ham gapirib o‘tadi.

Muhammad Rahimxon I davrida pul ishlab chiqariladigan zarbxona tashkil etilgan. Tangalar oltindan zarb qilingan bo‘lib, tilla deb yuritilgan. Uning birinchi tomoniga turkiyda xonning ismi o‘yib yozilgan. Orqa tomonida qur‘on suralari bitilgan. Tangalar ko‘rinishidan juda chiroyli ishlangan⁹.

Xiva xonligida dehqonchilik juda og‘ir mehnat asosida tashkil etilgan. Yerlar qumloq bo‘lib, mineral o‘g‘itlar bo‘lmaganidan go‘nglardan foydalanilgan. Barcha yerlar sun‘iy sug‘orishga asoslangan. Xiva atrofi bog‘-rog‘larga boy. Ayniqsa bu yerda uzumning turli navlaridan yaxshi hosil olinadi. Uning quritilgan turi juda shirin. Uzumdan tashqari olmaning turli navlari, nashvati, tut, anor, gilos, olxo‘ri, nok, bodom va boshqa mevalar juda ko‘p, deb yozadi, rus zobiti¹⁰.

Missionerning ushbu so‘zlari vohamizda o‘sha davrlarda ham mashaqqatli mehnat asosida dehqonlarimizning mo‘l-ko‘lchilik uchun tinmasdan ishlaganliklarini ko‘rsatadi. Albatta ushbu sanab o‘tilgan mevalarning mo‘l-ko‘lligini ta’minlash dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish asosida ro‘yobga chiqadi.

Bu mo‘l-ko‘lchilikning asosiy sabablaridan biri Muhammad Rahimxon I ning mamlakatda osoyishtalik o‘rnatganligidir.

⁸ Кўрсатилган асар, 66-бет.

⁹ Ўша манба, 76-бет.

¹⁰ Ўша манба, 85-86-бетлар.

O'sha davrda Xiva xonligida chorvachilik ham davlatning asosiy daromadi hisoblangan. Qo'y, yirik shoxli mollar, tuyalar podalari katta yaylovlarni egallagan. Ipak qurti boqish, ipak yigirish, turkmanlarda gilamchilik, shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. G'alla ko'p yetishtirilgan. Qo'l tegirmoni va hayvon kuchi bilan aylantiriladigan tegirmon (xaroz) ko'p bo'lgan.

Ichki va tashqi savdo, karvonlardan boj olish hisobiga davlat daromadlari tobora yuksala borgan. Kavkaz va Rossiyaga ko'proq tovarlar eksport qilingan va u yoqdan kerakli tovarlar olib kelishgan. Orenburg, Astraxon kabi shaharlar bilan aloqa juda kuchaygan¹¹.

N.Muravyov Xivaga oddiy sayohatga kelgan emas, balki kelajakda xonlikni Rossiya tasarrufiga olish rejalari pishitish maqsadida bu o'lkaga qadam qo'ygan. Bu fikrimizni uning quyidagi so'zlari tasdiqlaydi: "Qisqasini aytganda hozirda Xiva Buxoro va Shimoliy Hindiston bilan Rossiyaning aloqalariga to'g'onoq bo'lib turibdi. Agarda Xiva bizning qo'l ostimizda bo'lsa (Bu qiyin ish emas) butun O'rta Osiyo xalqlari bizning mamlakatimiz sari yuz burib buyuk Pyotrning orzulari amalga oshar edi"¹².

Bizga ma'lumki, bu kishining orzulari, rejalari 50 yildan keyin amalga oshdi.

Ogahiy, Munis va ularning "Firdavs ul-iqbol" asari haqida ba'zi ma'lumotlarni yozib qoldirgan G'arb sharqshunoslaridan biri Herman Vamberidir.

H.Vamberi Xiva xonligi hududiga kirib kelar ekan, 1862 - (ba'zi manbalarda 1863) yil 30-mayda birinchi o'zbek qishloqlariga qadam qo'ydik, deb yozadi¹³.

U Xiva xonligi haqida so'zlar ekan, mamlakatning asosiy aholisi o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, sart va eroniylerden iborat deya qayd qiladi¹⁴.

H.Vamberi Muhammad Rahimxon I vafotidan 36-37 yil keyin Xivaga kelgan. O'sha paytda Sayid Muhammadxon hukmronlik qilar edi. U Muhammad Rahimxon I dan keyingi oltinchi xon edi. H.Vamberi xon huzuriga kirishga muvaffaq bo'ladi. Hukmdor uni yaxshi kutib oladi. Chunki u Rashid hoji niqobi

¹¹ Ўша манба, 90-93-бетлар.

¹² Ўша манба, 102-бет.

¹³ Вамбери Г. Путешествие по Средней Азии. –М.: 1865. –стр.63.

¹⁴ Ўша асар, 171-бет.

ostida kelgan edi. Xon unga bir eshak va kuzatuvchi ajratadi. Ammo H.Vamberi xon haqida bepisandlik bilan quyidagilarni yozadi: “Men o‘zim yashaydigan uyga kelib, to‘rt devordan iborat xonada yakkayu-yolg‘iz qolgach, chuqur nafas oldim va shunga shukur qildimki, ko‘rinishdan o‘ta ketgan axloqsiz hamda butun qirralari bilan ochiq-oydin befarosat, asabiy va manman mustabid podshoh men bilan o‘ta xushfe‘llik bilan muomala qildi. Natijada men butun xonlik hududida bemalol yuradigan bo‘ldim. Tun bo‘yi ko‘zlari kirtaygan, boshi yarim tepakal, lablari bo‘zargan, titroq ovozli xonning obrazi ko‘z oldimdan ketmadi. Shunda men o‘z-o‘zimga takrorladim: Xurofot ko‘p hollarda davlat boshqarish huquqini mana shunday qonxo‘r mustabid kishilarning ixtiyoriga berib qo‘yadi”¹⁵.

H.Vamberining ushbu so‘zlarini keltirishimizdan maqsad shuki, Xiva xonligiga kelgan chet ellik “Mehmon”lar yaxshi kutib olinishlariga qaramay hamisha hukmdorlarga nisbatan “mustabid”, “johil”, “befarosat”, “yovuz” kabi so‘zlarni ishlatishadi. Chunki ularning asosiy maqsadi ayg‘oqchilikdan iborat edi.

Shuni ham qayd qilish kerakki, H.Vamberi haqida so‘z yuritishimizning yana bir sababi, bu davrda buyuk tarixnavis Ogahiy hali hayot edi. H.Vamberi o‘sha paytda Munis va uning jiyanlari Ogahiy bilan tanishganini, Ogahiyning Mirxondning tarixiy asarlarini tarjima qilayotganini qayd qilib o‘tadi. Holbuki, Munis 1829-yilda vabo kasalidan vafot etgan edi. H.Vamberi Munisni boshqa bir shaxs bilan almashtirgan bo‘lishi mumkin. Har holda Ogahiy nomini Yevropaga birinchi bo‘lib tanitgan shaxs H.Vamberidir.

Shu narsani ham qayd qilish zarurki, H.Vamberi o‘sha davrdagi etnografiyaga oid lavhalarni, madaniy hayotni ham tavsiflab o‘tadi. Jumladan, u xivaliklar haqida shunday yozadi: “Ularning dastlabki o‘troqlashganidan beri ko‘p asrlar o‘tib ketgan. Biroq, xivaliklarning urf-odatlarida eng qadimgi qahramonlik davrlarining izlari ham muayyan darajada saqlanib qolgan. Ularda mimika bilan bog‘liq olishuvlar, jangu-jadal musobaqalari, ot chopish kabi mukofot bilan bog‘liq tomoshalar mavjud. Har qanday dovrug‘li to‘y 9, 19, 29 mukofotdan iborat bo‘lgan poygasiz o‘tmaydi. G‘olib uchun qo‘yilgan mukofotlar 9 qo‘y, 19 echki va

¹⁵ Ўша манба, 69-бет.

boshqalardan iborat bo‘ladi. Xivadagi aholi ibtidoiy otashparastlik bilan aloqador bayramlar va musobaqalarni ham an’anaviy tarzda saqlab qolgan”¹⁶.

Vengriyalik olim bu xildagi etnografik ma’lumotlarni Ogahiyga o‘xshagan ziyolilardan so‘rab olgan bo‘lsa kerak.

Shuningdek, u Ogahiydan Munis she’rlarini so‘rab olgan bo‘lishi mumkin. Chunki shoir asarlarini nemis tiliga tarjima qilib e’lon qilish niyati borligini ham qayd qiladi¹⁷.

H.Vamberi asarlarida keltirilgan ma’lumotlar Muhammad Rahimxon I davridagi madaniy yuksalishning Said Muhammadxon davrida yanada taraqqiy qilganligini XIX-asr boshlaridagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotning qay darajada davom etganligini ko‘rsatishi bilan muhim ahamiyatga molikdir.

H.Vamberidan keyin birinchi bo‘lib, Munis va Ogahiyalar tomonidan yozilgan tarixiy solnomani qo‘lga kiritgan kishi A.L.Kundir. U 1873-yilda xon saroyiga kirib, kutubxonadagi kitoblarni musodara qilishda shaxsan qatnashgan. A.L.Kun Munis yozgan tarixiy xronikaga asoslanib, Abulg‘oziydan Muhammad Rahimxon II gacha davrdagi Xiva xonligi haqida qisqacha axborot yozadi. Uning yozishicha, 1873-yilgi Xiva ekspeditsiyasi davrida uning qo‘liga tushgan Munis mirobning tarixiy solnomasi Xiva xonligi tarixi bo‘yicha alohida ahamiyatga ega. Chunki, bu asar hozirgi xonlar sulolasining asoschisi Eltuzarxon davrida yozilgan bo‘lib, o‘z navbatida bizda uzuq-yuluq ma’lumotlar bo‘lgan ilgarigi davr hukmdorlari haqida ham to‘la ma’lumot beradi. Bu solnomada xonlikda yuz bergan eng muhim voqealar yozib qoldirilgan. Munis mirobning bu kitobi hozirgacha ma’lum bo‘lmagan ko‘plab xonlar haqida ma’lumot olishda yordam bera oladi. Uning mazkur kitobini avlodlari davom ettirgan va hozirda ham davom ettirmoqdalar”¹⁸.

¹⁶ Ўша асар, 172-бет.

¹⁷ Ўша асар, 347-бет.

¹⁸ Кун А.Л. Поездка по хивинскому ханству в 1873 году // Известия русского географического общества. С.Петербург, 1874, т.Х, вып. 2-стр.47-58.

A.L.Kun Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” solnomasini olib ketishda shaxsan qatnashganini “Turkestanskiye vedemosti” gazetasida qayd qilib o‘tadi¹⁹.

A.L.Kunning “Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish” maqolasini U.Bekmuhammad o‘z kitobida to‘liq keltiradi:

“Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to‘pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo‘lyozmalaridan iborat 300 kitob to‘plandi. Shulardan 129 tasi sarlavhali 140 tomdan iborat tarixiy qo‘lyozmalar, 30 tomdan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomdan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari 18 tacha “Qur’on” va 50 ta dars kitoblari ham to‘plandi. Xon saroyi musodara qilinganida, qo‘lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to‘plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlar orasida pul soliqlariga doir yozuvchilar (solg‘ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbegining xon hujjatlari to‘g‘risidagi hisobotlari bor.

Mazkur hujjatlar orasida Buxoroda, G‘azalida, Istambulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to‘g‘risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to‘g‘risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general-gubernatori Norsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o‘rtasida tuzilgan ahdnoma hamda Turkiston general-gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir necha maktub bor” (IV AI AN, Fond 33, p 16).

Sharqshunos Kun janoblari ana shu ma’naviy boyliklarni Xivadan Toshkentga olib kelib, ayrimlari bilan to‘liq, ba’zilar bilan esa mazmunan tanishib chiqdi. Tabiiyki, olim bisotidagi ayrim hujjatlarni Peterburgdagi xalq kutubxonasiga, Fanlar akademiyasining Osiyo muzeyiga taqdim qilgan, (Xorazmga oshufta ko‘ngillar, 151-bet.).

¹⁹ Кун А.Л.Заметки о Хивинском ханстве. // Туркестанские ведомости, 1873, №40. –стр.158.

A.L.Kundan keyin Munis va Ogahiyning asarlari bilan qiziqqan olim V.V.Bartolddir. U “Firdavs ul-iqbol” asarining yig‘ma matnini ham tayyorlagan. Ammo Sho‘ro davri mafkurasi bu xayrli ishni amalga oshirishga yo‘l bermagan. V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, 1873-yilda A.L.Kun tomonidan olib kelingan Munis va Ogahiyarga oid asarlarni keyinchalik uning merosxo‘rlaridan Osiyo muzeyi sotib olgan. Ularning orasida Xiva xonligining batafsil tarixi bitilgan qo‘lyozmalar ham bor bo‘lib, voqealar 1872-yilgacha yozilgan. Bu materiallar haligacha nashr etilgani yo‘q²⁰.

V.V.Bartold “Mo‘g‘ullar bosqini davrida Turkiston” nomli dissertatsiyasini 1900-yilda yoqlaydi. Shundan keyin u O‘rta Osiyo tarixi bilan shug‘ullanishni tark etmadi. 1902-yilda ikkinchi marotaba Toshkentga kelib qo‘lyozmalarni to‘plash ishini davom ettirdi.

“Ha, atoqli akademik Krachkovskiy yozganidek, 1930-yillarda sharqshunoslik bemisl tadqiqotlar bilan rivoj topdi. Ammo ushbu fanning katta, baquvvat poydevorini Yevroosiyo hududida V.V.Bartold qo‘yib ketgan edi.

Bartold yozganidek, “Musulmon olamida tarix hech bir joyda bevosita arxivdan olingan hujjatlar asosida yozilgan emas”. Ma’lumki, N.I.Veselovskiy 1877-yilda chop ettirgan Xiva xonligiga doir asari sharqshunoslikka qo‘shilgan ulkan asarlardan edi. Biroq Bartold qayd etganidek, “U Xiva tarixini yozayotgan vaqtda, hatto Munis va Ogahiyning katta solnomalaridan ham foydalanmagan. Vaholanki bu asarlarning mavjudligidan Veselovskiy xabardor edi”.

Olimni Xorazmddek qadimiy tamaddun beshigi o‘ziga jalb qilgandi. Uning shaxsiy arxividan Xiva xonligiga doir juda ko‘plab qimmatli ma’lumotlar topildi. Hattoki akademikning qo‘lyozma meroslari (V.V.Bartoldning shaxsiy arxivi g‘oyatda boy bo‘lib, bugungi kunda Rossiya Fanlar akademiyasidagi maxsus bo‘limda 68-fondga saqlanmoqda) orasida uning tomonidan yozilgan Xiva shahar tarixi ham topildi. Bartoldning Xiva xonligi tarixiga doir hali fanga ma’lum bo‘lmagan qo‘lyozmalari va xatlari 200 sahifadan iboratdir²¹.

²⁰ Бартольд В.В. Сочинения. Т. 2. Ч. 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. –М.: 1964. – стр.57.

²¹ Бекмуҳаммад У. Хоразмга ошуфта кўнгиллар. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2012. –142-143-б.

Talantli olim Xiva xonligi tarixini tadqiq qilish uchun ko‘p kuchini sarfladi va ularni qadrladi.

Bartold Xorazm tarixini o‘rganish jarayonida Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga juda yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: “Munis va Ogahiyning asarlari adabiy va tarixiy asar sifatida qanday nuqsonlari bo‘lsa-da, bu asarlar bayonotining mukammalligi va haqiqiy materiallarning miqdori jihatidan Buxoro va Qo‘qon xonliklarining tarixiga doir bizning davrimizgacha saqlanib kelgan hamma asarlardan ustun turadi”²².

1929-yili “Firdavs ul-iqbol” solnomasidan turkmanlar tarixiga oid voqealarni asardan terib olib, o‘ziga xos bir tadqiqot yaratgan. Shu yili olim Berlindan Xorazm tarixiga oid yangi bir qo‘lyozmani topib, uni “Firdavs ul – iqbol” asari bilan qiyosan o‘rganadi²³.

Xullas, Munis, Ogahiy va ularning tarixiy asarlarini V.V.Bartold G‘arb olamiga targ‘ib qildi.

“Firdavs ul-iqbol” tarixiy solnomasidan parchalar P.P.Ivanov tomonidan ham tarjima qilinib, 1938-yilda “Материалы по истории туркмен и туркмени” kitobida chop etilgan.

P.P.Ivanov Munis va Ogahiy asarini “XVIII-XIX-asrlar Xiva xonligi tarixining bosh manbasi”, deb baholaydi²⁴.

P.P.Ivanovning tarjimasi ancha tuzuk, lekin, o‘sha davr mafkurasi bilan lozim bo‘lgan joylarigina rus tiliga o‘girilgan. Uning bergan ma’lumotlarida shu davrdagi migratsiya jarayoni ko‘proq tilga olinadi. Masalan, Eltuzarxon va Muhammad Rahimxon I davrida Xorazm vohasiga turkman qabilalari ko‘proq ko‘chirib olib kelindi. 1804-yilda Xurosondan emreli qabilasini ko‘chirib kelishadi. Ular Xo‘jaylidagi Omon quli arig‘i bo‘ylab Kenagas ovulida makon tutadilar. Sal keyin ularni Oqsaroy va Muzko‘mgan degan yo‘vmitlar yashaydigan joyga ko‘chirishadi²⁵.

²² Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. –Л.: 1927. –стр.113.

²³ Новый источник по истории Хорезма. VIII том. –М.: 1929. –стр.566-577.

²⁴ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. XVI середина XIX вв. –М.: Изд. Вост. литературы, 1958. – стр.56.

²⁵ Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. –М.: Л.: 1938. –стр. 355, 358.

Shuningdek, P.P.Ivanov tarjimasida yoʻvmitlarning koʻchish-qoʻnishlari ham keltirilgan.

Kitobda qayd qilinishicha, ilgari ular Bolqonda istiqomat qilishgan, keyin esa Gurgon va Atrak tomonlarga koʻchishgan. Keyinchalik Xorazmga keltirilgan²³.

Keyinchalik yoʻvmitlar Xurosonga koʻchishadi. 1806-yilda yana Xorazmga qaytib kelishadi. Ular yana Oqsaroydan makon tutgach, u yerdagi emreli qabilasi Yangiariqqa koʻchiriladi²⁴.

Bu koʻchish va koʻchirishlar Shergʻozixondan tortib, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I, Olloqulixon va boshqalar davrida ham muntazam davom etdi. Bu holat oʻsha davr xonlarining oʻziga xos bir siyosati boʻlib, koʻproq turkman qabilalarini Xorazmga keltirishdan asosiy maqsadlardan biri-ular xonlikda harbiy qoʻshinda xizmat qilishar, urush-savash koʻp boʻlgani uchun bu qabilalardagi jangavor yigitlar xonlarga juda kerak edi. Qolaversa, ular chorvachilik, xususan ot-yilqichilik bilan shugʻullanishar, bu esa yana harbiy maqsadlar uchun juda zarur edi.

P.P.Ivanovning yozishicha, harbiy xizmat xonlik tasarrufida yashovchi har bir xalq vakili uchun muqaddas vazifa hisoblangan. Har bir masjid jamoasi oʻzi joylashgan hududda yashovchi aholi sonidan kelib chiqib, maʼlum miqdordagi navkarlarni taqdim qilgan²⁵.

P.P.Ivanov Muhammad Rahimxon I davri haqida har tomonlama muhim maʼlumotlarni keltirgan. Uning yozishicha, oʻsha davrda xon yer islohatini ham oʻtkazgan. Raqobatda turgan yirik yer egaligi amalda yoʻqotilgan. Yerlar davlat hisobiga musodara qilingan yoki yangi shakllanayotgan aristokratiya vakillariga taqsimlab berilgan²⁶.

Maʼlumki, Muhammad Rahimxon I 1811-yilda Toʻramurod soʻfi ayirmachiligini tugatishga muvaffaq boʻldi. Shu munosabat bilan xonga itoat

²³ Ўша китоб, 359-бет.

²⁴ Ўша китоб, 370-бет.

²⁵ Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX-в –Л.: 1940. –стр.21.

²⁶ Ўша манба, 18-бет.

qilgan Orol katxudolari va harbiy boshliqlar xonning muruvvatiga sazovor bo'ldilar. Ularga xon sug'oriladigan unumdor yerlarni in'om qildi.

Chet el sharqshunoslarining e'tirof etishlaricha, XIX-asr boshida Xiva xonligi tepasiga kelgan qo'ng'irotlar sulolasi vakillari Eltuzarxon (1804-1806) Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronlik qilgan yillarda tarixiy sharoit juda murakkab edi. Bu ikki shaxs mamlakatning hududiy yaxlitligini ta'minlashda, turli ayirmachiliklarni tugatishda, mamlakatni siyosiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Olloqulixon esa o'z avlodlarini, xususan otasi boshlagan ishlarni davom qildirib, Xiva shahrini, mamlakatning barcha hududlarini yanada rivojlantirdi va davlatning obro'-e'tiborini yanada oshirdi. Ayniqsa u qurdirgan Toshhovli Xivaning go'zalligiga go'zallik qo'shdi. Hozirda ham shaharga ko'rk bag'ishlab turibdi.

1.2. Muammoning o'zbek olimlari va tadqiqotchilari tomonidan o'rganilishi.

“Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari va uning tarkibidagi Muhammad Rahimxon I ning xonlik davri haqida tadqiqot olib borgan tarixchi olimlardan biri Q.Munirovdir. U “Xorazmda tarixnavislik” nomli monografiyasida XVII-XIX va XX-asr boshlarida Xorazmda yashab o'tgan buyuk tarixnavislar va ular tomonidan bitilgan tarixiy asarlar haqida batafsil ma'lumot beradi²⁷.

Tarixshunos olim “Firdavs ul-iqbol” asariga sharh berar ekan, uning Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida va O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan o'nga yaqin qo'lyozma nusxalari haqida ma'lumot beradi.

Q.Munirovning mazkur monografiyasi IV bobdan iborat bo'lib, I-bobda umuman Xorazm tarixnavisligining o'rganilishi masalasiga to'xtaladi.

II-bobda Abulg'oziy Bahodirxon, Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlariga tavsif beradi.

²⁷ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. –Т.: Ф.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 2002. 192-б.

III-bobda XVII-XIX va XX-asr boshlarida Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Xiva xonligi siyosiy hayotining aks etish masalasini yoritib beradi.

IV-bobda Xiva xonligining o'sha asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti xususida so'z yuritadi. Xususan, sug'orish ishlari, feodal yer egaligi, soliqlar, mansablar, diplomatik va savdo munosabatlari, aholi tarkibidagi toifa va urug'lar, hududiy-geografik ma'lumotlar, olim va shoirlar, hamda qurilish ishlariga aloqador ko'plab masalalar tahlil etilgan.

Tadqiqot qisqa, lo'nda va puxta yozilgan. Tarixchi olim "Firdavs ul-iqbol" asari mualliflarini alohida e'tibor bilan tilga oladi: "XVII-asrdagi Xiva xoni va tarixchisi Abulg'oziy boshlagan ishni XIX-asrda atoqli o'zbek shoirlari va mashhur tarixnavislari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdilar. Bu buyuk olim va tarixnavislar Xorazm tarixini yozish bilan bir qatorda shu sohada ma'lum maktab ham yaratdilar"²⁸.

"Firdavs ul-iqbol" asarining qo'lyozma nusxalari haqida F.G'anixo'jayevning "Ogahiy asarlarining tavsifi" kitobida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi²⁹. Kitobda qayd qilinishicha, Munis va Ogahiy qalamiga mansub mazkur asarning oltita nusxasi mavjud. Asarning eng mukammal nusxasi Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti bo'limida saqlanadi. O'sha bo'limda asarning yana bir nusxasi ham mavjud. Har ikkala nusxa bir xil. Biroq birinchi nusxa Munis va Ogahiylarning o'z dastxati. Ikkinchisini Mulla Nurniyozi ibn mulla Muhammadniyozi ko'chirgan.

Uchinchi nusxa O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Bu nusxa 1879-yilda Muhammad Rizo oxund ibn Muhammad Karim tomonidan ko'chirilgan. To'rtinchi nusxa ham o'sha institut fondida saqlanadi. Bu nusxa ham 1903-yilda uchinchi nusxa kotibi tomonidan ko'chirilgan. Beshinchi nusxa ham mazkur institut fondida saqlanadi. Uni 1903-yilda Xojaniyozi al-Xonqahiy ko'chirgan. Oltinchi nusxa sobiq qo'lyozmalar instituti fondidan joy olgan bo'lib, uni 1910-yilda Mulla Xudoybergan Xivaqiy ko'chirgan.

²⁸ Kўrsatilgan asar, 4-б.

²⁹ Огаҳий асарларининг тавсифи (каталог. Тузувчи: Ф.Ғанихўжаев) –Т.: Қўлёзмалар институти нашри, 1986. –126-б.

“Firdavs ul-iqbol” asari xususida ayrim fikrlar G‘.Karimov va S.Dolimovlarning ishlarida ham uchraydi³⁰. Biroq, bu olimlarning ishida mazkur tarixiy asardan parchalar berilmay, faqat Ogahiyning o‘zi yozgan tarixiy asarlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan.

“Firdavs ul-iqbol” asari haqida Vohid Abdullayev ham samimiy fikrlarni qayd qilgan. Jumladan olim bu asar haqida shunday yozadi: “Firdavs ul-iqbol” faqat tarixiy hodisa-voqealarni o‘rganishdagina emas, balki o‘sha zamondagi adabiy-madaniy muhitni tekshirish va yoritishda ham katta rol o‘ynovchi manbadir. “Firdavs ul-iqbol” prozaik tarixiy asar bo‘lsa ham, unda o‘rni bilan, rivoyatlar, she’riy parchalar, xalq maqollari va aforistik so‘zlar berib borilganki, bu hol uning adabiy-tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi”³¹.

“Firdavs ul-iqbol” asari haqida T.Ahmedovning ayrim qaydlari mavjud. Uning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida berilgan maqolasi sho‘ro davri mafkurasi asosida yozilgan. Shu sababli tadqiqotchi “Munisning dunyoqarashi (tarixchi sifatida) cheklangan bo‘lib, hukmron sinf vakillarini, xon va uning yaqinlarini ko‘pincha maqtaydi, ularning bosqinchilik, talonchilik siyosatlarini xaspo‘shlab o‘tadi, qisqasi, hokim sinf manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi. U o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan boshqa xalqlarning xatti-harakatlarini qoralab ko‘rsatadi”³², deb yozadi. Ammo “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarini kimki e’tibor bilan o‘qisa, undagi o‘zaro kurashlarning negizida nimalar yotganini qiynalmasdan anglab oladi.

Masalan, Muhammad Rahimxon I davridagi To‘ramurod so‘fining ayirmachilik harakatlarini ozodlik uchun kurash deya baholab bo‘lmaydi. Shuningdek, yo‘vmit, chovdur qabilalarining karvonlarni talashi, shahar va qishloqlarga hujum qilib, turli o‘ljalarni, asir va asiralarni olib ketishlarini ham talonchilikdan boshqa narsa deb baholash qiyin. Bir so‘z bilan aytganda, o‘sha davrda xon mamlakat yaxlitligi va osoyishtaligi uchun kurash olib bordi. Qo‘shni xonliklar bilan chiqqan nizolarda esa har ikkala tomon ham aybdordir.

³⁰ Огахий. Асарлар, VI жилдлик, I жилд. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти.1975. 5-35-б.

³¹ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967. –116-384-б.

³² Ўзбек адабиёти тарихи, IV том. –Т.: “Фан”, 1978. –412-б.

So‘nggi yillarda “Firdavs ul-iqbol” asariga qiziqish, uni tadqiq qilishga intilish kuchaydi.

Asarning 2010-yilgi nashriga yozilgan so‘zboshi va so‘ngso‘zlarda ham bu tarixiy manba haqida yaxshi kuzatishlar qayd qilingan. Jumladan, o‘sha nashrdagi so‘ngso‘z muallifi N.Jumaxo‘ja bu kitob haqida iliq fikrlarni bayon etgan. Uning yozishicha, “Firdavs ul-iqbol” (Baxtlar bog‘i) solnomasining birinchi marta zamonaviy o‘zbek imlosida, asl manbalar asosida, to‘liq nashr etilishi o‘zlikni anglash, milliy ma’naviy tiklanish sari qo‘yilgan dadil bir qadam sifatida katta ahamiyatga ega hodisalardan bo‘ldi³².

N.Jumaxo‘ja ushbu maqolasida mazkur tarixiy solnomaning bebaho xazina ekanini hurmatli Birinchi Prezident I.A.Karimov bildirgan fikrlar asosida to‘la yoritib beradi. Asardagi voqealar bayonidagi mualliflar mahoratiga e’tibor qaratadi. Uning bugungi kundagi ma’naviy–ma’rifiy ahamiyatini isbotlab beradi. Asarda tasvirlangan qonli urushlarning ijtimoiy-siyosiy sabablarini ko‘rsatib o‘tadi. Maqola muallifining Ogahiy ismini yaxlitligicha Muhammadrizo shaklida yozish lozimligi, uni turlicha yozishlarga barham berish zarurligini imloviy isbotlab berishi ham muhim ahamiyatga ega.

N.Jumaxo‘ja yana bir narsaga e’tiborni jalb qiladiki, kitobda Munis va Ogahiyilar fikrni ifodalashda forscha, ayniqsa arabcha so‘z-iboralar, kiritma tarkiblarni ko‘p qo‘llaydi. Ilohiyot bilan bog‘liq diniy jumla tuzilishlari va qoliplashgan arabiy andozalardan unumli foydalanishadi. Shu bilan birga Ogahiy uslubi Munisnikiga nisbatan ancha yengilligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli bundan keyin “Firdavs ul-iqbol” kabi murakkab uslubli asarlarni hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga tabdil qilib nashr etish maqsadga muvofiq bo‘ladi³³. Albatta olimning bu fikri juda to‘g‘ri. Negaki, ushbu solnoma tilini tushunish oliy ma’lumotli kishilar uchun ham ancha qiyinchilik tug‘diradi.

Ushbu nashrda S.R.Ro‘zimboyev va A.Ahmedovlarning so‘zboshisi ham berilgan bo‘lib, unda Xorazmning antik tarixiga e’tibor qaratiladi, “Avesto” va

³² “Фирдавс ул-икбол” улкан комусий, тарихий-адабий манба. “Фирдавс ул-икбол”. –Т.: “Ўқитувчи”, 2010. – 372-б.

³³ Ўша манба, 379-бет.

Behustun yozuvlari tilga olinadi. Bartold, Veselovskiy, Tolstov kabi olimlarning ishlariga sharh beriladi. Ushbu tarixiy manbaning qo‘lyozma nusxalariga e‘tibor qaratiladi. Kitobni nashrga tayyorlash jarayonidagi yosh mutaxassslarning bergan yordamlari qayd qilinadi³⁴. 1999-yilda Ogahiyning 90 yilligi munosabati bilan “Ogahiy abadiyati” kitobi nashr qilindi. Bu kitobga kirgan A.Ahmedovning “Ogahiy dahosi”, S.Abdullayevning “Ogahiy va Xorazmda tarixnavislik”, A.Sa’dullayevning “Avlodlar ehtiromi” kabi maqolalarida “Firdavs ul-iqbol” asari xususida ayrim qaydlar uchraydi³⁵.

2008-yilda S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov, R.Yo‘ldoshevlarning “Ogahiyning adabiy-tarixiy merosi” kitobi bosilib chiqdi. Ushbu risolada Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan “Firdavs ul-iqbol” tarixiy solnomasi haqida, umuman o‘sha davr mamlakat saltanatida hukmron bo‘lgan qo‘ng‘irotlar sulolasi, ularning xonlikdagi madaniy hayotni yuksaltirish, tarixnavislikni rivojlantirishdagi xizmatlari ham yoritib beriladi³⁶.

S.Ro‘zimboyev va A.Ahmedovlarning “Firdavs ul-iqbol”dagi adabiy janrlar haqida” nomli maqolasida asar tarkibidagi she‘riy parchalar, turli nasriy badiiy asarlar xususida gapirilib, solnoma tarkibidan joy olgan etnografik lavhalarga ham e‘tibor qaratiladi. Ularning qayd qilishlaricha, “Firdavs ul-iqbol” asarida etnografik lavhalar, ayrim shoirlarning hayoti va ijodi haqida berilgan ma‘lumotlar ham qimmatlidir. Xususan, Rahmonquli to‘raning Hazoraspda o‘tkazilgan sunnat to‘yi tavsifi, Qutlug‘murod inoqning vafoti bilan aloqador udumlar bayoni etnografiya ilmiga muayyan ma‘lumotlar bera oladi. Asarda Mavloni Masiho, Said Muhammad oxun, Vafoiy, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammadniyoz Nishotiy kabi shoirlar hayoti va ularning ijodidan namunalar berilishi tarixiy asarning nihoyatda muhim ilmiy manba ekanligidan dalolat beradi³⁷.

Darhaqiqat, maqola mualliflarining ushbu ma‘lumotlari tarixiy asarda batafsil yoritilgan madaniy hayotning bir ko‘rinishidir. Bunday lavhalar

³⁴ Ўша манба, 38-бет.

³⁵ Огаҳий абадиёти. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999.

³⁶ Рўзимбоев С., Аҳмедов А., Йўлдошев Р. Огаҳийнинг адабий–тарихий мероси. –Урганч, “Университет”, 2008. –34-35-б.

³⁷ Рўзимбоев С. Аҳмедов А. “Фирдавс ул-иқбол”даги адабий жанрлар ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, №6, 2009. –24-б.

solnomaning aksariyat joylarida tez-tez ko'zga tashlanib turishini maqola mualliflari alohida ta'kidlab o'tishgan. Maqolada qayd qilib o'tilgan va tahlilga tortilgan ko'plab adabiy janrlar ham Xorazmdagi madaniy-adabiy hayotning yorqin ko'rinishlaridan biridir.

“Firdavs ul-iqbol” asari haqida tadqiqotchi G.Xolliyeva ham bir qancha maqolalar e'lon qildi. U o'zining “Ogahiy ijodining xorijda o'rganilishi” nomli maqolasida “Firdavs ul-iqbol” solnomasining xorijda o'rganilishi borasida yangi ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, Rossiyada mazkur tarixiy asarni A.N.Samoylovich, P.P.Ivanov, N.Mingulovlar qozoq, turkman, qoraqalpoq xalqlari tarixini yoritish maqsadida asardan ayrim parchalarni tarjima qilib rus tilida e'lon qilishgan. A.D.Kalmikov “Xiva” asarida ham mazkur asardan parchalar bergan. B.V.Lunin Xorazm tarixini o'rgangan olimlar haqidagi maqolasida asar va uning o'rganilishiga sharh bergan. Ba'zi manbalarda qo'lyozmalar tavsifi ham mavjud. Qo'lyozmaning asl nusxasi Rossiya FA Sankt-Peterburg muzeyida saqlanadi. Sharqshunos Yu.Bregel mazkur nusxa asosida “Firdavs ul-iqbol”ning ilmiy-tanqidiy matnini nashr qildirgan. Shuningdek, A.L.Kun, nemis olimi S.Selemanlar ham asar haqida ayrim ma'lumotlarni e'lon qilishgan.

1933-yilda turk olimlari Nesip Azim va Abdulqodir Inanlar qo'lyozmaning Istambuldagi nusxasi asosida asardan parchalar e'lon qilishgan³⁸. G.Xolliyevaning “Firdavs ul-iqbol” debochasi adabiy manba sifatida” nomli maqolasida ham fan uchun ayrim yangiliklar uchraydi. Uning qayd qilishicha, “Firdavs ul-iqbol” debochasi shoir hayoti va ijodi, adabiy-estetik qarashlarini o'rganishda bir manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaga muvofiq unda hamd (1-4), na't (4-7), to'rt xalifaning fazl va martabasi ulug'langan manoqib (7-8), Xorazm xoni Eltuzarxon madhi (14-18) va sababi ta'lif, ya'ni asarning yozilish sababi hamda tuzilishi (19-21) haqida ma'lumot berilgan. Debochada uch xil talqinni kuzatish mumkin: Diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy va adabiy-estetik g'oyalar³⁹.

³⁸ Холлиева Г. “Огаҳий ижодининг хорижда ўрганилиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, №9, 2009. –25-26-б.

³⁹ Холлиева Г. “Фирдавс ул-иқбол” дебочаси адабий манба сифатида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, №1, 2009. – 75-б.

Maqolada yana bir muhim fakt keltirilgan. “Firdavs ul-iqbol” asarini yozish oldidan Munis uning mukammal rejasini tuzgan. Ammo asarni nihoyalay olmagan. Ogahiy esa, asarni davom ettirib, 1825-yilgacha bo‘lgan voqealarni tasvirlagan. Biroq Munis rejalashtirgan xotima qismi yozilmay qolgan. Unda yoritilish kerak bo‘lgan “zakiyta’b shoirlar va doniymand fozillar haqidagi qism adabiy-tanqidiy qarashlarni bayon qilish uchun yana bir imkoniyat edi. Ogahiyga “Firdavs ul-iqbol”ni hali tugatmasdan boshqa tarixiy asarni boshlash buyurilgani bunday imkoniyatni boy berdirgan”⁴⁰.

Ogahiyning o‘zi bu haqda quyidagicha ma’lumot beradi: “Xotima avliyoi izom va ulomoyi irom va umaroyi zul ehtirom va sohibi davlat beklar va zakiy ta’b fozillar va falontun fitrat hunarmandlar va ba’zi umuri g‘aribakim, hazrati podshohning ayyomi maymanat anjomida vuqu’ topibdur, alar hikoyatig‘a maxsusdir”⁴¹.

Darhaqiqat, Munis rejalashtirgan masalalardan bittasi asar sahifalaridan o‘rin olmasdan qolgan. Agarda Ogahiy o‘sha qismni ham yozib asarni to‘la nihoyasiga yetkazsa solnomaning ilmiy qimmati yanada oshgan bo‘lar edi. O‘z navbatida o‘sha davrda Xorazmda kechgan madaniy hayot kitobda o‘zining to‘la-to‘kis ifodasini topib, bugungi kun uchun muhim bo‘lgan ko‘plab lavhalarni o‘z ichiga olgan bo‘lar edi.

Tadqiqotchi olim G.Xolliyeva “Firdavs ul-iqbol” solnomasi xususida ko‘pgina yangi materiallarni Rossiyaning Sankt-Peterburg kutubxonasidan olib ilm ahllariga taqdim etib kelmoqdaki, bu xayrli ishni oxiriga yetkazish lozim.

Tadqiqotchining “Firdavs ul-iqbol”ning xorijda o‘rganilishi” maqolasida ham asar bilan bog‘liq muhim masalalar o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, “Munis va Ogahiy haqida Yevropaga birinchi bo‘lib xabar bergan olim Herman Vamberidir. U Xivaga sayohat davomida (1863) Munis va Ogahiyning ko‘rganligi, keyinchalik Munis she’rlarini nemis tiliga tarjima qilib, nashr qilish niyati borligi haqida ma’lumot beradi. Ammo, olim “Firdavs ul-iqbol”

⁴⁰ Ўша манба, 78-б.

⁴¹ “Фирдавс ул-иқбол”, 16-б.

bilan tanish bo'lmagan. Amerikalik sharqshunos Yu.Bregelning ta'kidlashicha, H.Vamberi xabarida biroz yanglish mavjud (u Munisni ko'rishi mumkin emas edi. Chunki 1863-yilda shoir allaqachon vafot etgan edi)⁴².

Mazkur maqolada tadqiqotchi rus sharqshunoslari A.L.Kun, V.V.Bartold, M.N.Tumanovich, I.I.Umnyakov va boshqalarning tarixiy solnoma haqidagi fikrlari va amalga oshirgan tadqiqotlariga tavsif beradi.

G.Xolliyevaning "Firdavs ul-iqbol"ning xorijda nashr qilingan ilmiy-tanqidiy matni xususida" deb nomlangan maqolasi ham kishida yaxshi taassurot qoldiradi. Maqolada "Firdavs ul-iqbol" tarixiy solnomasining jahon bo'ylab tarqalgan nusxalari xususida so'z yuritiladi. Jumladan asarning Istambul, Xelsinki universitetlari nusxalari haqida ham ma'lumot beriladi.

Barcha nusxalar orasida Sankt-Peturburg kutubxonasida saqlanadigan C-575 raqamli qo'lyozma asl nusxa bo'lib hisoblanadi. Bu nusxa ikki muallif Munis va Ogahiyning asl dastxatidan iborat. Ogahiy asarning davomini yozibgina qolmay, uni boshdan-oyoq tahrir qilib ham chiqqan. Ba'zi o'rinlarga o'zgartirishlar ham kiritgan. Bu tahririy jumlarlar dastxati Ogahiy yozgan qismdagi dastxat bilan aynan bir xilda bo'lgani uchun o'sha xulosaga kelish mumkinligi Bregel tomonidan qayd qilingan. "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarini nashrga tayyorlash oson kechgan emas. Manbaga qiziqishni Yu.Bregel 1972-yilda boshlagan. Ishni dastlab Rossiyada, bir yildan keyin Isroilda Iyerusalim universitetida davom ettirgan. Olim bir qancha sa'y harakatlar bilan 1977-1978-yillarda to'liq matnni tayyorlagan va nashrga tayyorlagan. Endi eng qiyini asarni chop etishga rozi bo'lgan nashriyotni topish edi. Nihoyat, 1981-yili Brill nashriyoti bu xayrli ishga rozi bo'lgan. Nashr ishi 5 yil davom etgan. Bu jarayonda Yu.Bregel asarni ingliz tiliga tarjima etgan. Shu tariqa, 1988-yilda arab alifbosidagi ilmiy-tanqidiy matn, 1999-yilda tarjima chop etilgan⁴³. Shuni qayd qilish kerakki 2010-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan nusxa, shuningdek, o'sha yili "Yangi asr avlodi" nashriyotida chop etilgan (nashrga tayyorlovchilar: SH.Vohidov, I.Bekchonov, N.Polvonov) nusxa (520

⁴² Холлиева Г. "Фирдавс ул-икбол"нинг хорижда ўрганилиши. "Ўзбек тили ва адабиёти", №2, 2008. –42-б.

⁴³ Холлиева Г. "Фирдавс ул-икбол"нинг хорижда нашр қилинган илмий-танқидий матни хусусида. "Ўзбек тили ва адабиёти", №4, 2007. –46-50-б.

sahifa) ham Yu.Bregel tomonidan nashrga tayyorlanib chop etilgan nusxaga asoslangan bo‘lib, ancha mukammal tarzda nashrlar hisoblanadi. Bu esa Yu.Bregelning buyuk xizmatlarini yana bir bora isbot qiladi.

“Firdavs ul-iqbol” asari va u bilan bog‘liq Muhammad Rahimxon I faoliyati xususida boshqa ko‘pgina manbalarda ham e‘tiborga loyiq fikrlar qayd qilingan.

Professor M.Matniyozovning “Xorazm va xorazmiylar tarix ko‘zgusida” risolasida, jumladan shunday satrlar bor: “1804-yildan 1920-yilgacha qo‘ng‘irotlar sulolasi vakillari xonlikni boshqardilar. Ularning soni taxminan 50 ga yaqin bo‘lgan.

Xonlar orasida Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1826-1842) va Muhammad Rahimxon II (Feruz, 1864-1910) hukmronlik yillari Xiva xonligining gullab-yashnagan davrlari, davlat apparatining markazlashib borishi, boshqarish usullarining takomillashishi, davlatlararo savdo-sotiq ishlari rivojlangan, ilm-fan taraqqiy etgan davrlar hisoblanadi”⁴⁴.

Qo‘ng‘irot sulolasi davrida Xorazmning rivojlanish sari yuz tutganining asosiy sabablaridan biri har yili, ba‘zan har oyda xon almashishi, ularning davlat tepasida “qo‘g‘irchoq hukmdor” sifatida o‘tirish an‘anasining Eltuzarxon tomonidan tugatilishi bo‘ldi. Bu qo‘g‘irchoq xonlarning deyarlik barchasi Chingiz avlodidan niqobi ostida tayinlanar, ularning aksariyati kelgindi shaxslar edi. Eltuzarxondan boshlab davlat tepasiga mahalliy hukmdorlar keldi va ular el-yurtni birlashtirish, tinch-totuvlik siyosatini yurgizib, xonlikni qudratli davlat sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Bu fikr tarixshunos O.Mutalov tadqiqotlarida ham alohida ta’kidlangan: “Eltuzarning inisi Muhammad Rahim I (1806-1825) davrida Xorazm xonligi boshqaruv jihatdan ancha mustahkamlandi. Oliy kengash ta’sis etilib, yangi soliq islohoti o‘tkazildi, bojxona va zarbxona tashkil etildi, natijada davlat daromadi ko‘paydi. Mayda bekliklar, Orol atrofidagi qabilalar Xiva xonligi tarkibiga qo‘shib olindi. Bu davrda xonlik mustahkamlandi. Xiva, Yangi Urganch, Hazorasp, Xo‘jayli, Toshhovuz, Gurlan, Xonqa va boshqa shaharlarda qurilishlar bo‘ldi, turli

⁴⁴ Матниёзов М. Хоразм ва хоразмликлар тарих кўзгусида. –Урганч, “Университет”, 2011. –21-56-б.

hunarmandchiliklar rivojlandi. Ular savdo markazlariga aylandi. Qo'shni mamlakatlar bilan diplomatik va savdo aloqalari muntazam ravishda amalga oshirilib turildi"⁴⁵.

Yosh tarixchi olim K.Xudoyberganovning qator tadqiqotlarida Muhammad Rahimxon I davri tilga olib o'tiladi. Uning qayd qilishicha; "Muhammad Rahimxon I davrida ichimlik (mast qiluvchi) ichish, bang chekish qat'iy ta'qiqlangan. Bu qoidani buzgan kishining og'zi qulog'igacha kesilishi to'g'risida farmon chiqarilgan. Shaharlarni obodonlashtirish, faqirlarni shod qilish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Majlislar tuzilib ilmu fuzalo va shoiru donishmandlar bilan kitobxonlik va ma'nidonlik etishgan"⁴⁶.

Muhammad Rahimxon I haqida va uning Xiva xonligi tarixida tutgan o'rni xususida bildirilgan fikrlarning aksariyati "Firdavs ul-iqbol" asarida berilgan ma'lumotlarga asoslangan.

Albatta, Muhammad Rahimxon I barcha kamchiliklardan xoli bo'lgan, degan xulosaga kelish xato bo'lar edi. Chunki u o'z davrining kishisi. O'sha davrdagi an'ana sifatida kelayotgan ayovsiz qonun-qoidalarga u ham bo'ysungan. O'z davrigacha kishilarga qanday jazo qo'llanilgan bo'lsa, u ham o'sha jazolarni amalga oshirgan. Yuqorida keltirgan iqtibosimizdagi "Og'zini qulog'igacha" kesish jazosi ham o'sha davrdagi dasturlardan biridir.

Keyingi yillarda Urganch Davlat universiteti olimlari Munis va Ogahiyning tarixnavislikda tutgan o'rni haqida qator tadqiqotlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Jumladan, faylasuf olim M.Safarboyev Ogahiy ijodi bilan bog'liq bir qator asarlar yaratib, o'rni bilan "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asari va Muhammad Rahimxon I davri haqida o'z munosabatini bildirgan⁴⁷.

2004-yildan beri universitetning filologik tadqiqotlar markazi tashabbusi bilan "Ogahiy olami" majmuasi chop etilib, unda ilm dargohining olimlari, doktorantlari, magistrantlari va talabalarining buyuk shoir va tarixnavis ijodiga oid

⁴⁵ Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. –Т.: JFSET –PRINT, 2005. –14-б.

⁴⁶ Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. –Урганч, –"Хоразм", 2008. –140-б.

⁴⁷ Сафарбоев М. Агахи-поэт и мыслитель. –Т.: изд. Отдель УрГУ, 2007. Яна ўша: Огаҳий ҳаёти ва ижоди солномаси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009.

maqolalari bosilib kelmoqda. Shu jarayonda Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asariga doir tadqiqotlar ham yoritilmoqda. Ushbu majmuaning hozirgacha 5 soni chop etildi. Uning birinchi sonida A.Ahmedovning “Xorazm tarixi manbashunosligi taraqqiyotida Ogahiyning o‘rni” maqolasi e‘lon qilingan⁴⁸. Shuningdek, majmuadan tarixchi olim A.Sotliqovning “Ogahiy–mashhur tarixnavis olim” maqolasi ham o‘rin olgan. Bu maqolalarda Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarini yaratishdagi hissasi yoritib beriladi.

Majmuaning ikkinchi kitobida professor M.Matniyozovning “Ogahiy tarixnavis olim”, S.R.Ro‘zimboyevning “Ogahiy olami”, M.Matkarimovning “Ogahiyning davlatni boshqarish to‘g‘risidagi fikrlari” kabi maqolalar chop etilgan bo‘lib, ularda Ogahiyning tarixnavislikka qo‘shgan hissasi, xususan “Firdavs ul-iqbol” asariga aloqador ilmiy axborotlar jamlangan⁴⁹.

“Ogahiy olami”ning uchinchi kitobida S.R.Ro‘zimboyevning Munis va Ogahiyning tarixnavislik mahoratiga bag‘ishlangan maqolasi chop etilib, unda “Firdavs ul-iqbol” asarida tarixnavislarning so‘z tanlash, sinonimlardan foydalanishdagi mahoratlari tahlil qilinadi. Shuningdek, S.Matkarimovanning “Ogahiy – XIX-asr Xiva xonligi mashhur tarixchisi”, Sh.Nurullayevaning “Ogahiy serqirra-ijod sohibi”, J.Yusupovning “Ogahiyning siyosiy qarashlari” kabi maqolalarida ham biz so‘z yuritayotgan mavzu bilan aloqador anchagina masalalar joy olgan⁵⁰.

“Ogahiy olami”ning 4-kitobida O.Abdullayevning “Ogahiyning tarixiy qarashlari”, B.Saparbayevning “Muhammad Rahimxon I ning To‘ramurod so‘figa qarshi yurishi” kabi maqolalari bilan birga “Firdavs ul-iqbol” asarining filologik tahliliga bag‘ishlangan yana to‘rtta ilmiy axborot e‘lon qilingan⁵¹.

Mazkur majmuaning 5-kitobida ham Ogahiyning tarixiy asarlari xususida anchagina maqolalarga o‘rin ajratilgan. Jumladan A.Ahmedovning “Ogahiyshunoslik ufqlari” maqolasida buyuk shoir va tarixnavis ijodining turli qirralari bo‘yicha e‘lon qilingan ishlarga tavsif beriladi. O‘z navbatida Ogahiy

⁴⁸ Огахий олами. 1-китоб.- Урганч, “Университет”; 2004. –42-44-б.

⁴⁹ Огахий олами. 2-китоб.-Урганч, “Университет”, 2005. –3-5, 8-10, 74-77-б.

⁵⁰ Огахий олами, 3-китоб.-Урганч, “Университет”, 2008. –3-5, 12-16, 21-22,16-17-б.

⁵¹ Огахий олами, 4-китоб. -Урганч, “Хоразм”, 2013. –11-13, 26-28-б.

merosini, xususan tarixiy asarlarini tadqiq qilish borasida qator takliflar taqdim qilinadi.

Ushbu majmuadan joy olgan “Firdavs ul-iqbol”da Muhammad Rahimxon I ning fazilatlarini tasviri”, “Firdavs ul-iqbol”da Muhammad Rahimxon I ning Buxoro amiri bilan sulh tuzilishi voqealarining berilishi” nomlari ostida e’lon qilingan B.Saparbayevning maqolalarida tarixiy solnomaning XIX-asr boshlaridagi hayotni tasvirlashdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, majmuadan “Firdavs ul-iqbol” asarining filologik tahliliga bag’ishlangan yana uchta maqola joy olgan.⁵²

“Firdavs ul-iqbol” asarini tarixiy va filologik yo’nalishda o’rganish hozirgi davrda yuksak bosqichga ko’tarildi. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakatimizning mustaqillikka erishib, qadimgi qadriyatlarimizning o’zimizga qaytganligidir. Chunki sho’ro davrida “Firdavs ul-iqbol” asarini talantli tarixshunos Q. Munirov 1960-yildan boshlab tadqiq qila boshlagan edi. Ammo bu asar 2010-yilga kelib kitobxonlarga taqdim qilindi.

“Firdavs ul-iqbol”ning nashr qilinishi uni turli yo’nalishlar bo’yicha tadqiq qilishga keng yo’l ochdi. Bu keng qamrovli asar tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, folklorshunoslik va boshqa qator fanlarga boy material bera oladi.

“Ogahiy olami” majmuasida e’lon qilinayotgan materiallar bu fikrimizni to’la tasdiqlay oladi.

Shunday qilib, bir vaqtlar G’arb sharqshunoslari tomonidan tilga olingan “Firdavs ul-iqbol” asari XX-asrning o’rtalaridan o’zbek olimlari nigohiga tushdi va sho’ro davrida bu tarixiy solnomani chop etishga ruxsat berilmadi.

Nihoyat istiqlol sharofati bilan asar ommaviy tarzda chop etildi. Bu esa uning tadqiqotchilari doirasini kengaytirishga imkon yaratdi. Hozirning o’zida Urganch Davlat universitetida ushbu asar bo’yicha doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv-malakaviy ishlar, kurs ishlari tayyorlanmoqda. Ko’plab maqolalar chop etilmoqda, monografiyalar tayyorlanmoqda.

⁵² Огаҳий олами, 5-китоб. -Урганч, “Хоразм”, 2014. –5-16, 33-35, 38-40-б.

Ushbu bobda tahlil etilgan masalalar yuzasidan quyidagi qisqacha xulosalarga kelish mumkin:

1.“Firdavs ul-iqbol” asarida yoritilgan Muhammad Rahimxon I faoliyati haqidagi dastlabki tadqiqotlar XIX-asrning I choragidan boshlanadi. Xiva xonligining bu davri 1819-yilda Xivaga kelgan N.Muravyov asarida birinchi marotaba o‘z ifodasini topdi. Rus sayohatchisi (to‘g‘rirog‘i ayg‘oqchisi) o‘z kitobida xonning jismoniy qiyofasidan tortib xulq-atvori va barcha faoliyati haqida yetarli ma’lumotlarni beradi. Uning yozishmalari shovinistik xarakterda bo‘lsa ham o‘sha davrdagi xonlikda hukm surgan siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida muhim ma’lumotlarni bera oladi.

2.N.Muravyovdan keyingi chet el tadqiqotchilaridan yana biri vengriyalik H. Vamberidir. U Saidmuhammadxon davrida Xivaga kelib, xon bilan uchrashadi va Ogahiy bilan muloqatga kirishganini o‘z asarida qayd qilib o‘tadi. Bu tadqiqotchi ham aslida ayg‘oqchilik kayfiyatida bo‘lsa ham, o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot haqida biz uchun zarur ma’lumotlarni beradi. Eng asosiysi u Ogahiyning qiyofasini ilk bora G‘arbiy Yevropaga tanitgan tadqiqotchidir. Bu kishining fikrlarida ham mensimaslik kayfiyatlari sezilib turadi. Biz uchun qimmatlisi o‘sha davrdagi xalq etnografiyasining tadqiqotchi asarlarida yoritib berilishidir.

3.“Firdavs ul-iqbol” asari xususida ilk bora xabar bergan yana bir olim A.L.Kundir. U Xiva xoni kutubxonasini musodara qilishda shaxsan qatnashgan va ko‘plab qo‘lyozma, toshbosma kitoblarni Rossiyaga olib ketgan. Kitoblarni Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyiga topshiradi. Bu kitoblar orasida Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari ham bor edi. A.L.Kun bu kitob haqida maxsus axborotnoma yozib qoldirgan va kitobning Xiva xonligi tarixini tadqiq qilishda asosiy manba sifatida ta’kidlagan. A.L.Kunning kitoblarni xon kutubxonasidan olib ketishi bosqinchilikning bir ko‘rinishi bo‘lsa-da, kitoblarning qayerda bo‘lsa ham, saqlanib qolishi fan uchun katta yutuqdir.

4.A.L.Kun tadqiqotlarining faol davomchisi V.V.Bartolddir.

V.V.Bartold Xiva tarixnavislarining mehnatiga yuksak baho berdi va “Firdavs ul-iqbol” tarixiy solnomasiga qiziqib, uning yig‘ma matnini ham tayyorladi. Ammo bu kitobni nashr qildirish unga nasib etmadi.

Umuman, O‘rta Osiyo tarixini keng ko‘lamda tadqiq etgan olim ham V.V.Bartolddir. H.Vamberidan keyin Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarini Yevropaga targ‘ib qilishda V.V.Bartoldning xizmatlari katta.

5.V.V.Bartolddan keyin ko‘pgina rus olimlari bu xayrli ishni davom qildirishdi. P.P.Ivanov bu tarixiy solnomalardan ayrim parchalarni tarjima qilib «Материалы по истории туркмен и туркмении» kitobida e‘lon qildi.

Shuningdek, N.I.Veselovskiy, V.I.Vaynberg, E.Jelyabujskiy va boshqa qator tadqiqotchilar yuqorida nomi tilga olingan olimlarning ishlarini davom ettirdilar. Bularning orasida “Firdavs ul-iqbol” asarini birinchi bo‘lib, yig‘ma nashrini e‘lon qilgan Yu.Bregelning xizmatlarini esa alohida ta‘kidlash zarur.

6.Chet el olimlari ishlarini ular hayot paytidayoq Ya.G‘ulomov, Q.Munirov, R.Majidiy, V.Abdullayev, S.Dolimov, G‘.Karimovlar izchil ravishda yo‘lga qo‘yishdi. Ayniqsa Q.Munirovning bu boradagi ishlari e‘tiborga sazovordir. Vatan mustaqilligiga erishganimizdan so‘ng bu sohadagi ishlar yangi pog‘onaga ko‘tarildi.

2010-yilda N.Jumaxo‘ja, S.R.Ro‘zimboyev va A.Ahmedovlar “Firdavs ul-iqbol” tarixiy solnomasini so‘zboshi va so‘ngso‘zlar bilan birinchi marotaba nashr qildirishdi. O‘sha yili ushbu asarning Sh.Vohidov, I.Bekchonov va N.Polvonovlar tomonidan nashrga tayyorlangan varianti ham bosmadan chiqdi.

So‘nggi yillarda xorazmlik olimlardan M.Safarboyev, G.Xolliyeva, M.Matniyozov, O.Sotliqov, O.Abdullayev, A.O‘rozboyev, I.Ismoilov va boshqalarning Munis va Ogahiy qalamiga mansub asarlar bo‘yicha ko‘plab monografiyalari va maqolalari bosilib chiqdi.

Ayniqsa, universitetning filologiya tadqiqotlar markazi tashabbusi bilan muntazam chop etilayotgan “Ogahiy olami” majmuasi bu borada xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Mazkur tarixiy asarlar bo‘yicha ko‘plab bitiruv-malakaviy ishlar va magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanmoqda.

II BOB

MUHAMMAD RAHIMXON I NING DAVLAT TEPASIGA KELISHI VA ISLOHATLARI.

2.1. Xiva xonligidagi tarixiy sharoit.

Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari eng qadimgi davrlardan boshlab XIX-asrning I-choragigacha bo‘lgan o‘zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlari tarixini yoritishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Kitob muqaddimadan tashqari, beshta bob, besh qism, ikki faslga bo‘lingan. Asarning oxirgi qismi Muhammad Rahimxon I hukmronligi davriga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 20 yillik faoliyatining har yiliga oid voqealar alohida bayon etilgan. Asarning eng qadimgi davrlardan boshlab to 1813-yilgacha bo‘lgan qismi Munis tomonidan, 1813-1825-yillar orasidagi voqealar Ogahiy tomonidan yozilgan. Tarixnavislar Xorazm tarixini yozishda nasriy bayon bilan she‘riy tasvirni omuxtalashtirgan holda ish yuritganlar. Shu sababli asar tarkibidan ko‘plab she‘riy misralar o‘rin egallagan.

Uning Munis qalamiga mansub qismidan 219 masnaviy, 151 nazm, 113 qit‘a, 69 she‘r, 31 ruboiy, 110 bayt, 20 fard, 1 tarkibband, 1 abyot, 1 manzuma, 25 ta‘rix o‘rin olgan bo‘lib, ular jami 4936 misrani tashkil etadi¹.

Shuningdek, asarning Ogahiy qalamiga mansub qismida 58 masnaviy, 10 nazm, 7 bayt, 6 qit‘a, 2 fard, 1 ruboiy, 1 ta‘rix va 1 munojot bor. Ularning hammasi 1082 misradan iborat.

Har ikkala shoirga tegishli she‘riy misralar jami 6018 misrani tashkil etadi².

Binobarin, “Firdavs ul-iqbol” asari tarixiy asar bo‘libgina qolmasdan ayni paytda adabiy manba sifatida ham qimmatlidir.

“Firdavs ul-iqbol” asarini Munis Eltuzarxon taklifi bilan yozishga kirishadi. Eltuzarxon vafotidan keyin uning o‘rniga taxtga o‘tirgan Muhammad Rahimxon I ham kitobni davom ettirishga farmon beradi.

¹ Рўзимбоев С., Аҳмедов А. “Фирдавс ул-иқбол” даги адабий жанрлар ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, №6. – 20-б.

² Ўша мақола, 24-б.

Munis Muhammad Rahimxon I hukmronligining sakkizinchi yiligacha bo‘lgan voqealarni yozib ulguradi va 1829-yilda vabo kasalidan vafot etadi. Kitobning o‘sha joyidan boshlab yozishni Ogahiy davom ettiradi.

Aslida Eltuzarxon vafotidan keyin Xiva xonligi taxtiga Abulg‘ozixon V o‘tiradi. Muhammad Rahimxon esa uning nomidan ish yuritadi. Besh oylardan keyin o‘zi taxtga chiqadi³.

Muhammad Rahimxon I xonlik taxtiga chiqqan davrda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayoti nihoyatda murakkab edi.

Buning asosiy sabablaridan biri uzluksiz xon almashishi, soxta xonlarning taxtga chiqarilishi, ularning nomidan boshqa kishilarning mamlakatni idora qilishi edi.

Muhammad Rahimxonning I taxtga o‘tirishigacha bo‘lgan 50 yillik xonlar faoliyati tarixiga razm solinsa, yarim asr ichida 22 xonning taxtga kelib-ketishi kuzatiladi. Ularning orasida Qoraboyxon 4 oy, Abulg‘ozixon III 6 oy, Bo‘lakayxon 1 oy, Abdullaxon 5 oy, Abulg‘ozixon V 5 oy hukmronlik qilgan⁴. Boshqalari ham 1 yildan 7 yilgacha taxtda o‘tirishgan. Mana shu taxt almashishlar siyosiy ahvolning nihoyatda beqarorligini ko‘rsatadi. Bu beqarorlik esa iqtisodiy rivojlanishning o‘z-o‘zidan tuban ketishiga olib keladi.

Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini siyosiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘liga solish uchun katta ishlarni amalga oshirishga kirishadi.

U dastlab mamlakatdagi turli millat xalqlarini birlashtirish zarur ekanligini anglaydi. Uning farmoni bilan Oliy kengash tuziladi. Unga Muhammad Yusuf mehtar, Muhammadiyor qushbegi, xonning akasi Qutlug‘ Murod inoq, shuningdek, Xo‘jash mahram va qozi ham taklif etilgan⁵.

Kengashda davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, xonlikda muntazam armiya tashkil etiladi va yer islohati o‘tkaziladi.

“Firdavs ul-iqbol” asarida Munisning yozishicha Muhammad Rahimxon I ning ta’rifi quyidagicha:

³ Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. –Урганч. «Хоразм», 2008. – 141-б.

⁴ Ўша манба, 100-бет.

⁵ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 г. –М.: 1822. – стр.159.

Adolatda No‘shiravondin ziyod,
Sahovatda yo‘q kimsa andin ziyod.
Karam burjida axtaredur ziyod,
Shiyam durjida gavhari bebaho.
Jahon ahli ustida zilli karim,
Shahanshohi olam Muhammad Rahim⁶.

Muhammad Rahimxon I taxtga o‘tirishi bilan Beshqal’a o‘zbeklari yov bo‘lib Xivaga yurish qiladilar. Shiddatli kurashdan keyin ularning hujumi qaytariladi. Xon mamlakatni o‘z qo‘liga olishi bilan Eltuzarxon yurishida asir tushgan akasi Qutlug‘murod inoq va boshqa bir qancha asirlarni Buxoro amiridan so‘rab elga qaytarib olib kelish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Shu maqsadda Shohniyoz otaliq boshliq vakillar guruhini Buxoroga yuboradi. Buxoro amiri bu iltimosni ijobiy hal qiladi.

Muhammad Rahimxon I akasi Qutlug‘murod inoq Xivaga yetib kelgach, unga inoqlik mansabini beradi va butun faoliyatida unga tayanib ish ko‘radi.

Munis Muhammad Rahimxon I faoliyatining birinchi yilini ushbu voqealar bilan boshlaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I davri nihoyatda murakkab edi. Tashqi siyosat sohasida xonlik Buxoro amirligi, Eron hukmdorlari, qozoq xonliklari va boshqa qator mamlakatlari bilan kelisha olmas edi.

Shu bilan birga ichki nizolar, o‘zaro kelishmovchiliklar ham xonlikka xavf solib turar edi.

Muhammad Rahimxon I faoliyatining dastlabki davridayoq xonning o‘z avlodlaridan bo‘lgan Muhammadrizobek boshliq muxolif guruh isyon ko‘taradi. Dastlab xon ular oldiga vakil yuborib insofga chaqiradi. Ular ko‘nmagach, Qutlug‘murod inoq rahbarligida qo‘shin yuborib, ularni tor-mor keltiradi.

Muhammad Rahimxon I ning xonlik taxtiga o‘tirganining birinchi yili asosan Shimoliy Xorazmdagi isyonkor guruhlarini bostirish bilan bog‘liq kurashlar

⁶ Фирдавс ул-иқбол, Т.: «Ўқитувчи», 2010. 168-бет.

asosida kechadi. Bu kurashlar uning faoliyatining ikkinchi yilida ham davom etadi. Mana shu voqealarning o'ziyoq xonlikda ichki ahvolning nihoyatda ziddiyatli ekanligini ko'rsatadi.

1807-yil xonlik uchun yanada murakkablik kasb etdi. Mazkur yilda Buxorodan To'ra Xo'ja va Niyozbek dodxoh boshliq qo'shin kelib, Amudaryoni kechib o'tadi. Bu voqeadan keyin yaqindagina mag'lubiyatga uchragan Muhammadrizobek, Qo'ng'irotdan To'ramurod so'fi va ularning tarafdorlari bosh ko'tarib, Xiva tomonga qo'shin tortadilar. Muhammadrizobekning akasi Muhammadniyozbek Xiva yaqinidagi Gurlanbog' qishlog'iga kelib o'rtnashadi. Muhammadrizobek ham o'sha qishloqqa yaqin Varagzanga yetib keladi. Biroq, Muhammad Nazarbek boshliq lashkarlar ularning ustiga kelib, yo'lini to'sadi. Ikki aka-uka lashkarlarini olib, orqaga qaytishga majbur bo'lishadi⁷. Bu voqeadan keyin Buxorodan kelgan lashkar ham iziga qaytadi.

Qutlug'murod inoq boshliq xon lashkarlari Gurlan muzofotida isyonchilarga qarshi kurash olib borib, To'ramurod so'fi lashkarlarining ham iziga qaytarishga muvaffaq bo'lishadi.

Muhammad Rahimxon I ushbu ichki va tashqi beqarorlikka barham berish uchun barcha usullarni ishga soladi. Dastlab u xonlik ichidagi turli guruhbozlik, ikkiyuzlamachilik, xiyonatkorlik kabi illatlarni tugatishda qattiqqo'llik siyosatini mahkam tutdi. Haqiqatan ham xonlikda yuqorida qayd qilingan illatlar avjga mingan edi. Buni Muhammadrizobek tutgan siyosat misolida ko'rish mumkin. U o'z guruhi bilan birgalikda yengilgandan keyin yarashish siyosatini o'rta qo'yadi. Xon bu taklifni qabul qilib, ularning gunohidan kechadi. Muxolifning iltimosiga ko'ra, Muhammad Murodbekni, Fozilbekni va Niyozmuhammadbekni hibsdan chiqarib, uning huzuriga yuboradi. Ammo ular yana qabih ishlarni amalga oshirish rejalarini tuzishadi. Natijada xon ularning barchasini turli yo'llar bilan qo'lga tushirib, zindonga soladi va ayrimlarini qatl qildiradi⁸. Ularga mansub o'ttiz chog'lig' yigit ham bo'ysunmaslik siyosati asosida yo'q qilinadi.

⁷ Фирдавс ул-икбол, 173-бет.

⁸ Фирдавс ул-икбол, 174-бет.

Munis bu voqealarni bayon qilar ekan, o'z fikrini she'rda shunday ifodalaydi:

Kishi gar yaxshi bo'lsin va yomon, bot,

Ko'rar ul fe'lig'a loyiq mukofot.

Bas, ey dil, yaxshilikni ayla pesha,

Yamonlig'din uzr qilg'il hamesha!⁹

Muhammad Rahimxon I taxtga o'tirgan davrda Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi orasida jiddiy ixtiloflar avjga chiqqan edi. Bu ixtiloflar Eltuzarxon davrida juda kuchayib, haligacha ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni izga solishga yo'l bermay kelayotgan edi. Buxoro hukmdori Amir Haydar turli yo'llar bilan Xiva xonligidagi turli millat va qabilalarga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilar edi. Shunday harakatlardan biri Qutlug'murod inoqning qoraqalpoqlarning xitoy jamosiga chapovul qilishiga olib keladi.

Yangidaryo qirg'oq bo'yida makon tutgan xitoy jamoasi Xiva xonligiga bo'ysunmaslik siyosatini tutib Amir Haydar bilan aloqa o'rnatadi.

Natijada Qutlug'murod inoq lashkarlari bu yerga kelib, soliq undirish bahonasi bilan ko'plab kishilarning talanishi va o'ldirilishiga sababchi bo'ladilar¹⁰.

Ushbu qonli voqealardan keyin mamlakat sal tinchiganday vaziyat yuzaga keladi. Nihoyat xon dam olish orzusida shikor-ovga chiqish taraddudiga tushadi.

Xon dastlab Urganchga tushib, u yerda Sayyidquliboy va Avazmuhammadboylar xonadoniga tashrif buyuradi. Katta ziyofat uyushtiriladi. Xonga sarupo kiygizib ot hadya qilishadi¹¹. Yo'l usti Niyoz Oxunbobo qabrini ziyorat qilib nazr-niyoz beradi va Amu sohiliga chiqadi. Bu yerda bir kecha bo'lib, ertalab Ko'hna Kotga Amuni kechib o'tib, Shayx Abbosvaliy qabrini ziyorat qiladi. Keyin Oqqum orqali Baday ko'liga chiqadi va Xo'jayli tomonga yo'l oladi. Shu atrofda ovda bo'ladi hamda Xo'jayli, Qipchoq, Gurlan, Qangli, Xizreli hokimlari xonni yaxshi kutib olishadi, shohona ziyofatlar uyushtiriladi va sarupolar

⁹ Фирдавс ул-икбол, 175-бет.

¹⁰ Фирдавс ул-икбол, 175-бет.

¹¹ Фирдавс ул-икбол, 177-бет.

in'om qilinadi¹². Shu voqealar bilan xonning ikkinchi yilgi faoliyati yakuniga yetadi.

Xiva xonining uchinchi yilgi hayoti ham oson kechmadi. Mamlakat ichkarisida hamon keskinlik saqlanib qolmoqda edi. Bu muammo xonlik hududidagi turkmanlarning yo'vmut, chovdir urug'lariga mansub aholining beboshligi, shimoliy Xorazmdagi Qo'ng'iro't muzofotida o'rnashgan To'ramurod so'fining ayirmachilik siyosati bilan aloqador edi. 1808-yilda bu muammo yanada keskinlashdi.

Muhammad Rahimxon I xonlik faoliyatining uchinchi yilida turkman va qoraqalpoq urug'larining ayrimlarini kuch bilan bo'ysundirish ishlarini boshladi. Dastlab xon turkmanlarning chovdir toifasini bo'ysundirish uchun harakat boshladi.

Turkmanlarning yo'vmut va chovdir urug'larining xonlikka qarshi siyosati asosan To'ramurod so'fi faoliyati bilan bog'liq edi.

Xon lashkarlari ushbu ayirmachilik siyosatiga barham berish uchun o'tlanib, Oqqum mavzeiga keladi. U yerdan Qipchoq va Xo'jayliga o'tadi. Ushbu hududda shiddatli jangu-jadal boshlanib, chovdirlar shafqatsizlarcha jazolanadi, ekin-tikinlar payhon qilinadi¹³.

Muhammad Rahimxon I sal o'tmay yana chovdirlar ustiga lashkar tortdi. Uning ikkinchi bor yurishiga qator sabablar majbur qildi. Birinchidan, Orol qoraqalpoqlari To'ramurod so'fi zulmidan ozor chekib, himoya tilab xonga arznoma yo'llagan edilar. Ikkinchidan, Itil(Volga) bo'yida bino qilingan savdoxonadan kelayotgan karvonni Ko'hna Vazirga yetganda chovdir toifasiga mansub kishilar talash uchun hujum uyushtirdilar. Mollarni talon-toroj qildilar. Natijada bunday qaroqchilarni tugatish kun tartibiga qo'yiladi va xon qo'shin to'plab bu hududga yurish qiladi.

Bu yurishni shoir shunday ta'riflaydi:

Oningdek cherik jam bo'lib beadam,

¹² Фирдавс ул-икбол, 182-бет.

¹³ Фирдавс ул-икбол, 184-бет.

Ki, topmas hisobig'a aql ahli had.
Adadda teng o'lmay falak anjumi,
Falak anjumi yo'q biyobon qumi.
Bori erdi devafkanu saf shikan,
Masof ichra Rustam kibi tahmtan¹⁴.

Xonning katta sonli qo'shin bilan kelganligini eshitgan chovdir bosqinchilari To'ramurod so'fidan boshpana so'rab, Qo'ng'irot qal'asiga kirib o'rnashadilar, xon lashkarlarining bir qismi xonga sodiq bir guruh yo'vmit yigitlari bilan dastlab karvonni qutqarib, Xivaga o'tkazib yuboradilar.

Bu hududda xonga sodiq bo'lgan qoraqalpoqlarning Qipchoq, Mang'it, Xo'jaylidagi mahalliy navkarlari xonga peshkash chiqib, qo'shinga birikadilar.

Shu orada qurbon hayiti arafasi bo'lib, xon ushbu marosimni lashkargohda nishonlaydi, katta bazm uyushtiradi¹⁵.

Bu marosim o'tgach, xon qo'shini asosiy maqsadni amalga oshirishga kirishadilar. Bu yerda makon tutgan Hasanboy eli To'ramurod so'fidan panoh tilab ko'chgan edi. Ammo Hasanboy xon oldiga qaytib, omonlik tilagach, xon uni afv qiladi va ularni ko'chirib keltirib, qo'shinni Qo'ng'irot qal'asiga tomon harakatga kirgizadi.

Xon lashkarlari orasida turkman va qoraqalpoq xalqlariga mansub bahodir yigitlar ham ko'p edi. Qo'ng'irot shahrini zabt qilish uchun yo'vmit toifasidan Quvonj so'fi, Otamuhammad o'nbegi, Berdibek, Muhammadniyoz Ko'rcha, Qoqo sardorlar, qoraqalpolardan: Oydo'stbiy, Qodirberganbiy, Qo'shberganbiy va Shag'olbiylar boshliq ko'pgina lashkar bor edi¹⁶.

Ushbu katta qo'shin To'ramurod so'fi lashkarlari bilan shiddatli jangga kirishadilar va raqiblarni Qo'ng'irot qal'asiga qochib kiritishga erishadilar. Shu paytda xon qo'shinni qal'aga bostirib kirmaslikka buyruq beradi¹⁷.

Shu voqealar jarayonida ko'pgina qoraqalpoq urug'lari xonga itoat qilishga rozilik berib, afv so'rashadi. Xon esa ularning iltimosini qondiradi. Bu

¹⁴ Фирдавс ул-икбол, 186-бет.

¹⁵ Фирдавс ул-икбол, 188-бет.

¹⁶ Фирдавс ул-икбол, 191-бет.

¹⁷ Фирдавс ул-икбол, 193-бет.

urugʻlarning aksariyati boshqa hududga koʻchiriladi. Albatta koʻplab kishilar qatl qilinadi, aholi talanadi. Xon shundan keyin Koʻhna Urganchga oʻtib shayx Najmiddin Kubro qabrini ziyorat qiladi va Xivaga qaytadi¹⁸.

1809-yilda Muhammad Rahimxon I yana Toʻramurod soʻfi bilan bogʻliq muammolarni hal qilish bilan band boʻladi.

Munis oʻz bayonida Toʻramurod soʻfining kelib chiqishi, ajdodi bilan aloqador barcha maʼlumotlarni keltirib oʻtadi. Uning yozishicha, Muhammad Nazarbiy ibn Qulmurod inoq ibn Bekmurodning Saidnazarbiy ismli bir inisi, Xoʻjamurod, Toʻramurod, Shohmurodbek ismli oʻgʻillari boʻlib Muhammad Amin inoq Saidnazarbiyni Orol diyoriga hokim qilib tayinlaydi. Xoʻjamurod va Toʻramurodlar goh Xivada, goh Orolida boʻlib, zamonasozlik bilan yashab kelishadi¹⁹.

Bundan keyin koʻp voqealar boʻlib oʻtadi. Avazbiy inoq davriga kelib Orol hududida ziddiyat kuchayadi. Xoʻjamurod inisi Toʻramurod bilan muxolifat bayrogʻini koʻtarib, ayirmachilik siyosatini tutishadi. Eltuzarxon davrida bu ogʻa-inilar zarurat yuzasidan kelishuvga yuz burishadi. Biroq, Eltuzarxon Toʻramurod soʻfini mamlakatdan chiqarib yuboradi. U Buxoroda hayot kechiradi.

Muhammad Rahimxon I davrida u qaytib kelib, Qoʻngʻirotda makon tutib, ayirmachilik siyosatini davom ettiradi.

1809-yilda Muhammad Rahimxon I Xoʻjamurodbiyni besh oʻgʻli bilan qatl qildiradi²⁰. Bundan oldin u xonga xoinlik qilib, ikkiyuzlamachilik qilgan, ammo xon uni afv etgan edi. U Xivada oʻz mansabiga tiklansa ham, Toʻramurod soʻfi foydasiga josuslik qiladi. Bu xiyonat oshkor boʻlgandan keyin yuqorida qayd etilgan qatl amalga oshirilgan edi.

Akasining va jiyanlarining qatl qilinganini eshitgan Toʻramurod soʻfi Buxoro amiriga tayangan holda avvalgidan ziyodaroq tarzda fasod ishlarni boshlab yuboradi²¹.

¹⁸ Фирдавс ул-икбол, 194-бет.

¹⁹ Фирдавс ул-икбол, 107-бет.

²⁰ Фирдавс ул-икбол, 195-бет.

²¹ Фирдавс ул-икбол, 196-бет.

Natijada xon Orol yurishini boshlashga majbur bo'ladi²². Orolga safar davomida ko'plab xo'jalik ishlariga ham e'tibor qaratadi. Panoh so'fi degan kishini To'ramurod so'figa elchi qilib yuboradi. Ammo To'ramurod so'fi elchini o'n besh kun ushlab qaytarib yuboradi va muayyan kelishuvga erishilmaydi. To'ramurod so'fi zulmidan qochib ko'plab fuqarolar xon huzuriga kelishadi. Uning Ne'matgarang degan josusini ham ushlab xonga topshiradilar. Xon uni dorga ostiradi²³. O'sha jarayonda To'ramurod so'figa sherik bo'lgan qaroqchilarga zarba berilib, Astraxan va Mang'ishloqdan Xivaga kelayotgan karvonlarning bexatarligini ta'minlashadi. Ko'pgina chopovullar uyushtiriladi. Ammo xon bu safar Shumanay arig'ining qirg'og'ida bir qal'a qurdirib u erda Qutlug'murod inoqni qo'yib o'zi Xivaga qaytadi²⁴.

Shu narsani alohida qayd qilish kerakki, To'ramurod so'fi bilan bog'liq bo'lgan Qo'ng'irotdan muammosi xonlik uchun jiddiy masalalardan biriga aylandi. Mazkur hududda qolgan Qutlug'murod inoq ko'proq xo'jalik ishlari bilan band bo'lib, daryo toshqinini jilovlash muammosi bilan shug'ullandi. Shu orada To'ramurod so'fi Qo'ng'irotdan tashqarida bo'lgan qoraqalpoq ovullariga chopovul uyushtirib, ko'plab kishilarni asir oldi, mol-mulkini taladi²⁵.

Bunday xunrezliklar tobora avjiga chiqdi. To'ramurod so'fi Eshmuhammadbek va Nazarbiyni o'zbek va chovdirlar orasidan olingan navkarlar bilan yana urushga jalb qildi. Ammo Niyozmuhammadboy va Muhammadqulibek kabi lashkarboshilar bu hujumni daf etadilar. Bu xizmatlari uchun xon ularni mukofotlaydi²⁶.

Muhammad Rahimxon I ning har yili ikki-uch marta ovga chiqish odati bor edi. Xonlik faoliyatining to'rtinchi yilida ham ov-ishkor qilish uchun yo'lga chiqadi. Xonqa orqali Amudaryodan o'tib Xo'jayli hududiga yetib keladi. Hali ov tadbirini boshlamasdan, xonga turli tashvishli xabarlar kelib yetadi. Jumladan, Qo'ng'irotdan Buxoroga savdo karvoni yo'lga chiqqani va Bekpo'lat otaliqning

²² Фирдавс ул-икбол, 197-бет.

²³ Фирдавс ул-икбол, 198-бет.

²⁴ Фирдавс ул-икбол, 199-бет.

²⁵ Фирдавс ул-икбол, 200-бет.

²⁶ Фирдавс ул-икбол, 201-бет.

o'g'illarining Buxorodan Qo'ng'irotda kelayotganlari haqida xonni ogoh qilishadi. Natijada xon Muhammadniyozbekni ikki yuz kishi bilan Erdor yo'liga yuboradi. Biroq ular hech kimni topa olmaydilar. Shundan keyin Soloq yuzboshi va Odamsardorni Qo'ng'irotda chopovuliga yuboradi²⁷.

Muhammad Rahimxon I va To'ramurod so'fi orasidagi o'zaro ziddiyat oddiy xalqning xonavayron bo'lishiga olib keldi.

Doimo ikki mamlakat orasida bo'ladigan chopovul-xalqni talash va asir olish endilikda bir mamlakat ichida yuz bermoqda edi.

Xon faoliyatining to'rtinchi yili ham asosan shu ziddiyat doirasida o'tdi. Yilning oxirida Muhammadjonbek rahbarligida uyushtirilgan chopovul Qo'ng'irotda xalqi boshiga katta kulfatlar keltirdi. Muhammad Rahimxon I hukmronligining beshinchi yili yilqi yiliga to'g'ri keldi. Navro'z marosimidan keyin xon yana Qo'ng'irotda muammosini yechishga kirishdi. Navro'zdan sakkiz kun o'tgach, yo'vmit sardorlaridan ikki sarkardani Qo'ng'irotda chopovuliga jo'natdi²⁸.

O'zi esa suv masalasi bilan Hazoraspgga jo'nab ketdi. Xonlikning shimoliy qismida eskicha hayot davom etmoqda edi. To'ramurod so'fining ayirmachilik siyosati qoraqalpoq xalqining osoyishta hayotini buzib, birodarkushlikka olib kelayotgan edi. Oymirzabiyning Oydo'stbiyning qo'llashi bilan qoraqalpoqlardan tashkil topgan to'rt yuz kishidan iborat lashkar bilan Qo'ng'irotda muzofotida o'tirgan qoraqalpoqlar ustiga yurishi, ularni talashi, ko'plab kishilarni asir olishi bunga misol bo'la oladi²⁹. Bu paytda To'ramurod so'fi yetti yuzming lashkarga bosh bo'lib, Oqyoqish qal'asini bo'ysundirishga kelgan edi. Bu qo'shin kelmasdan oldin Oydo'stbiy qal'adan uch yuz kishini pistirmada qo'ygan edi. Bu kishilar To'ramurod so'fining istehkomiga hujum qilib, yuz kishini asir olib, tilka-pora qilib tashlashadi. Natijada To'ramurod so'fi iziga qaytishga majbur bo'ladi³⁰. Bu voqealar oddiy fuqaro uchun hadsiz fojea, millat uchun cheksiz baxtsizlik edi. Rus

²⁷ Фирдавс ул-икбол, 202-бет.

²⁸ Фирдавс ул-икбол, 202-бет.

²⁹ Фирдавс ул-икбол, 204-бет.

³⁰ Фирдавс ул-икбол, 204-бет.

zobiti N.Muravyov bu hodisalarga sababchi qilib, Muhammad Rahimxonni ko'rsatadi. Uni millatlarni bir-biriga gij-gijlashda asosiy aybdor deb hisoblaydi³¹.

Aslida bunday emas edi. Ma'lumki, o'sha davrlarda urug'chilik qoldiqlari juda kuchli edi. Turkmanlarning yo'vmit, chovdir, taka, go'klan, jamshid, emreli va boshqa ko'plab urug'lari bir-biri bilan kelisha olmas, shu sababli o'zaro urushlar, qon to'kishlar tez-tez bo'lib turar edi. Bu holat qoraqalpoq urug'lari o'rtasida ham mavjud edi. O'z navbatida turkmanlar bilan o'zbeklar, turkmanlar bilan qoraqalpoqlar orasida ham turli ziddiyatlar tez-tez paydo bo'lib turar edi.

Muhammad Rahimxon I esa o'sha ziddiyatlarni bartaraf qilib, yagona davlatchilik siyosatini vujudga keltirish uchun kurash olib bormoqda edi. Uning taxtga o'tirishi bilan Oliy kengash tuzishi ham o'sha siyosat bilan bog'liq edi.

1810-yilga kelib, urug'lar va millatlar o'rtasidagi nizo To'ramurod so'fining ayirmachilik siyosati bilan yanada kuchaydi. Uni qo'llab-quvvatlovchi urug' va qabilalarni xon navkarlari jazolasa, To'ramurod so'fi xonga sadoqatli urug' va qabilalarni shafqatsiz jazoga tortar edi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat ichidagi bu xunrezlikni tugatish uchun keskin choralar ko'ra boshladi.

U o'z faoliyatining beshinchi yilida uchinchi marta Orol muzofotiga yurish boshladi. U Gurlan yaqinidagi Moyli jangaldagi qarorgohiga kelib, Qipchoq orqali daryodan kechib, Beshtepada to'xtaydi. U yerda Murodbek qo'ng'iroq, Tanak bahodir qo'ng'iroq, Do'sim bahodir mang'it va Badal yuzboshilar boshchiligida yetti yuz otliq qo'shinni jamlab, To'ramurod so'fi hujum uyushtirishni mo'ljallagan hududlarga jo'natadi³². Chunki ayrim hududlardan yordam so'rab xonga xabarchilar kelayotgan edi. Ular orasida To'ramurod so'fining salaflaridan bo'lgan Toshim nayman, Muhammadnazar otaliq va Xo'jamurod degan kishilar ham bor edi. Ular orasida To'ramurod so'fining ayg'oqchisi ham borligi ma'lum bo'lib, uni tutib olishadi.

³¹ Муравьев Н. Кўрсатилган асар, 52-53-бетлар.

³² Фирдавс ул-икбол, 205-бет.

Bu paytda To‘ramurod so‘fi xonning qo‘shin bilan Qo‘ng‘irot ustiga kelayotganidan bexabar edi. U o‘sha vaqtda Eshmuhammadbek degan lashkarboshisini ikki yuz ellik askar bilan Hasanboybiy elini talashga yuboradi. Ammo Qo‘shberganbiy va Hasanboybiyning o‘g‘li Qodirbergan qoraqalpoq yigitlari bilan bu hujumni bartaraf etadi. Eshmuhammadbek ayrim sheriklari bilan ko‘lda qamishzorlar ichida yashirinib, uch kundan so‘ng Qo‘ng‘irotga yalangoyoq holda yetib borishadi³³.

Muhammad Rahimxon I bu yurishda Qo‘ng‘irot qal’asini olish uchun ketma-ket to‘rt marta urush qiladi. Urush boshlanishini bilgan To‘ramurod so‘fi qal’adan chiqib, istehkom qurib, qattiq qarshilik ko‘rsatadi. Urush juda shiddatli tus oladi, zambarak va miltiqlardan tinmasdan o‘q otiladi. Shu jarayonda Orol naymanining hokimi xon tomoniga o‘tadi³⁴.

Biroq, so‘fining ham tarafdorlari oz emas edi. Shulardan biri O‘rozali qiyot bo‘lib, u jiddiy qarshilik ko‘rsatib jang qiladi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, uni ushlab boshini tanasidan judo qilishadi va boshini sangar darvozasida osib qo‘yishadi. To‘ramurod so‘fi o‘z safdoshlari bilan qal’aga qamalib qolishadi. Bu voqeadan keyin xon ikki kun tayyorgarlik ko‘rib, yana qal’aga hujum boshlaydi. To‘ramurod so‘fi ham yana qal’adan chiqib, urushga tayyor turdi. Jang shiddatli tus olib, Burgut bahodir To‘ramurod so‘fining qoshiga borib, uni quchoqlab otdan yiqayotgan paytda dushman soqchilari uni qutqarib qolishadi va Burgut bahodir o‘ldiriladi³⁵.

Uch kunlik urushdan keyin xon lashkarlarni savashdan to‘xtatib, damini rostdashga farmon beradi. Shu orada Nukuz qozisi o‘z aqrabolari bilan xonga tobe bo‘lib keladi. Xon ularni Xo‘jayli hududiga jo‘natadi.

Ertasiga xon lashkarlari yangidan urush boshlab yuborishdi. Bu jangda ko‘plab kishilar nobud bo‘ladi. Har ikki tomon katta talofat ko‘radi. Munis bu jang tasvirini she‘r orqali shunday bayon qiladi:

Qilichlar dami to‘kti ul nav’ qon,

³³ Фирдавс ул-икбол, 206-бет.

³⁴ Фирдавс ул-икбол, 207-бет.

³⁵ Фирдавс ул-икбол, 208-бет.

Ki maydonda qon seli bo'ldi ravon.

Sinon no'gi el bag'rin aylab shikof³⁶,

O'luklardin o'ldi ayon Ko'hi qof³⁷.

She'rdagi tasvirdan ayon bo'ladiki, urushda halok bo'lganlarning jasadi tog'dek uyulgan. Mana shu voqea mamlakat ichidagi o'zaro urushlarning oddiy xalq uchun naqadar katta fojea keltirishini yaqqol ko'rsatadi.

Xon qo'shiniga bas kela olmagan To'ramurod so'fi tarafdorlari bilan yana qal'aga kiradi. Qo'ng'irot hududida turli urug'lar o'rtasida boshboshdoqlik yuzaga kelgan edi.

Xon qo'shini bu hududga kelgan paytda Hasanboybiy tasarrufidan mulla Xo'roz qo'ng'irot va Egilikbiy qiyot o'z urug'lari bilan Sho'rko'lda ayirmachilik qilib, bo'ysunmaslik siyosatiga qo'shilgan edilar. Xon ularni bu yo'ldan qaytarish uchun qo'shinning bir qismini o'sha tomonga jo'natadi. Ammo urush avjiga chiqmas burun Mulla Xo'roz va Egilikbiylar qilichlarini bo'yniga osib, taslim bo'lishadi. Xon esa ularni afv qiladi. Keyin ularning barchasini eli bilan birgalikda Xo'jayli hududiga ko'chirib, yaylov bilan ta'minlaydi³⁸.

Bu voqealardan keyin xon qo'shini Qo'ng'irot qal'asini olish uchun to'rtinchi marta urushga kiradi. Urush dahshatli tus oladi. Ko'plab kishilar nobud bo'ladi. To'ramurod so'fi yana qal'aga qochib kiradi. Bu safargi urush qal'a ichkarisiga ham doxil bo'ladi.

Shu jarayonda Shohniyoz otaliq boshliq lashkarboshilar xon huzuriga kirib, urushni to'xtatib, lashkar safini to'ldirish, ot-ulovlarni tartibga solish lozimligini maslahat berishadi. Xon bu taklifga rozi bo'ladi. Natijada qo'shin xon boshchiligida Xivaga qaytadi³⁹. To'ramurod so'fi bu voqealardan keyin ham tinchimadi, balki ig'vogarlik harakatlarini davom ettirdi.

1811-yilda Rus eliga boradigan Xorazm karvonini Karimberdi otaliq va Muhammadrizo qushbegi Arang qiridan o'tkazib qaytishadi.

³⁶ Найзанинг тиғи эл бағрини чок-чок қилди.

³⁷ Фирдавс ул-икбол, 209-бет.

³⁸ Фирдавс ул-икбол, 210-бет.

³⁹ Фирдавс ул-икбол, Ўша саҳифа.

To‘ramurod so‘fi bundan xabar topib, karvonni talash uchun izidan chovdirlardan uch yuz kishini yuboradi. Yana ikki yuz kishini Oydo‘stbiyning elini talash uchun Oqyoqishga jo‘natadi. Bu bilan cheklanmay Eshmuhammadbek rahbarligida Gurlanni talon-toraj qilish uchun yana ikki yuz ellik jangchi yuboradi⁴⁰.

Ular Gurlanga yetib kelib, Xudoynazarbek va O‘rozali inoqning rabotlariga o‘t qo‘yishadi. O‘sha jarayonda O‘rozali inoqni qatl qilishadi.

Bu paytda xon Ostona va Yangiariq hududida ovda edi. Xon Yangiariqda ovda yurgan paytida ham obodonchilik ishlariga e‘tibor qaratdi. U Muhammad Karkiyga Yangiariq-Oq masjid arig‘i yordirishni tayinlaydi. Buni tarixnavis shunday tasvirlaydi:

Turfa nahri arizu fayzatar,
Vaz‘i marg‘ub. O‘ylakim kavsar.
Lek umqi oningdek obodon,
Ki qolur aql qa‘rida hayoron,
Har qirog‘i ki keldi. G‘ayrati bog‘,
Erur elga mahalli ayshu firog‘. (“Firdavs ul-iqbol”, 218-bet.)

Gurlan voqeasi Qutlug‘murod inoqqa yetib keladi. U Xudoyquli karnaychini ushbu xabarni yetkazish uchun xon huzuriga yuboradi. Tanak bahodir degan yigitni Qo‘shko‘prik navkarlariga bosh etib, Gurlan himoyasiga jo‘natadi.

Xon bu xabarni eshitgach, akasi Qutlug‘murod inoqni lashkar bilan Gurlanga jo‘natib, unga yordam berish uchun Karimberdi otaliqni ham o‘sha hududga yuboradi.

Tanak bahodir Kotga yetganda Ashurbek yuzboshi Kot sipohilari bilan unga qo‘shiladi. Gurlandan Kotga qochib kelgan Xudoynazarbek va Cho‘tqaro yuzboshilar ham ularga qo‘shilib, birgalikda Gurlanga yurish qiladilar⁴¹.

⁴⁰ Фирдавс ул-иқбол, 211-бет.

⁴¹ Фирдавс ул-иқбол, 213-бет.

Keyinchalik bularga Shohobod va Chig'atoy lashkarlari ham qo'shiladi. Bu lashkarlarning barchasi Qutlug'murod inoq boshchiligida dushmanga qaqshatqich zarba berishadi. Ularga Gurlan aholisi ham qo'shib, ko'plab dushman askarlari o'ldiriladi va asirga olinadi. Lashkarboshilarning aksariyati o'ldiriladi va asir olinib, qatl qilinadi. Shu tariqa, To'ramurod so'fining Gurlanga yuborgan lashkari tor-mor etiladi. Sayyidqulibek va Eshmuhammadbeklarni asir olib, O'rozali inoqning qasosi uchun qatl qildilar. Xon O'rozali inoqning o'n bir yashar o'g'liga otaliq mansabini berdi⁴².

To'ramurod so'fining karvonni talashga yuborgan uch yuz chovdir qaroqchilari ham maqsadlariga erisha olmaydilar. Karvondagilar atrofni yuk va tuproqdan ko'tarib, himoya devori yasab qattiq qarshilik qilishadi. Qaroqchilar besh kun urushib, o'ttizta sherigidan ajralishadi. Bu orada Eshmuhammadbekning Gurlandagi mag'lubiyati xabari yetib keladi. Bu xabardan keyin chovdir qaroqchilari karvonni tashlab qochib ketishadi⁴³.

Oydo'stbiy elini talash uchun Oqyoqishga kelgan lashkarboshilar qoraqalpoq toifasiga mansub edi. Sarimsoqbiy qo'ldovli, Islamasbiy bolg'ali, Nurtoybiy qo'shtamg'ali kabi lashkarboshilar Oqyoqishga yaqinlashayotgan paytda Oydo'stbiyning ishongan kishilari-Xo'jamberdibek, Qalandar ko'r, Eshmuhammad yuzboshilar Eshmuhammadbekning Gurlanga kirgan xabarini eshitib, xoinlik yo'liga o'tishadi va qal'ani tashlab ketadilar. Buni eshitib xon ushbu qo'rqoqlarni mansabidan olib tashlab, o'rniga Muhammadniyozbek va Hasanmurod qipchoqni tayinladi⁴⁴.

O'sha sababga ko'ra bu qal'aga kelgan dushmanlarni hech kim ta'qib qilmadi. Ular mag'lubiyatni his qilib omon qutildilar. Shunday qilib, so'fining uch tomonga yuborgan uchta lashkari ham mag'lub bo'ladi.

Yuqorida qayd qilganimiz kabi Xiva xonligida ichki ahvol juda murakkab bo'lib, tashqi siyosat ham ancha og'ir edi. Xonlik Eron hukmdorlari bilan ham kelisha olmas edi.

⁴² Фирдавс ул-икбол, 219-бет.

⁴³ Фирдавс ул-икбол, 220-бет.

⁴⁴ Фирдавс ул-икбол, 220-бет.

Turkmanlarning taka toifasiga mansub aholisi Marvni Xiva xonligidan ajratib, bo'ysunishdan bosh tortgan edilar.

Buning ustiga taka toifasiga mansub ko'plab kishilar qaroqchilik bilan shug'ullanar edilar.

To'ramurod so'fi bilan aloqador voqealar endigina bostirilgan paytda takalarning Qora Ahmad jamoasidan bir guruh Hazorasp sarhadidan o'tib, Karvakdagi xo'jalardan birining rabotini bosib, molini talab, bola-chaqasini asir olib, sahar payti qum ichiga kirib ketishdi⁴⁵. Bu payt ramazon oyiga to'g'ri kelar edi.

Bu voqeani hech kim sezmay qoladi. Lekin tong saharda ularni Karvak oyog'idagi ziroatchilardan biri ko'rib, bu haqda Abdulla inoqqa xabar beradi. Inoq yuz ellik otliq bilan Karvakka borib, u yerdagi xo'jalardan saharlik uchun oziq-ovqat undirib, qaroqchilarni ta'qib qilishga kirishadi. Ammo, havo issig'ini bahona etib, yurishni to'xtatadi.

O'sha paytda Qutlug'murod inoq Darg'on ota muzofotida ovda edi. Bu xabar unga yetib borgach, navkarlaridan yetmish kishini ajratib, Qalandar parvonachi, Iskandar xo'ja Bekobodiy va qo'ng'iroq Elomon bahodirlarni qaroqchilarni ta'qib qilishga jo'natadi⁴⁶. Bu guruh uch kecha-kunduz yo'l yurib Sho'rquyi qudug'i hududida qaroqchilarning izini topishadi. Uchta lashkarboshi o'ttiz askarni shu yerda qo'yib, o'zlari qaroqchilar izidan ot surib, ularni tutib o'ldirib, mol-mulk va asirlarni qaytarib olib keladilar. To'qqiz kunda Pintak sarhadiga yetib, Qutlug'murod inoq huzuriga kelishadi. Bunday voqealar xonlikda tez-tez ro'y berib turdi.

⁴⁵ Фирдавс ул-икбол, 221-бет.

⁴⁶ Фирдавс ул-икбол, 222-бет.

2.2. Xiva xonining mamlakat ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini yuksaltirish yo'lidagi hal qiluvchi pallaga o'tishi.

Shunday qilib, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayot tobora keskinlashib bordi. Natijada mamlakat hukmdori hududiy yaxlitlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun jiddiy kurashga shaylandi. Bu davrda xonlikning shimolida guruhbozlik, ayirmachilik ayniqsa kuchaydi. To'ramurod so'fidan tashqari Yangidaryo qoraqalpoqlariga hukmdorlik qiluvchi O'rinboybiy, Eshjonbiy, Hasanbiy, Esangaldibiy, To'qta'palo'ldbiy va Mamanbiylar mamlakat hukmdoriga bo'ysunmasdan Buxoro amiri bilan bordi-keldini kuchaytirdilar. Ular doimo Xorazm va qozoq karvonlarini talash bilan mashg'ul edi.

1809-yilda xon bu hududga chapovul uyushtirgan edi. Lekin mazkur hudud hali ham biror mamlakatga bo'ysunmas edi. Oqyoqish qal'asi hukmdorlari ular va To'ramurod so'fining Buxoroga borib-kelayotgan elchilarini ushlab qatlga tortdilar. Shu orada qozoqning chumanay toifasi podshohi Eralixon ming besh yuz kishilik qo'shin bilan Tanga xitoy va Qipchoqni taladi, ko'plab kishilarni o'ldirdi. Ularni to'xtatish uchun Yangidaryo biylari qoraqalpoq yigitlariga murojaat qilishadi. Ular Eralixonni yengib, qochishga majbur qilishadi⁴⁷. Ushbu voqeadan keyin, Yangidaryo biylari Xiva xoniga elchi yuborishadi. Elchilarni xon xushnud kutib oladi. Biroq, O'rinboybiy va Eshjonbiydan boshqa biylar o'zlarining qozoq xonlari bilan aloqasini kuchaytirdilar.

Bu voqealardan keyin xon Yangidaryoga yurish qilish uchun farmon beradi. Xivadan chiqib, Toshqal'a va Moylijangal orqali Amudaryodan o'tib, Eltuzarxon qurgan rabotga tashrif buyuradi⁴⁸. O'sha jarayonda xon Shayx Jalil tog'ida joylashgan Sulton Uvays qabrini ziyorat qiladi. Shu kuni kechasi zilzila voqe' bo'ladi.

Xonning bu yurishida shoir Mirzo Masiho ham ishtirok etadi. Xon dastlab daryoning ikki tomonida ov-ishkor qilish bilan mashg'ul bo'ladi.

⁴⁷ Фирдавс ул-икбол, 224-бет.

⁴⁸ Фирдавс ул-икбол, 225-бет.

Munis bu paytda Gurlanda qolib ketganligini va tezda Qipchoq hududiga yetib kelib xon huzurida ishini davom etdirganini qayd qilib o'tadi⁴⁹.

Muhammad Rahimxon I ovda yurganida Muhammadniyozbek mahramni Mirzo Masiho bilan Xo'jayliga yuboradi. Ular Sayyid Pirimxo'ja Eshon, Tursunxo'ja Eshon va Sayyid Gadoyxo'ja eshonlarga a'lo hazratning sovg'alarini eltib berishadi.

Bu payt kuzning oxiri bo'lib, birdan sovuq tushib, daryo muzlab qoladi. Xon shikorni davom ettirayotgan paytda Yangidaryodan O'rinbiy va Eshjonbiylar xon huzuriga kelib itoat qilishadi. Ular o'z elini ikki ming qoraqalpoq xonadoni bilan birga ko'chirib Baday to'g'ay atrofida Amudaryo bo'yiga o'rmashdilar⁵⁰.

Ammo Esangaldibiy, To'qtopo'lodbiy va Mamanbiylar xonga itoatdan bosh tortdilar va qozoq xonlariga elchi yubordilar.

Ko'chib kelgan aholiga xon Kengyantoqdan Chilpiqqacha bo'lgan maydonni in'om qildi⁵¹.

Xon shikorda yursa ham, Qo'ng'iro'tga tez-tez chopovul tashkil etib turdi. Shu orada Yangidaryo aholisi hukmdorlari ikkiga ajralib, Esangaldibiy, To'qtopo'lodbiy va Mamanbiylar dengiz orqali qozoq hududiga ko'chishadi. Besh sorig' urug'idan Manglay va Bo'ron boshliq ikki ming besh yuz xonadon bilan xonlik hududiga ko'chib, itoatga bosh urdilar. Munis ushbu voqealar tasviri jarayonida Orol dengizi haqida qiziqarli voqealarni hikoya qilib o'tadi. Uning qayd qilishiga ko'ra, Orol shu qadar mahobatliki, uning ulug'likda tengi yo'qdir. O'sha davrda bu dengizni "Bahirai Xorazm" deb atar ekanlar. Shoir dengizni shunday tasvirlaydi:

Xurshidki, davr etar jahonda,
Ondin chiqibon botar ham onda,
Suv ostida har nahangi xunxor,
Hay'at aro ko'hdan namudor.
Nogoh shamole essa ul yon,

⁴⁹ Фирдавс ул-икбол, 225-бет.

⁵⁰ Фирдавс ул-икбол, 228-бет.

⁵¹ Фирдавс ул-икбол, 230-бет.

Tug‘yon qilur ul sifatki, to‘fon.
Ul chog‘da natog‘u na sahori,
Yo‘q shakki, bo‘lur g‘ariq bori.
Har to‘lqinikim, chiqib falakka,
Qaytib yana mayl etar samakka⁵².

Tarixnavisning yozishicha, o‘sha davrda bu dengizni o‘zbeklar “To‘bak”, “Orol”, “Otov” degan nomlar bilan atashgan. Bir vaqtlar bu dengiz o‘rnida “Adoq” va “Yangi shahr” degan qal‘alar bo‘lgan emishki, hozirda ham ularning toshdan ishlangan bino qoldiqlari kemachilarga dengiz ostidan ko‘rinib turar ekan⁵³.

Afsuski, shunday ulug‘ dengiz hozirda yo‘q bo‘lish arafasida turibdi. Holbuki, Munis dengizga ta’rif bergan davrdan beri atigi 200 yil o‘tdi. Tarix uchun bu sana urvoqday gap. Shunday qilib, Muhammad Rahimxon I Yangidaryo mavzesidagi Manglay va Bo‘ron eli bilan ko‘chib o‘tgach, bo‘ysunmagan uchta biyni ta’qib qilishga farmon beradi. Xonning qat’iy maqsadini anglagan Esangaldibiy, To‘qtao‘lodbiy va Mamanbiylar Oydo‘stbiy va O‘rinboybiylar maslahati bilan xonga itoat va’dasi bilan kelishadi. Xon esa ularni yaxshi qabul qilib, avf etadi⁵⁴. Shuningdek, Amonboy yuzboshini ularni ko‘chirishga mas’ul etib tayinladi. Xon muz ustidan o‘tib, Yangidaryoning quyiladigan joyiga kelib tushib, mulla Eshimboyi qozoq podshohi Abdulazizxonga elchi qilib yubordi va barcha asir olingan qoraqalpoqlarni hamda ularning mol-mulkларini berishni so‘radi. Shundan keyin, qo‘shin orqaga qaytadi. Muz ustidan zo‘rg‘a amallab o‘tishadi, ayrim otlar dengizga cho‘kib ketadi. Uch kundan so‘ng xon Oqyoqishga kelib tushib, Oydo‘stbiy va Oymirzabiylarga ezgu ishlari uchun mukofot ato etadi⁵⁵. Shundan keyin, Xo‘jayli orqali Moylijangalga kelib tushadi. Qurbon hayiti kuni Xivaga tashrif buyuradi. Sal o‘tmay, Abdulazizxonga elchi bo‘lib ketgan Eshimboy ham barcha ishlarni bitkazib, qozoq hukmdori bilan do‘stlik iplarini

⁵² Фирдавс ул-икбол, 231-бет.

⁵³ Фирдавс ул-икбол, 232-бет.

⁵⁴ Фирдавс ул-икбол, 233-бет.

⁵⁵ Фирдавс ул-икбол, 235-бет.

bogʻlab, qaytib keladi. Ular bilan Abdulazizxonning vakillari Toʻka sulton va Sabdat Garoy boshliq bir guruh delegatsiya xon huzuriga yetib kelishadi⁵⁶.

Shunday qilib, Muhammad Rahimxon I faoliyatining beshinchi yili yakunlanib oltinchi yili boshlanadi.

Xon faoliyatining oltinchi yilida ham Toʻramurod soʻfi bilan bogʻliq muammolar hal etilmagan edi. Endilikda xon bu masalaga jiddiy kirishishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻydi va 1811-yil erta bahordan besh yuz jangchini Orol hududiga otlantirdi. Ular Ilonqir ustidan muz orqali Kengyantoqqa chiqishdi va Oqqalʼaga yetdilar. U yerda Qoʻngʻirot dan Toʻramurod soʻfi yuborgan talonchilar bor edi. Ubaydulla xoʻja lashkardan sal ilgari borayotib ularni koʻrib qoladi. Ulardan bir qismini oʻldirib, ikki-uchtasini asir olishadi. Ammo bittasi qochib qutiladi⁵⁷.

Xon qoʻshinlari shiddat bilan Qoʻngʻirot qalʼasiga hujum uyushtiradilar. Ammo qalʼadan chiqib urushishga jurʼat qiladigan kishi topilmaydi.

Shu jarayonda Toʻramurod soʻfi ham tinch oʻtirmay igʻvoni davom ettiradi. Qoʻngʻirot jangidan keyin 200 kishini jamlab, Maqʼadbiy, Hasanboybiy va Choʻnqorabiy tasarrufidagi qoraqalpoq ahliga hujum uyushtiradi. Ularga qarshi qoraqalpoq yigitlari shiddatli kurash olib borib, dushmanlarni iziga qaytishga majbur qilishadi va Soʻfining eng yaqinlaridan boʻlgan Qoʻshbaytar qalmoqni qatl qilishadi. Qoraqalpoq jangchilari toʻqqiz ot va toʻrt boshni Qodirberganbiyga keltirishadi. U esa voqeadan xabardor qilish uchun xon huzuriga yetib kelib, tashakkurga sazovor boʻladi⁵⁸.

Munis oʻsha davr tarixini yozar ekan, mamlakat miqyosida boʻlayotgan barcha voqealarni qayd qilib oʻtishga harakat qiladi.

Oʻsha davrda xonlikning Eron bilan aloqasi ham yaxshi emas edi. Sunniy va shia mazhablari oʻrtasidagi nizo bu kelishmovchilikning asosiy sabablaridan biri edi. Shu sababli “Qizilbosh” nomi ostida tilga olinadigan kishilar forsiy xalqni anglatar edi. Bu nom aslida 12 shia imomi sharafiga oʻn ikki yoʻllik qizil matodan

⁵⁶ Фирдавс ул-икбол, 336-бет.

⁵⁷ Фирдавс ул-икбол, 336-бет.

⁵⁸ Фирдавс ул-икбол, 237-бет.

salla o‘rab yuradigan safaviya tariqatiga aloqador kishilarga aloqadordir. Yo‘vmit toifasiga mansub jangarilarning iltimosiga ko‘ra, xon Qoqa sardorni yuz jangchi bilan Xuroson qizil boshlarining ustiga chopovulga jo‘natadi. Yana Xizr sardor ham ellik bahodir yigit bilan Gurlan hududida unga qo‘shiladi. Qo‘shin Astrobod muzofotida ba‘zi qal‘alarni talab, mol-mulklarni taroj qildi⁵⁹.

O‘sha yili safar oyining o‘n sakkizida Hazoraspda istiqomat qiluvchi xon hazratlarining qaynotasi Sayyid Ubaydullox o‘ja Eshon nevaralaridan biriga xatna to‘yi o‘tkazadi va bunga kuyovini taklif etadi. Xon to‘yga otlanib, Xitoy mavzesida 1-2 kun shikor–ovda bo‘ladi va Hazoraspdagi hovlisiga tushadi. Xon uyining mushrifi (boshqaruvchi) Qilich oqqosh Xiva va Hazorasp polvonlarining kurash bellashuvini tashkil qilgan edi. Xon uni tomosha qilib, g‘oliblarga sovg‘a ulashadi⁶⁰. Oyning yigirma ikkinchi kuni xon to‘yga tashrif buyuradi. Bu yerda u “Oltin qovoq”, “ot chopish”, “kurash tushish” tomoshalarini ko‘rib, g‘oliblarga yuksak mukofotlar ulashdi. Xon shu jarayonda Xevanik va G‘oziobod ariqlarining suv taqsimoti bilan ham qiziqib, miroblarga tegishli topshiriqlar berib, oyning yigirma beshida Xivaga qaytib keladi⁶¹.

Xivaga qaytishi bilan xon yana Qo‘ng‘irot muammosiga bosh qotiradi. Qutlug‘murod inoq Solihshayx va Abdurahmon os rahbarligida yuz kishini Qo‘ng‘irot chopovuliga jo‘natadi. Ular 13 kun davomida 18 kishini qatl qilib, 1 kishini asir olib, Xivaga qaytib kelishadi. Xonning Qo‘ng‘irot masalasi bilan muntazam shug‘ullanishidan maqsad, bu muammoni butunlay hal qilib, oxiriga yetkazish edi. Chunki To‘ramurod so‘fi 18 yil davomida mamlakatdagi osoyishtalikka rahna solib, kelmoqda edi. Hatto dini islom qoidalarini ham oyoq osti etmoqda edi. Jumladan, mulla Xo‘roz elini ko‘chirgandan so‘ng qahrga minib u bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan Esonomon otaliq va O‘taberdi otaliqlarni tutdirib, ini va o‘g‘lonlari bilan o‘n bir kishini qatl qildirib, ba‘zilarining xotinlarini motam marosimlari o‘tmasdan burun, boshqalarga majburan nikoh qildirdi⁶².

⁵⁹ Фирдавс ул-икбол, 237-бет.

⁶⁰ Фирдавс ул-икбол, 238-бет.

⁶¹ Фирдавс ул-икбол, ўша саҳифа.

⁶² Фирдавс ул-икбол, 239-бет.

Shunday holatlar ham bo'ldiki, agarda birov ko'chib ketsa, ularning izidan kishi yuborib tutdirib kelib, erlarni bo'g'zidan, xotinlarni emchagidan osib o'ldirar edi. Ularning qarindoshlari bo'lgan ayol-qizlarni yo hibsda saqlar yoki turkmanlarga sotib yuborar edi. Jumladan, Oqyoqishdan asir qilib olingan Qurbonbekbiyning go'zallikda yagona bo'lgan qizini 40 go'zal sherigi bilan Xuroson turkmanlariga o'n bir ot evaziga sotib yubordi⁶³.

Mana shu qabihliklarga barham berish uchun xon 1811-yil rabi' ul-avval oyining o'ninchi kuni katta qo'shinni Oqqum mavzeiga yubordi. Biroq, shu yili qattiq qahatchilik bo'lib, yurish bir muncha kechikadi. Xon qo'shin uchun to'plangan g'alla va boshqa oziq mollarni masjidlarga tarqatadi. Och-yalang'ochlarga xayriya qiladi.

Yoz kelib, hosil yig'ilgandan keyin xon Qo'ng'iro't yurishini qaytadan boshlaydi. Bu yurishga boshqa bir hodisa ham sababchi bo'ladi. Qo'ng'iro'tning Eshquli urug'iga mansub Xolmuhammadxon va Xudoyquli otaliqni To'ramurod so'fi qatl qildiradi, Muhammadrahimni eli bilan ko'chirib, qal'aga kiritadi. Ularning o'lmay qolgan bir-ikki farzandlari xon oldiga kelib shafqat so'rashadi⁶⁴.

Natijada xon quyosh sunbula burjiga o'tganda (avgust oyi) Xivadan chiqib Anbar Monoq va Moylijangal hududiga yetib keldi. Bu joyda olti kun shikor qilgach, oyning o'rtasida Qipchoq orqali daryodan o'tdi. Qirqqoyirga o'tib Qutlug' Muhammadbek Hazoraspiyga yuz kishi berib, kema yo'llarini nazorat qilishga jo'natdi. U kemalarning ot yo'li guzarigacha bemalol borishi mumkinligi haqida xabar beradi. Xon o'zbek, qoraqalpoq va turkman sipohiylarini birga qo'shib, Karimberdi otaliqni bosh qilib, Qo'ng'iro't qal'asi atrofiga chopovulga jo'natadi. Ular ko'plab o'lja va asirlarni xon oldiga keltirdilar. Xon o'ljalarni ularning o'ziga havola qilib, asirlarni qatl qilmasdan qal'a atrofidagi xandaklarda ishlatishga yubordi⁶⁵. Barcha lashkarboshilarni sipohilar bilan birga qal'a tevaragiga joylashtirib, hujum boshlashga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qal'a atrofidagi ekinlar poymol etildi. Qal'a himoyachilari tashqari chiqishga qo'rqib, ichkaridan to'p ota

⁶³ Фирдавс ул-икбол, 240-бет.

⁶⁴ Фирдавс ул-икбол, 242-бет.

⁶⁵ Фирдавс ул-икбол, 244-бет.

boshladilar. To‘p o‘qidan ko‘pgina kishilar shahid bo‘ldi. Shulardan biri xonning ishonchiga sazovor bo‘lgan Mustaqim devona no‘g‘ay halok bo‘ldi. Uni xon Xo‘jayli hududidagi Mizdakxon qabristoniga dafn qildirdi⁶⁶.

Qal’a qamalini xon Muhammadniyoz karchak, Berdi bahodir, Do‘sim bahodir, Eshniyoz otaliq, Mamishbek va Tanak bahodirlarga topshirdi. Ular qal’aning barcha darvozalarini mixlab, tashqi aloqani uzdilar. Natijada qal’a ichida qahatchilik boshlanib, odamlar ko‘chalarda o‘lib boshladi. Ko‘p odamlar qal’a devoridan oshib, xon lashkarlariga taslim bo‘ldilar⁶⁷. Xon lashkarlari tobora to‘lishib ko‘paya bordi. Muhammadrizo qushbegi Xevanik arig‘i bandi yiqilib ketgani uchun uni mustahkamlab bekitish maqsadida navkarlari bilan qolib ketgan edi. U ham yigitlari bilan janggohga yetib keldi.

Qal’aning Qilich inoq sipohilari joylashgan qismida uch yuzga yaqin jangchi bor edi. Qal’a ichidagi mudofaachilar olti mingdan ziyod edi. Ular Qilich inoq jangchilariga qat’iy hujumga o‘tishdi. Lekin oxirida chekinishga majbur bo‘lishdi. Shu paytda To‘ramurod so‘fining ammazodasi Qulmurod inoq halok bo‘ldi.

Ushbu jangdagi mardliklari uchun Qilich inoq lashkarlari xonning tashakkuriga sazovor bo‘ldilar⁶⁸.

Xon qal’aga hujumni to‘xtatmasdan, turli harbiy hiylalar bilan urush-savashda davom etdi. Bu urushda qoraqalpoq jangchilari alohida faollik ko‘rsatdilar. Ayniqsa Tayloq bahodir va Eshbo‘l bahodirlar To‘ramurod so‘fining o‘g‘li Do‘sotni qo‘lga tushirish uchun shiddatli kurash olib borishadi. Tayloq bahodir uning oldidan chiqib, otdan yiqitadi. Do‘sot chaqqonlik bilan o‘zini daryoga tashlab qutilib qoladi. Uning oti esa Tayloq bahodirning qo‘lida qoladi⁶⁹.

Jang qizigan paytda qoraqalpoq bahodirlaridan Kuchanakbiy qal’aga bostirib kirishga ruxsat so‘raydi. Ammo xon hali bunga erta ekanligini aytadi, qal’adagilar insofga kelar degan, umid bildiradi. Ammo so‘fi itoatdan bosh tortadi. Natijada Ollanazar mergan qal’a ichiga kirib, jangni davom ettiradi.

⁶⁶ Фирдавс ул-икбол, 245-бет.

⁶⁷ Фирдавс ул-икбол, ўша саҳифа.

⁶⁸ Фирдавс ул-икбол, 247-бет.

⁶⁹ Фирдавс ул-икбол, 248-бет.

To‘ramurod so‘fi Gurgon yo‘vmitlariga o‘n bir ot evaziga Qurbonbekbiyning qizini 40 qiz bilan sotganda, agar 200 kishi jangga kirish uchun kelsa, har biriga ikkitadan qiz beraman, deb va‘da etgan edi. O‘sha 200 kishi ot, tuyalarga bug‘doy va guruch yuklab, Qo‘ng‘irotga yaqinlashganda jangu-jadalni ko‘rib, iziga qaytishadi. Bu voqeani Qandim sardor eshitib, ularni tutishga bir guruhni yuboradi. Gurgon yo‘vmitlari barcha yuklarni tushirib, iziga qarab qochishadi⁷⁰. Eltiya qudug‘i yonida ularning izidan yetib, ot va tuyalarini qo‘lga tushirdilar o‘zlarini esa, qatlga yetkazdilar.

Muhammad Rahimxon I har doim Qo‘ng‘irot bo‘lganida, Hakim ota-Sulaymon Boqirg‘oniy qabrini albatta ziyorat qilar edi. Bu safar ham, ushbu an’anani kanda qilmay, buyuk shoir maqbarasi ziyoratiga bordi. Bu ziyoratda, shoir Munis ham qatnashgan va bitta qit’ani Hakim ota sharafiga bag‘ishlagan.

Ey muallo ostonning qiblayi ahli yaqin,
Surtadurlar dargahingga shohlar ro‘yi niyoz.
Kimki, xoki ostoning o‘pdi, topti obro‘y,
Balki tashrifi saodat birla bo‘ldi sarafroz.
Har kishikim, sarxushi jomi qabulingdur mudom,
Uldurur mayxonayi vahdataro ishrat taroz.
Chora istab kelmisham oshufta ko‘nglim dardig‘a,
Chorae qil, chunki dard ahlig‘adursan chorasoz.
Keldi yuz ummid ila Munis janobing tavfig‘a,
Qil navozishlar anga, ey sarvari miskinnavoz⁷¹.

Xon Qo‘ng‘irot yurishi davomida Muhammad Yusuf mehtar xonadonida tantanali iftor tashkil etadi. O‘sha iftor vaqtida unga Yormuhammadbek Qo‘shko‘pruki Xivadan noma keltiradi.

Bu noma Buxoro amiridan bo‘lib, xonga barcha gina-kuduratlarni unutib, yarashishni taklif qilib, o‘g‘lining to‘yiga kelishni iltimos etgan edi. Nomani ikki

⁷⁰ Фирдавс ул-икбол, 249-бет.

⁷¹ Фирдавс ул-икбол, 251-бет.

kishi keltirib, Xivada xon o'rnida o'tirgan Qutlug'murod inoqqa topshiradi. U esa nomani xonga yo'llagan edi.

Xon nomani yaxshi kutib oladi. Shu asnoda Eltuzarxonning halok bo'lgan voqeasida ba'zi kishilar Buxoroda asirlikda qolib ketgan edi. Xon ularni xotirlab Buxoro amiriga noma yo'llab, o'sha kishilar hayot bo'lsa, ularni ozod qilishni iltimos etdi⁷².

Qo'ng'irod jangi davom etayotgan o'sha vaqtda Ochamayli va Ko'ko'zakli qabilalaridan xonga arznoma tushadi. Unda fuqarolarning Xo'jamurodbiy va To'ramurod so'fi zulmidan ozod qilish haqidagi iltimoslari bitilgan edi. Shu asnoda xalqni afv qilish ham so'ralgan edi. Xon bu arznomaga ijobiy munosabat bildiradi.

Oyning o'ninchi kuni xon Karimberdi otaliq va Abdulla Inoqqa farmon berib, qal'aga bostirib kirishni topshirdi. Ular qal'aga yorib kiradilar. So'fining barcha yaqin safdoshlari bilan birga tutib, qatlga yetkazdilar. Ular orasida Buxorodan kelgan elchi ham bor edi⁷³.

Qal'aga xon inisi Muhammadnazarbekni hukmdor qilib qo'ydi. Qal'aning barcha darvozalaridan kirgan lashkarlar so'fining mol-mulkini talon-toroj qildilar. Uning zindonini buzib, mahkumlarni ozod qildilar⁷⁴. Mahkumlar orasida 5-7 yildan beri kishan va kundaga band etilgan erkak va ayollar ko'pchilikni tashkil etar edi.

Qal'a bosib olingan paytda, To'ramurod so'fining uch o'g'li va bir qancha yaqinlari qochib qolishga ulgurgan edilar. Xon ularni ta'qib qilishga kishi yuborib, qal'a darvozalari muhofazasiga Karimberdi otaliq, Xudoynazar otaliq, Qilich inoq, Muhammadrizo inoq va Abdulla inoqlarni tayinlaydi. So'fining boshini fathnoma bilan Qangli Jahongirbek va Xudoyberdi bojbonning o'g'liga topshirib, Xivaga qaytadi.

Tez orada qochqinlar izidan ketgan guruh Shohniyoz qoraqalpoq boshchiligida yetti kishi bilan so'fining bolalarini quvib yetib, ikki yo'vmitni

⁷² Фирдавс ул-икбол, 252-бет.

⁷³ Фирдавс ул-икбол, 254-бет.

⁷⁴ Фирдавс ул-икбол, 255-бет.

o'ldirib, ikkitasini asir olishadi. Berdi bahodir so'fining uch o'g'lini tutish arafasida ulardan Tavqarabek va Suyunbiy ot-yarog'larini tashlab, ko'lga kirib qamishzorga yashirinadi. Ammo Do'sotbek qochishga ulgurib, daryodan o'tib Buxoroga yetib boradi⁷⁵. Biroq, Tavqarabek, qamishzordan chiqib, ne qilarin bilmasdan Qo'ng'irotda qaytadi. Uni ushlab xon huzuriga eltishadi. Asir olingan yo'vmitlar bilan birga u qatl etiladi.

Suyunbiy esa ancha darbadarlikdan keyin, Qilich inoqqa odam yuborib, afv so'raydi. Qilich inoq esa bir urug'dan ekanini e'tiborga olib, xon hazratlaridan uning gunohini tilaydi, xon bu iltimosni qabul etib, uni afv qiladi⁷⁶.

Munis ushbu voqealar tafsilotini bayon qilgandan keyin, Mirzo Masihiy Buxoriy bilan Mullo Vaisniyoz Ziyrakning Orolning fath etilishiga bag'ishlangan ikki qasidasi va yettita ta'rixini kitob tarkibida to'laligicha keltiradi. Darvoqe, Masihiy faoliyatiga alohida to'xtab o'tishga to'g'ri keladi. 1908-yilda Xivaga kelgan sharqshunos A.N.Samoylovichning yozishicha, "Yangi Xiva adabiy muhitining eng ko'zga ko'ringan birinchi vakillari Munis va Mirza Masih bo'lgan. XIX-asr Xiva xonligi tarixini kuzatish asosida shu davr adabiy muhiti vakillarining Mirza Masih va uning yangi Xiva adabiyotini shakllantirishidagi o'rni haqidagi fikrlarning nechog'li haqiqat ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim". Mening u haqda to'liqroq xabar berish: kim, qayerdan, faoliyati haqidagi savollarimga Xiva ziyolilari quyidagicha javob berishni lozim topishdi: "Muallifning tarjimai holi bilan qiziqish bizga xos emas, vale biz bu kabi ma'lumotlarni shoirning o'z asarlaridan bilib olurmiz". Menga ma'lum bo'lishicha, Mirza Masih asli Xivalik emas. U Xivaga Qo'ng'irotda dinastiyasining xoni Muhammad Rahimxon I (1806-1825) hukmronligi davrida kelgan va Muhammad Amin (1845-1855) hukmronligi davrida vafot etgan. Mirza Masih shu darajada mashhur bo'lib ketganki, natijada uning saroydagi faoliyati Qo'qon xoni Amir Umarxon (1809-1822) va Buxoro xoni Haydar To'ra (1800-1826)da hasad uyg'otgan. Ahmad Tabibiyning xabar berishicha, ular Mirza Masihni o'zlari tomon og'dirishga ko'p harakat qilishgan.

⁷⁵ Фирдавс ул-икбол, ўша саҳифа.

⁷⁶ Фирдавс ул-икбол, 257-бет.

Mirza Masih esa Qo‘qon va Buxoro xonining taklifiga quyidagi oqilona she‘ri bilan javob bergan:

Muhammad Rahim olliya topsa joh,

Umar tobe‘ emasmu Haydar mute‘.

Ya‘ni: Muhammad Rahim I oldida qo‘nim topgan kishiga Amir Umarxon va Haydar ham tobe‘ bo‘lmasmu?

Ma‘lumki, musulmon sharqida ziyolilikning belgisi sifatida husnixat tan olingan. Mirzo Masihning Xiva kalligrafiyasini yuqori pog‘onaga ko‘tarishda alohida hissasi bor. Eng yaxshi kotiblar sanalmish Xudaybergan Devon va Muhammad Rasulboy Mirzaboshilar o‘zlarini uning shogirdlari deb e‘tirof etadilar. Masalan: Munis bilan birga Xiva saroy adabiyotini boshlab berganlar. Xiva shoirlari, tarixchilari, tarjimonlaridan Munis, Ogahiy, Komil, Xolis kabi shoirlar Mirzo Masihning shogirdlari sanalgan. (Холлиева Г. Ўзбек мумтоз адабиёти рус адабиётшунослигида. –Т.: “Мумтоз сўз”, 2011.–104-105-бетлар).

Oroldagi To‘ramurod so‘fi ayirmachiligi tugatilgandan keyin, mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukm sura boshladi. Xon so‘fidan jabr ko‘rgan ko‘plab kishilarni turli mansablarga munosib ko‘rdi. Noto‘g‘ri yo‘l tutib, keyin pushaymon qilgan ko‘plab kishilarni, hatto so‘fining bir o‘g‘lini ham bag‘rikenglik bilan afv qildi.

O‘sha davrda xon Pahlavon Mahmud qabri ustida maqbara barpo qildirdi. U joyga eng iste‘dodli, savodli ruhoniylarni jam qildi. Qori qur‘on o‘qiydigan, “Furqoniy majid hofizlaridin guruhi donish”ni tashkil etdi⁷⁷. Mamlakat hududidagi ko‘plab masjid, madrasa va xonaqolarni ta‘mirlash va ularga ahli donish insonlardan vakil tayinlash ishlarini amalga oshirish choralarini ko‘rdi.

Orol muammosi hal bo‘lib el osoyishta topgandan so‘ng, Dashti Qipchoq muammosi yuzaga keldi.

Qozoq toifasiga mansub Shumanay eli Muhammadamin inoq davrida Abdulxayrxonning o‘g‘li Eralixonni podshoh qilib, osuda hayot kechirar edilar. Ammo Eralixon vafotidan keyin, uning avlodlari podshohlikni davom ettirib,

⁷⁷ Фирдавс ул-икбол, 265-бет.

uning o'g'li Temurto'ra davriga kelib, fisqu-fasod kuchayadi. Ushbu xonlikka mansub kishilar dastlab karvonlarni talab boshladilar. Keyinchalik Xorazm va Buxoroning fuqarolarini talab, asir qilib olib, keta boshlashdi. Ayniqsa, Yangidaryodagi qoraqalpoqlarga zulm o'tkazdilar, ularning mol-mulkini talab, kishilarni asirga oldilar.

Natijada xon mamlakat fuqarosini himoya qilish uchun Dashti Qipchoq yurishini boshladi. Shu fursatda Marvdagi taka beboshlari ham talonchilikni boshlashdi. Xon yurishida bu ahvolni ham hisobga oldi. Yurishga jo'nash oldida Buxorodan elchilar kelib, turkman qaroqchi guruhlarining beboshliklarini birgalikda bartaraf qilishni so'rashdilar. Ammo xon bu masalani hal qilish uchun Berdi inoqni jo'natib, o'zi navbatdagi yurishga jo'nab ketadi. Safarga jo'nab ketish arafasida qozoq elchilari kelib, itoatgo'ylik masalasini qo'ydilar, ammo xon bunga ko'nmadi.

1812-yil muharram oyining 12-kuni xon hazratlari Xivadan chiqib, Moyli jangalga kelib tushdi⁷⁸.

Bu orada Gurgon turkmanlari Xo'jaylidagi qoraqalpoqlar ustiga chopovul uyushtirdilar. Xon unga chora ko'rishni Yusuf mehtarga topshirib, o'zi qo'shinni Qipchoq orqali Chilpiq hududiga o'tkazdi.

Bu voqealar xon faoliyatining yettinchi yilida sodir bo'layotgan edi. Shunday qilib, xon qo'shini Dashti Qipchoq tomon yo'l oldi. Yo'lda unga Oydo'stbiyning 500 qoraqalpoq yigiti ham qo'shildi⁷⁹. Qo'shin sovuqdan ancha qiynalib, nihoyat Hasan qal'aga yetishdi. U yerda tutilgan asirlar ma'lumotiga ko'ra, qozoqlar hali qo'shin kelayotganidan bexabar ekanlar. Ammo bitta asir qochib, bu xabarni yetkazgach, qozoqlar qabila-qabila bo'lib, qochishni boshlashgan.

Xon qo'shinlari mahalliy qabilalar mol-mulkini talab, kishilarni asirga olib, yurishda davom etdilar. Yuz mingdan ziyod qo'y, qirq mingdan oshiq tuyani

⁷⁸ Фирдавс ул-икбол, 269-бет.

⁷⁹ Фирдавс ул-икбол, 270-бет.

qo‘lga oldilar, ko‘plab kishilar asir olindi, ularning besh yuztasi yosh qizlar edi. Bo‘lakayxonning avlod-ajdodlari ham asirga olindi⁸⁰.

Xon qo‘shinlarining ushbu shiddatli yurishidan xavotirga tushgan Sulton Temurxon xonga itoat yuzasidan elchi yubordi.

Xon elchilarga: “Bizning mamlakatimiz, umuman, musulmon millatidan, kimniki asir olgan bo‘lsangiz, bizga qaytaring, biz ham asirlarni inshoolloh sizga qaytarurmiz”, deydi. Qo‘shnazar devonbegini bu masalaga mas’ul qildi. Shu tariqa ko‘plab o‘lja bilan xon orqaga qaytdi. Safar oyining o‘ninchi kuni Ko‘hna Kotga kelib, Shoh Abbos valiy ziyoratgohidan o‘tib, Cholish ro‘parasida to‘xtadi⁸¹.

Uch kundan keyin Navro‘z bayramini kutib olib, xon lashkarlarga sovg‘alar in‘om qildi. Xonning bu g‘alabali fathi haqida shoirlar ko‘plab qasidalar bitishdi. Munis o‘z kitobiga Abdulmaoniy mullo Niyozmuhammadning bitta qasidasini kiritgan. Uning qayd qilishicha, qasida 70 baytdan iborat bo‘lib, Munis undan 24 baytnigina xotirlab, boshqasini esiga keltira olmagan.

Bu yurish haqida o‘zi ham bitta ta’rix bitgan. Oyning o‘n yettisida xon daryodan o‘tib, Xivaga tashrif buyurdi.

Xon Dashti Qipchoq safarida yurganda Xivaga bir qancha mamlakatlar elchilari do‘stlik umidi bilan kelgan edilar. Bular orasida Eron, Xuroson, Tajan va O‘rta yuz qozoqlaridan kelgan vakillar bor edi.

Xon Xivaga kelgandan keyin, uch kun o‘tgach, ushbu mehmonlar bilan uchrashib, ularning do‘stlik izhorini mamnunlik bilan qabul qildi. Bu elchilarning har biriga o‘z vakilini qo‘shib, jo‘natib yubordi.

Xon Dashti Qipchoqdan kelgandan keyin, Xivadagi qurilish, shaharsozlik ishlariga ham e’tibor qaratdi. 1810-yilda Sirchali arig‘iga uchta tosh ko‘prik qurdirgan edi. Bunday ko‘prik qurish Chingizxon davridan buyon Xorazmda rasm bo‘lmagan edi. Ammo Bog‘cha guzaridagi ko‘prik xon ko‘ngliga unchalik unamagan edi. O‘sha ko‘prikni qaytadan ta’mirlatdi.

⁸⁰ Фирдавс ул-икбол, 273-бет.

⁸¹ Фирдавс ул-икбол, 275-бет.

Munis bu voqeaga bitta ta'rix bag'ishlab voqeani nihoyalaydi. Bu voqea 1813-yilda yuz berib, xon faoliyatining yettinchi yili edi.

Ushbu joyda Munis yozgan tarix tugaydi. Muhammad Rahimxon I ning 7 yillik faoliyati Xorazm tarixida muhim o'rin egallaydi.

Ikkinchi bob yuzasidan quyidagicha qisqa xulosalarga kelish mumkin:

1. Muhammad Rahimxon I o'z mamlakatining xorazmshohlar davridagi mavqeini tiklash, davlat sarhadlarini mustahkamlash, xon almashtiruvlarga barham berish, kuchli davlat siyosati yurgizish maqsadida taxtni qo'lga kiritdi.
2. Mamlakatdagi guruhbozlik, ayirmachilik, sotqinlik kabi ichki nizolarni keltirib chiqaruvchi munofiq shaxslarni yo'q qilish siyosatini yurgizdi.
3. Mamlakatda boshqaruv siyosatini yaxshilash, urug' va qabilalarni birlashtirish maqsadida Oliy kengash ta'sis qildi.
4. Xiva xonligiga tazyiq o'tkazish, uning ichki ishlariga aralashishga harakat qilayotgan ayrim qo'shni davlatlar siyosatiga jiddiy qarshilik ko'rsatdi, o'zni kelganda harbiy kuch qo'lladi.
5. O'tgan yetti yil ichida u o'zining siyosati bilan qator davlatlar tomonidan e'tirof etildi va unga elchilar yuborib, do'stlik aloqalarini o'rnatish haqida takliflar o'rta tashlana boshladi.
6. U o'z harbiy siyosati davomida o'zbek, turkman va qoraqalpoq lashkarlari bilan hamjihatlikda ish olib bordi.
7. Albatta yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berish feodalizm tuzumi uchun o'ziga xos usullardan biri edi. Bu usullar Muhammad Rahimxon I faoliyatida ham o'z aksini topdi.
8. Muhammad Rahimxon I ning dastlabki hukmronlik yillarida mamlakatdagi ahvol nihoyatda og'ir bo'lishiga qaramay, uning sa'y-harakatlari bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan darajada ilgariga siljish imkoniyati yuzaga kela boshladi. Shunday qiyinchiliklar davrida ham xon mamlakatning madaniy hayotini yuksaltirishga e'tibor qaratdi. 1809-1811-yillarning o'zida uchta madrasa va bir necha irrigatsiya inshootlari qurilib, foydalanishga topshirildi.

III BOB

XIX-ASRNING BIRINCHI CHORAGIDA MAMLAKAT IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTINING YUKSALISHI.

3.1. Xiva xonining ijtimoiy-siyosiy sohada barqarorlikni ta'minlashdagi yakunlovchi faoliyati.

Yirik tarixiy asar bo'lgan "Firdavs ul-iqbol"ning yuzaga kelishida asosiy o'rinni Shermuhammad Munis egallasa-da, uning yakuniga yetishida Ogahiyning ham o'ziga yarasha xizmati bor. Ogahiy tug'ilganda Munis 31 yoshda bo'lib, yetuk shoir va tarixnavis sifatida tanilgan edi. Ogahiy tug'ilgan kuni Munis Muhammad Rahimxon I bilan safarda birga bo'lib, To'ramurod so'fi fathi bilan bog'liq Qo'ng'iro't voqealarini yozayotgan edi. Shu asnoda u safar sarguzashtlari qatorida quyidagi lavhani ham tilga olib o'tadi: "Bu yil mohi mazbur, ya'ni zulqa'daning o'nunda, shanba kuni Erniyozbekkim, faqirning inisidur, hazrati vohib-ul atoya bir farzandi arjumand va valadi saodat payvand ato qildi va ul nur hadaqai jalol va hadiqai kamol Muhammadrizobekka navri mavsum bo'ldi"¹. Bu sana 1809-yil 17-dekabrga to'g'ri keladi. Ogahiy tarix va adabiyotni o'zlashtirishda Munisning eng qobiliyatli shogirdlaridan biri bo'lgan va u bilan imkon qadar birga bo'lishga harakat qilgan. Munis vafot etganda Ogahiy endi yigirma yoshga to'lgan, hali shaxs sifatida shakllanib ulgurmagan edi. Olloqulixon uning hali hayot tajribalari yetarli emasligiga qaramay, xonlikdagi eng mas'uliyatli va nufuzli martabalardan biri bo'lgan miroblik mansabi bilan silaydi, o'zining davralardagi ilmiy va adabiy suhbatlariga chorlaydi.

Shaxsan, Olloqulixon Ogahiyga ko'p sohalarda ustozlik va homiylik qiladi². U Munisdan 17 yosh kichik, Ogahiydan, 14 yosh katta edi.

Binobarin, Munis boshlab, nihoyasiga yetkaza olmagan "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarini davom ettirishni ham 1840-yilda Ogahiyga Olloqulixon taklif etadi. Buni Ogahiy quyidagicha yozadi: "Sanai ming ikki yuz ellik beshda (1830) erdi, bu bandai bebizoat va qalil ul-istitoat va bu go'shanishini vayronayi alam

1. Шермухаммад Мунис Хоразмий, Мухаммадризо Огахий. "Фирдавс ул-иқбол" - Тошкент, "Ўқитувчи", 2010. – 202-б.

² Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. -Т.: "OFSET-PRINT", 2005. – 62-б.

mav nusining o‘n beshlanji yil kim, sanai ming ikki yuz ellik beshda erdi, bu bandai bebizoat va qalil ul-istitoat va bu go‘shanishini vayronayi alam va malolat, ahqari ibodi malik ul-vahhob, za‘ifu nahif Muhammad Rizo Mirob, almutaxallas bil-Ogahiy ibn Erniyozbek, birodarzoda va dastparvardai Munis Mirob g‘affarallohu zunubihum va satarollohu uyubhumkim, ul hazratning xizmatkori qadimiy va jonsipori samimi erdim, goh jabhai ahvolimg‘a didai marhamati va nosiyai avqotimg‘a ayni inoyatidin nazari kimyo asarin solib, bu parishon avroqkim, tarkibidin ko‘ngul mutahayyir, balki aqli kull muta‘zzurdur jam’ qilib, itmomg‘a yetkurmakni buyurib, (tartib bila sabt etmak va o‘z saltanatidin to bu vaqtg‘acha har vaqo‘ekim, vuqu’ topibdur va vuque’ topkusidur, joy-bajoy bitmakni amr qilib) bu dilxasta xoksuru tiyra ro‘zg‘orni tufrog‘idin ko‘tardi va iftixorim boshin falaki davvordin o‘tkardi: chun ul hazratning iltifot va inoyotidin iltifoti mavfur va inoyoti nomavfuridin bu amrg‘a ixtisos topdi. Al ma‘muru ma‘zurun muqtazosi bilan bo‘yun sunib, qulluq qilmoqdin o‘zga chora topmadim. Yo‘q ersa manda ul qudrat qaydakim, mundoq mushkul ishga qo‘l yetkurgayman. Va ul qudrat qaydakim, bu yanglig‘ qottig‘ yo‘lg‘a qadam urgayman”³.

Shu tariqa Ogahiy Olloqulixonning ko‘rsatmasiga asosan, Abulg‘oziy Muhammad Rahimxon birinchi faoliyatining sakkizinchi yilidan to vafotigacha bo‘lgan voqealarni tarix sahifasiga muhrlay boshlaydi. Tarixnavisning ta‘kidlashicha, u o‘zi guvoh bo‘lmagan voqealarni o‘sha hodisalar shohidi bo‘lgan kishilardan so‘rab olgan. Ayrim o‘rinlarda yozilib qolingan materiallardan foydalangan. Shuni ta‘kidlash kerakki, Munis Muhammad Rahimxon I davri tarixining yetti yilini yozib ulgurgan. Biroq, qolgan yillar tarixini bir tizimga solib, yozib tugallamagan bo‘lsa-da, barcha voqealarda qatnashib, barcha muhim voqea-hodisalarni yozib borgan. O‘sha yozma xomaki materiallar kitobning davomini yozishda Ogahiy uchun qimmatli manba vazifasini o‘tagan. Ogahiy tomonidan kitobdagi voqealarni davom ettirilgan 1813-yilda Muhammad Rahimxon I Xorazm taxtini egallagandan keyin, mamlakatning siyosiy-iqtisodiy hayotini ancha izga solib, o‘z mavqeyini mustahkamlab olgan edi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan,

³ “Фирдавс ул-икбол”, (Ўша нашр), 278-бет.

mamlakatda o'zaro ichki nizolar, turli xonliklar o'rtasidagi talonchilik, bosqinchilik urushlari barham topmagan edi. Shu sababli Xiva xoni o'z faoliyatining aksariyatini harbiy safarlar tashkil etish, mamlakatning hududiy-yaxlitligini ta'minlash, bosqinchilik, talonchiliklarga qarshi kurash bilan o'tkazgan. Ba'zan o'zi ham zo'ravonlikka qarshi zo'ravonlik, bosqinchilik siyosatini qo'llagan.

Ogahiy Muhammad Rahimxon I hukmronligining sakkizinchi yilida bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlar ekan, o'sha yili xon faoliyati doirasida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy vaziyatga alohida e'tibor qaratadi. Davlat rahbari tutgan siyosat asnosida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini tasvirlashga harakat qiladi.

Albatta, har bir tarixnavis eng avvalo, o'z davrining kishisidir. Shunday ekan, Ogahiy yaratgan asarlar u yashagan davr mafkurasini to'la aks ettirishi bilan ham xarakterlanadi⁴. Shu sababdan ham tarixnavis xonning tutgan siyosati doirasida fikr yuritadi. Biroq ayrim o'rinlarda uning zulm-zo'ravonliklarining real tasvirini ham beradi.

Xiva xoni o'z faoliyatining sakkizinchi yilida harbiy qo'shinlarni shaylab, Xuroson sari yurish uyushtiradi. Ma'lumki, Xorazmda hukmronlik qilgan xonlarning katta ko'pchiligi eroniylar bilan chiqisha olmaganlar. Buning asosiy sabablari, shia va sunniy mazhablari o'rtasidagi ixtiloflarga bog'lansa-da, aslida feodal tuzumning bosqinchilik tabiati bilan bog'liqdir. Eroniylar bilan kelishmovchilik masalasida "Qizilboshlar" iborasi ko'p ishlatiladi.

Ular "qizilboshlar" 12 shia imomi sharafiga o'n ikki yo'llik qizil matodan salla o'rab yurishgan. Qizilboshlilar safaviya tariqatining asosiy harbiy tayanchi bo'lishgan⁵.

Ogahiy ham ularni qizilboshlar tarzida nomlaydi. Muhammad Rahimxon I ham "Qizilboshiya ajsomiga zilzila yetkizmak" maqsadida yurish boshlaydi. Muhammad Rahimxon I ning qo'shin to'plab kelganidan xabardor bo'lgan

⁴ Шодмонов Н. "Шоҳид ул-иқбол"- адабий манба.-Т., "Фан", 2009.-11-бет.

⁵ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли лугати.-Т., "Академия", 2002.-290-бет.

eroniylar tasarrufidagi bir qancha qal'a hokimlari xonga elchi yuborib, omonlik so'rashadi. Biroq Mir qal'asi qarshilik ko'rsatgani uchun qamal qilinadi. Shu orada Hazorasp hokimi Abdulla inoqning xiyonat qilib, Buxoro amiri Amir Haydar bilan til biriktirgani haqida xabar keladi va xon shoshilinch ravishda Hazoraspga yo'l oladi. Abdulla inoq esa qochib ketadi.

Ogahiy Munis an'anasini davom qildirib, har bir voqea yakunida masala mohiyatiga mos she'riy misralarni qistirib o'tadi. U Abdulla inoqning qilmishiga she'riy satrlar bilan baho beradi:

Kishikim, davlati agar ketsa,
Baxt-u iqboli ham vido' etsa,
Fe'li aning buzulg'usi avval,
Aqli tori uzulg'usi avval.⁶

Xon bu voqeadan keyin Hazorasp hokimligini Qutlimurod inoqga topshiradi.

Muhammad Rahimxon 1 o'z xonligining to'qqizinchi yilida yana Xurosonga yurish boshlaydi. Xiva xonining Marv, Xuroson, Darband, Mahin, Bomi, Durun, Gurgon kabi qal'a va viloyatlarga tez-tez qo'shin tortib kelishining ko'pgina sabablari bor edi. Bu hududlar chegara mintaqalari bo'lib, Xorazm, Buxoro, Eron davlatlari tasarrufidan bir-biriga o'tib turar edi. Qolaversa, bu uchala davlatga daxldor ayrim qabilalar o'zaro hujumlar uyushtirib talonchilik bilan shug'ullanar edilar. Natijada Xiva xoni gohida hujumlarni qaytarish, fuqarolarini himoya qilish bahonasida bu hududlarga tez-tez qo'shin to'plab kelar, jangu-jadallar bo'lib turar edi.

Tarixnavis ushbu siyosiy ixtiloflar tasviriga ko'proq e'tibor qaratgan. Xiva xoni o'zining o'n birinchi yilgi faoliyatida ikkinchi marta Xuroson ustiga yurish uyushtiradi. Buning asosiy sabablaridan biri, Xuroson atroflarida yashovchi taka turkmanlarining talonchilik harakatlariga barham berish edi. Takalar Xiva xonligi tasarrufidagi hududlardan o'tinchi, ko'mirchi, cho'ponlarni o'g'irlab ketishar, ularni Eronga olib borib, qul qilib sotishar edi.

⁶ “Фирдавс ул-икбол”, 287-бет.

Xon ushbu yurishda Bomiburma, Mahin, Xirmontov, Gurgon qal'alarini fath etishni maqsad qilib qo'yadi. Ayrim qal'alar undan omonlik tilab taslim bo'lishadi. Xiva xoni qo'shin bilan chiqqanda taslim bo'lgan shahar va qishloq aholisini kechirgan⁷. Ularning ba'zilarini o'z tasarrufidagi hududlarga ko'chirgan. Ayrim shahar va qishloq aholisiga tinchlik va'dasi bilan taslim bo'lishni taklif etishgan. Taklifga ko'nmanlar ayovsiz jazolangan. Xurosonning Qorri Charlo degan qishlog'i aholisi taslim bo'lmaganligi uchun shafqatsiz qirib tashlangan va ayollar va bolalardan 270 dan ziyodrog'i asir olingan⁸.

1816-yilda taka turkmanlari Hazorasp tasarrufidagi yerlarga kelib, talonchilik qilishadi. Ko'plab mollarni o'lja qilib, bir necha kishilarni o'ldirib qochishadi. Hazorasp hokimi Qutlug'murod inoq bundan ogoh bo'lib, ularni tutishga kishi yuboradi. Takalarning izidan quvib yetadilar, ammo ular mollarni tashlab, qochib qutuladilar.

Bu voqeadan so'ng xonlik yana takalarni jazolash uchun intiqom guruhlarini tashkil etib, dastlab yo'vmit toifasidan Qoqa sardor, Mengli Ali sardor, keyin Murod sardor va Bog'ibek bahodirlar boshchiligidagi lashkarlar ular yashaydigan qishloqlarga hujum uyushtiradilar⁹.

Muhammad Rahimxon I o'z xonligi davrida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy mavqeini yuksaltirdi. Buni tarixnavis xonning boshqa xonlik va amirliklarga ta'siri asnosida yoritib bergan. Muhammad Rahimxon I taxtga o'ltirgach, dastlab xonlikning shimoliy-sharqidagi qoraqalpoq urug'larini, keyinchalik Sirdaryo bo'yidagi qozoqlarni o'ziga bo'ysundirib, ulardan boj-xiroj oladigan bo'ladi.

Ogahiyning ta'kidlab ko'rsatishicha, qozoq xonligini boshqargan Sherg'ozixon Xiva xoniga tobe' bo'lib, yaxshi munosabatni davom etdiradi. Biroq uning inisi Orangg'ozixon bu masalaga qat'iy qarshilik qiladi. Natijada aka-uka orasida doimo nizo chiqib, bunga Xiva xoni aralashib turadi.

⁷ “Фирдавс ул-икбол”, 293-бет.

⁸ “Фирдавс ул-икбол”, 294-бет.

⁹ “Фирдавс ул-икбол”, 297-бет.

Muhammad Rahimxon I faoliyatining o‘n ikkinchi yilida Orangg‘ozini jazolash uchun Suyunbiyni boshchi qilib, qoraqalpoq Davlatnazarbiy boshchiligidagi 8 ming kishini unga qo‘shib katta qo‘shin yuboradi. Ushbu qo‘shin Jonkent qal’asida Orangg‘ozining izidan yetadi. Natijada Orangg‘ozi qochib qutiladi. Xon lashkarlari ikki mingga yaqin kishini qatl qilib, 700 ayol-qizni asir qilib olishadi¹⁰.

Bundan sal oldin Orangg‘ozixonning inisi Nurum to‘ra Xonqaga hujum qilib, talonchilik ishlarini amalga oshirgan edi¹¹. Suyunbiy boshliq lashkarning Orangg‘oziga qarshi yurishining sabablaridan biri o‘sha hujumning intiqomi edi.

1818-yilda Xuroson ustiga uchinchi marta yurish uyushtiriladi. Ushbu yurishda xonning asosiy maqsadi Marv, Ashxobod hududlaridagi taka turkmanlarining o‘zboshimcha harakatlariga barham berish edi. Xon Marv, Lutfobod, Chilkon, Darband, Kovriz, Kaltachinor, Bardor, Hindvor kabi qal’a va qishloqlarni fath etadi. Shu jarayonda Axal takasi, Anav kadxudolari vakillari kelib xon xizmatiga tashrif buyuradilar va lashkarlari bilan yordam ko‘rsatadilar¹². Ushbu harbiy safar davomida xon Eron, Kurd va Afg‘on elchilarini ham qabul qilib, davlatlararo yaxshi munosabatlar o‘rnatish borasida kelishib oladi.

Muhammad Rahimxon I ushbu safarni yakunlagandan keyin ham, taka turkmanlari bilan tinch-totuv yashash imkoniyatlari ro‘yobga chiqmaydi. Takalar tinch aholini talash, yo‘llarda qaroqchilik qilish, karvonlarni talon-toroj qilishda davom etadi. Natijada Xiva xoni ularga qarshi yo‘vmit, chovdur sardorlari va boshqa lashkarboshilardan: Sori karnay, Shohniyozbek, Murod sardor, Olloshbiy, Qoqa sardor, qoraqalpoqlardan Davlatnazarbiy va boshqa qator lashkarboshilarni taka turkmanlariga qarshi yuboradi. Ular ham o‘z navbatida talonchilik, zo‘ravonlik tamoyilida ish tutishadi. Oqibatda xalqning iqtisodiy-madaniy ahvoli yomonlasha boradi.

Ikkinchi tomondan Sirdaryo bo‘yidagi qozoq urug‘lari o‘rtasida ham turli nizo va kelishmovchiliklar mavjud edi. O‘sha yillarda qozoq xonligi taxti

¹⁰ “Фирдавс ул-икбол”, 300-бет.

¹¹ “Фирдавс ул-икбол”, 298-бет.

¹² “Фирдавс ул-икбол”, 306-бет.

Shergʻozixononda edi. Ammo uning inisi Oranggʻozixon akasining Xiva xoniga itoat etishini yoqtirmas edi. Shu sababli xonlikda turli nizolar avj oladi. Bu nizolarni bartaraf qilish Xiva xoni zimmasiga tushar edi. Chunki ushbu qozoq xonligining vakillari bu masalada Muhammad Rahimxon I huzuriga kelishar edi. Xon esa bu masalaga aralashib, Shergʻozixonning mavqeini mustahkamlab, Oranggʻoziyga qarshi kurashni davom ettirib, uni qochib ketishga majbur qiladi.

Ogahiy ushbu mojarolarning barchasini koʻplab dalillar vositasida tarix sahifalariga muhrlaydi.

Tarixnavisning tasvirlashiga qaraganda, Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Eron shohlari, qozoq xonlari oʻrtasida doimiy ixtiloflar chiqib turgan. Xiva xonligi Muhammad Rahimxon I davrida mintaqadagi siyosiy-ijtimoiy ahvolga faol aralashadigan darajadagi nufuzga ega boʻlgan. Bu ixtiloflarda uchta davlat boshqaruvi oʻrtasida joylashgan taka turkmanlarining roli katta boʻlgan. Chunki ular muntazam ravishda bir davlatdan ikkinchi davlat tasarrufiga oʻtib turishgan. Shu bilan birga ular aksariyat hollarda talonchilik bilan shugʻullanishgan.

1821-yilda Xiva xoni Dashti Qipchoqda Oranggʻozi mojarosi bilan yurganida taka turkmanlari Hazoraspgga kelib, talonchilik va zoʻravonlik qilishadi. Bundan xabar topgan Muhammad Rahimxon I oʻsha talonchi taka turkmanlari Buxoro amiri Amir Haydar tasarrufidagi hududga tegishli kishilar ekanligidan ularga tanbeh berish va bunday talonchiliklarga chek qoʻyishni iltimos qilib, Berdi inoqni Buxoroga elchilikka yuboradi. Biroq Amir Haydar ushbu iltimosga avval rozilik bersa-da, uning bajarilishiga ahamiyat bermaydi. Keyinchalik unga bu borada yana bir bor eslatilganda istehzo, hazil aralash mujmal javob beradi va biz ularga tanbeh va jazo bera olmasmiz, kerak boʻlsa xon janoblarining oʻzlari ularni jazolasin, deydi¹³. Mana shu qaltis holatlar ikki davlat oʻrtasidagi ixtiloflarni oʻta keskinlashtiradi va Xiva xoni Buxoroga muntazam hujum uyushtira boshlaydi.

1822-yilda Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi oʻrtasida qattiq jang boshlanadi. “Ikki tarafdin ul miqdor toʻp otildikim, ovozi muhib sipehri barin

¹³ “Фирдавс ул-икбол”, 321-бет.

qulogʻi asm qildi. Dudi zulmat andud ul mushobih havogʻa yuz urdikim, oftobi olamtob chehrasin yashurdi”¹⁴.

Bu jang yakunidan keyin, shu yili ramazon oyida Amir Haydarning oʻgʻli Umarxon boshchiligidagi lashkarlar bilan yana katta toʻqnashuv boʻlib oʻtadi. Shu jarayonda bir qancha turkman urugʻlari Xiva xonidan omonlik tilab taslim boʻlishadi.

Forob, Maymana, Qorakoʻl viloyati oqsoqollari xon oldiga kelib, uzrxohlik qilishadi¹⁵.

Albatta, Xiva xoni qoʻshinlari orasida ham halok boʻlganlarning soni behisob edi. Ularning koʻpgina qismi daryoga gʻarq boʻlib dunyodan koʻz yumdilar.

Xiva xonining Buxoro bilan urushi muntazam davom etadi.

Muhammad Rahimxon 1 1823-yilda yana Buxoroga yurish uyushtirdi.

Bu safar u hujumni Qoqishtuvon qalʼasidan boshlaydi. Qatliom va vayronagarchilikning oldini olish uchun qalʼa hokimi Iskandarbek bir guruh aʼyonlar bilan xondan uzrxohlik tilaydilar. Xon esa ularni afv qilib, biror narsasiga daxl qilmaydi¹⁶.

Ogʻor qoʻrgʻoni aholisi taslim boʻlishni istamasdan jangga kirishadi. Ikki oʻrtada shiddatli jang-u jadal davom etadi. Ogahiy bu yerdagi manzaraning sheʼriy misralar orqali real tasvirini beradi:

Boʻlub siynalar tigʻi tez ila chok,
Badanlar tushub yer uza mismi xok.
Boʻlub gard boshlar oyoq ostida,
Qurugʻ donadek yorgʻuchoq ostida.
Birovgʻa tushub oʻgʻlining motami,
Birovgʻa ota motamining gʻami.
Asir oʻlubon barcha ahli ayol,
Talogʻgʻa borib jumla ashyovu mol.

¹⁴ “Фирдавс ул-икбол,” 329-бет.

¹⁵ “Фирдавс ул-икбол,” 339-бет.

¹⁶ “Фирдавс ул-икбол,” 343-бет.

Figʻonlar chiqib, avji afloqgʻa,
Tushub larzalar bikri xokgʻa.
Qiyomat kuni oshkoro boʻlub,
Fuzun balki andin alolo boʻlub.¹⁷

Ogahiy sheʼriy tasvir bilan birga urushning ayanchli manzaralarini qalamga oladi. Muhammad Rahimxon I jang-u jadal bilan Buxoro shahriga yaqinlashib boradi. Shaharga hujum uyushtirish uchun reja tuzadi. Biroq, Amir Haydar bu paytda lashkarlari bilan birga Samarqandga ketgan boʻladi. Shu sababli himoyasiz shaharga kirishni yarashmaydigan ish hisoblab, oʻz raʼyidan qaytadi va Xivaga qarab yoʻl oladi¹⁸.

Muhammad Rahimxon I ushbu yurishidan ikki oy oʻtgach, yana Chorjoʻy viloyatiga yurish boshlaydi. Yurish jarayonida koʻplab vayronagarchiliklar yuz beradi. Taslim boʻlgan qalʼalar aholisini sal ilgari oʻz tasarrufiga oʻtkazilgan Marv viloyatiga koʻchiradi¹⁹.

Oʻz navbatida Buxoro amiri ham Xiva xonligi hududiga talonchilik, zoʻravonlik bilan shugʻullanuvchi guruhlarini yuborib turadi.

Xiva xoni hali oʻz poytaxtiga qaytmasdan burun Amir Haydar chovdir turkmanlarining arobachi tiyrasidan chiqqan Muhammad Berdibek boshliq 100 otliqni Xorazm tomonga joʻnatadi. Ular qaroqchilik, talonchilik bilan shugʻullanib, uch-toʻrt kishini oʻldirib, qochganligi xonga maʼlum boʻlgach, qaroqchilarni tutishga harakat boshlashadi. Ularning izidan quvib, Muhammad Berdibekni uxlab yotgan joyida qoʻlga olishadi. Qolganlarni Xolotogʻacha quvib, ulardan uch-toʻrt kishigina qutilib qoladi²⁰.

1825-yilda Xiva xoni Karki atrofiga Saidniyoz ushoq va Yorquli pahlavonlar boshchiligida qoʻshin yuboradi. Sal oʻtmay Olloshbiy Poykand qalʼasini bosib olib, uning aholisini xon farmoniga muvofiq Xorazmning Hiloli mavzeiga koʻchiradi²¹.

¹⁷ “Фирдавс ул-икбол”, 344-бет.

¹⁸ “Фирдавс ул-икбол”, 344-бет.

¹⁹ “Фирдавс ул-икбол”, 346-бет.

²⁰ “Фирдавс ул-икбол”, 350-бет.

²¹ “Фирдавс ул-икбол”, 352-бет.

Shu tariqa Xiva xoni va Buxoro amiri o'rtasidagi ixtiloflar uzoq davom etadi. Oqibatda oddiy fuqaroning boshi fojeadan chiqmaydi. Ogahiy bu voqealarni tasvirlaganda asosan Xiva xoni faoliyatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Uning qilgan xunrezliklarining real tasvirini berar ekan, go'yo xonning zafarli yurishiga baho berganday bo'ladi. Biroq, ushbu voqealarni o'qigan kishi o'sha davrda faoliyat yurgizgan amaldorlarga o'zining haqiqiy bahosini bera oladi. Tarixnavis xonning jang-u jadal olib borishi, shafqatsizligi, o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmasligi xususida so'z yuritish bilan birga ba'zan uning adolatpeshaligi, rahmdilligi va tantiligi haqida ham ayrim lavhalarni berib o'tadi. Masalan, Xiva xonining 1822-yildagi yurishining 37-kuni iydi ramazon arafasiga to'g'ri keladi. O'sha munosabat bilan u Forobning Qulonchi qishlog'idan keltirilgan barcha asirlarni, mol-mulki bilan o'z makonlariga qaytarib yuboradi²².

Darband va Lutfobod qal'alariga hujum uyushtirib, ko'plab asirlarni qo'lga olganda, taka turkmanlaridan asir tushgan bitta yigitning onasi xondan o'g'lini kechirishni iltimos qilib keladi. O'sha kekxa kampirga achinib, xon o'g'lini unga baxsh etib, yana sarupolar kiydirib jo'natib yuboradi²³. Xon o'z lashkarlari orasida ham qat'iy tartib o'rnatgan edi.

1818-yilda Oxal takalariga qarshi yurishda Anov atrofida xon lashkarlaridan ba'zilar xondan beruxsat aholining bog'-rog'larini talon-toraj qilishadi. Bu masalada mahalliy bog' egalari xonga shikoyat qilganda Muhammad Rahimxon I tartibsizlik qilganlarni qattiq jazolaydi va ozor chekkanlarga in'omlar beradi²⁴.

1819-yilgi Dashti Qipchoq yurishida Oqyoqish atrofida Morqoy degan mavzeda to'xtaganda, xon lashkarlaridan bir guruhi bozorga qo'y olib borayotgan bitta qozoqning mollarini talon-toraj qilishadi. Xon bu voqeadan xabar topgach, aybdorlarni jazolaydi va qo'ylarni egasiga qaytartiradi²⁵.

Muhammad Rahimxon I hayotidagi bunday xalqparvarlik xususiyatlari uning harbiy yurishlaridagi xunrezliklari oldida hech narsaday ko'rinmasa-da,

²² "Фирдавс ул-икбол", 338-бет.

²³ "Фирдавс ул-икбол", 307-бет.

²⁴ "Фирдавс ул-икбол", 340-бет.

²⁵ "Фирдавс ул-икбол", 318-бет.

Ogahiy uning qalbida ham insoniy tuyg'ularning, ezguliklarning mavjud ekanligini ta'kidlamochi bo'ladi.

3.2. Xonlikda madaniy hayotning yuksalishi, arxitektura va sug'orish tizimini yanada rivojlanishi.

1819-1820-yillarga kelib, mamlakatda ma'lum darajada barqarorlik vujudga keldi. Natijada, xonlik hududida madaniy-iqtisodiy hayot yangi pog'onaga ko'tarildi. Mirzo Masiho boshchiligidagi adabiy harakatchilik gullab-yashnadi. Ko'plab qurilish, ta'mirlash ishlari keng ko'lamda olib borildi.

Muhammad Rahimxon I ziyoratgohlarga tashrif buyurish, ularni ta'minlash ishlariga ham katta e'tibor qaratdi. U xonlik hududida ham boshqa hududlarda ham biror ziyoratgohga qadam ranjida qilsa, u yerda qur'on tilovot qilish, xayr-sadaqa berish udumiga qat'iy rioya qiladi. Ismi Mahmud, Shayx Jalil, Najmiddin Kubro, Hakim ota va boshqa ziyoratgohlarda bo'lib, u yerlarni obod qilishga hissa qo'shadi. Ogahiy Muhammad Rahimxon I faoliyatini yoritishda faqat uning harbiy yurishlarinigina emas, balki mamlakatning ichki ahvoli, xalq farovonligini yuksaltirishdagi xonning tutgan o'rnini ko'rsatishga ham e'tibor qaratadi.

Ma'lumki, Xorazmda asosan dehqonchilik rivojlangan bo'lib, uning negizida sug'orish masalalari asosiy o'rinni egallagan. Shu boisdan mamlakat rahbarlari irrigatsiya tizimiga alohida ahamiyat berishgan. Bu tamoyil Muhammad Rahimxon birinchi davrida ayniqsa rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan. Muhammad Rahimxon I taxtga o'tirgandan keyin, asosiy diqqatni sug'orish tizimlarini yangilash, qayta ta'mirlashdan boshlaydi.

1815-yilda Xorazmning shimoliy hududlarini suv bilan ta'minlashni yaxshilash uchun Gurlanning qibla tomonidan katta bir ariq barpo qilishni o'z inisi Muhammad Nazarbekka topshiradi²⁶.

Bu anhor haligacha Qilichniyozboy arig'i nomi bilan mashhurdir. Muhammad Rahimxon I xonlik hududidagi ariqlarni (yop) har yili tozalab qazdirishda o'zi shaxsan qatnashgan. Shu yili u dastlab rabi'ul oxir oyida

²⁶ "Фирдавс ул-икбол", 291-бет.

Xivaning, jumodi-ul avval oyida Shovot ariqlarini qazishda shaxsan o'zi ishtirok etadi. Xiva xoni Marv viloyatini o'z tasarrufiga o'tkazgandan keyin, uning sug'orish shoxobchalariga ko'proq e'tibor qaratadi. 1824-yilda Marvdagi suv shoxobchalarini izga solish uchun Qutlimurod inoqni yuboradi. Daryoga band bog'lab, suvni dehqonchilik ishlariga sarflash uchun katta kuch tashlanadi. Biroq ikki marta bog'langan bandni suv yuvib ketadi. Xon Qutlimurod inoq ixtiyoriga yana qo'shimcha kuch yuboradi. Oxir-oqibat band bog'lanib, boshlangan ish muvaffaqiyat bilan nihoyasiga yetadi.²⁷

Tarixnavis voqealar silsilasini bayon etganda etnografik ma'lumotlarni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Kitobning ayrim qismlarida to'y va aza tavsiflari qiziqarli lavhalarda o'z ifodasini topgan. Xon 1813-yilda o'g'li Rahimquli to'raning sunnat to'yini o'tkazadi. To'yboshi qilib, Muhammad Yusuf mehtarni belgilaydi.

Tarixnavis to'yda: "choyu qandin va halvoi shirin va nisholai jonfizo va murabboihalovat intimo va mevai vofira va favokihi mutakosira va qandi beg'oyat va nuqli benihoyat va shakari mavfur va naboti mahsur, bo'shqobi zarrin va shirai ranginlar bila chektilarkim, borining te'dodida aql hayron va ko'ngil xurosondir", deydi²⁸.

Sozandalar haqida quyidagi misralarni bitadi:

Tuzub soz har sori sozandalar,

Kirib raqsga necha bozandalar.

Muhayyo bo'lub borchas asbobi aysh,

Ochildi xaloyiqg'a abvobi aysh²⁹.

Tarixnavis to'y tasvirini berar ekan, Xorazmdagi to'y bilan aloqador barcha udumlarga batafsil to'xtaladi. Ot poygasi manzarasi haqidagi ma'lumot diqqatga loyiqdir. O'sha davrdagi poygada "Ulug' otni bir boshqa va g'unonni bir bo'lak va

²⁷ "Фирдавс ул-икбол", 349-бет.

²⁸ Ўша манба. 281-бет.

²⁹ Ўша манба, 281-бет.

toyni bir boshqa ayirib”³⁰ (“Фирдавс ул-икбол”, 282-бет) musobaqani tashkil etishar ekan.

To‘y davomida pahlavonlar kurashi, “oltin qovoq”-merganlar musobaqasi ham tarixnavis e’tiboridan chetda qolmagan. Uning ko‘rsatishicha, to‘y o‘n kun davom etgan. To‘y nihoyasida xon a‘yonlarining xizmat darajasiga qarab ularning barchasiga sarupoy kiydirib, beliga xanjar taqqan. Ayrimlariga arabi ot mindirgan. Binobarin, “Fuqaro va masokindin bir kishi qolmadikim, har kim o‘z xo‘rdu holig‘a ko‘ra sarupoy kiyib, navozishoti xisravonadin sarbaland va bahramand bo‘lmag‘an bo‘lg‘ay”³¹. Tarixiy asar sahifalarida turli fojealar, bevaqt ajal changaliga tushish kabi lavhalar ham anchani tashkil etadi. Ogahiy bunday holatlarni achinish bilan tilga oladi. Shulardan biri Qutlug‘murod inoqning vafotidir. Xon inoqni Marvga daryoga band bog‘latish, aholini suv bilan ta‘minlashni yaxshilash uchun yuborgan edi. Inoq bu vazifani nihoyasiga yetkazish arafasida kasalga chalinadi va vafot qiladi. Uning jasadini Xivaga olib kelganda “Shahardin ulamoi i‘zom va umaroyi kirom va oliymakon shahzodalar va garduntovon beklar va jami ulug‘ va kichik istiqbolig‘a chiqib, izdehomi tamom bila nolayu nafirni sipehri asir qulog‘ig‘a yetkurib, rusumi shohona va e‘zozi xusravona bila nuqudi farovon va javohiri bepoyon va laoli bekaronni ul janob na‘shig‘a sochig‘lar sochib, hujumi tamom va g‘avg‘oyi molokalom bila shaharga kelturib, o‘zining madrasasidakim, Xivaq shahrida hanuz aningdek imorati oliy bino topmamish erdi, sanai 1226 da, qo‘y yili bino qildirib, o‘ziga maxsus bir joy tuzatturmish erdi, ul joyda dafn qildilar”³².

Ogahiyning ushbu tavsifida tobut ustidan sochig‘lar sochish udumining mavjudligi e’tiborni tortadi. Bu udum Xorazmning ayrim joylarida hozirgacha saqlangan.

Ogahiy Muhammad Rahimxon I ning binolar barpo etishi, bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazishi kabi voqealarga ham asardan o‘rin ajratgan.

³⁰ Ўша манба, 282-бет.

³¹ Ўша манба, 283-бет.

³² Ўша манба, 349-бет.

Muhammad Rahimxon I aksariyat hollarda harbiy yurishlardan keyin shikorga chiqish - ov ovlashga ishtiyoqmand bo'lgan. Xonning o'zi mohir chavandoz va salohiyatli mergan bo'lgan. U mamlakatning turli mintaqalarida ov ovlash bilan shug'ullangan. U 1825-yilda Qo'ng'iro't hududiga shikorga chiqadi. Bu uning oxirgi shikori edi. O'sha shikor paytida u kasalga chalinadi. Bu paytlarda Muhammad Rahimxon I davlat arbobi sifatida o'zini to'la namoyon qila olgan edi. Shu sababli qo'shni davlatlar Eron, Xuroson, Buxoro va boshqa davlatlar Xiva xonligi bilan yaxshi munosabatlarni tiklashga harakat qiladilar. Muhammad Rahimxon I ham bunday munosabatlarga ijobiy yondashdi. Xususan, Buxoro amiri Amir Haydar o'sha paytda Xiva xoniga maxsus maktub bilan murojaat qildi. Buni Ogahiy quyidagicha yozadi: "Hazrati sohibqironi jannatnishonning davlati qohira va hikmati mutakosirasining muovidat va madadkorligi bila ko'p yillardin beri Xorazm shujo'asi paydarpay chopovullar urub, Buxoro muzofotidin ko'p qal'a va ko'p ellarni xarob va nobud qildilar. Andog'kim, har oyda uch yo to'rt martaba bul viloyatni atrofi javonibdin sheri g'arron va baloyingohon yanglig' doxil bo'lub, qatl va toroj amrida daqiqai nomarr'i qo'ymadilar. Yaqin erdikim, sipohi nusratpanohning tundbodi turktozidin Buxoro momoliki xarob va vayron bo'lg'ay"³³.

Ushbu vayronagarchiliklar, har ikkala tomonda beriladigan qurbonlar ikki davlatni ham bezdirgan bo'lsa kerakki, amir va xon oxir-oqibat yarash sulhi tuzish fikriga kelishadilar.

Amir Haydar Muhammad Rahimxon I ga quyidagi mazmunda maktub yuboradi: "Oliyhazrat, sipehr martabat, iskandarshavkat, sulaymon hashmat birodari gilomining zamiri bayzo taxmirlariga makshuf bo'lsinkim, biz xud barcha qilg'on muxolifat va kirdori nopasindidimizdin nodim va pushaymon bo'lub, muvofiqligi arvatul vasqiysig'a ixlos va e'tiqod qo'lin yetkuribmiz. Ul hazratdin iltimosimiz bukim, alar dag'i xotiri xatirlaridin barcha qudurotni raf' qilib, Buxoro muzofoti chopovulig'a olomon buyurmasalar. Tokim, fuqaro va rioyo forig'ulbor va marfaulg'or bo'lg'aylar. Agar maqsadlari Buxoro shahrining taxsiri bo'lsa,

³³ Ўша манба, 354-бет.

aning zimomi hukumat va inoni amoratin ham ul hazratning qabzai qudratig'a tafriz qilduk. Agar shahardin chiqsun deb amr qilsalar, jong'a minnat tutub, farmoni lozimulintinon mavjubi bila amal qilali"³⁴.

Ushbu maktub xon qo'liga kelib tekkanda uning kasalligi ancha kuchaygan edi. Ammo xon ushbu maktubni olgach, o'zaro yarash sulhiga rozi bo'lib, o'z a'yonlaridan Norbek degan shaxsni Buxoroga vakil sifatida jo'natadi.

Bu voqeadan sal o'tmay, Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Tarixnavisning xon haqida yozganlari to'g'ri bo'lib, Muhammad Rahimxon I Xivaning so'nggi xonlari orasida alohida ajralib turadi. U ko'pgina irrigatsiya shoxobchalarini ta'mirlatadi va yangi kanallar barpo qilib, xonlikda dehqonchilikning ravnaq topishiga yo'l ochdi. U ko'pgina binolarning barpo bo'lishida tashabbus ko'rsatadi. Toshhovuzda qal'a qurish uchun yer ajratdi. Har bir mintaqada xon uchun maxsus hovlilar barpo qiladi. Sayod, Gandumkon hovlilarini shaxsan o'zi rahbarligida qurdiradi. Pahlavon Mahmud xonoqosi ansamblini qurdiradi va o'zi ham o'sha joyga dafn etiladi³⁵.

Tarixnavisning ta'kidlashicha, uning davrida fuqaro osuda hayot kechirib, ilm-u fazlga ixlos ko'rguzdi. Uning suhbatlarida dashnom bo'lmas, aksar majlislarda ulamo va fuzalo, zurafo va shuaro bilan hamnishin bo'lib, kitobxonlig', ma'nishunoslik va latifago'ylikdin o'zga ishga mayl qo'ymas erdi³⁶.

Ogahiy o'z asarini Muhammad Rahimxon I faoliyatini yoritishga bag'ishlagan bo'lishidan qat'iy nazar, uning barcha shaxsiy xarakter-xususiyatlarini yoritishga alohida e'tibor bilan qaramagan. Xonning Ogahiy tilga olmagan ayrim fazilatlarini o'sha davrda Xiva xonligiga safar bilan kelgan rus zobiti N.Muravyov yozib qoldirgan. Biroq rus zobiti xonning fazilatlarini aytishdan avval uning kamchiliklari haqida so'z boshlaydi: "Muhammad Rahimxon salohiyatli, ayni paytda shuhratparast, vahshiylarcha beshafqat, gumondor, mansabparast, g'arazgo'y, epchil, jasur, odatdan tashqari pishiq-puxta hukmdor. Shu bilan birga u ma'rifatli, o'z ona tilidan tashqari arabcha, forsha

³⁴ Ўша манба, 354-бет.

³⁵ Ўша манба, 355-бет.

³⁶ Ўша манба, 333-бет.

soʻzlasha oladi, hatto shu tillarda oʻqiydi va yozadi ham. Oʻz navbatida u munajjimlik va tabobat sanʼatini ham egallagan. Shaxmat oʻynashni yoqtiradi, bu oʻyinni u mukammal oʻzlashtirgan”³⁷.

Muhammad Rahimxon I xonlikni boshqarishda asosan oʻz inilari Qutlugʻmurod inoq va Muhammadnazarbeklarga tayangan. Shu bilan birga vohada birgalikda yashaydigan turkman, qoraqalpoq xalqining obroʻli, salohiyatli vakillarini ham nazardan chetda qoldirmagan. Qoraqalpoq bahodirlaridan: Shohniyozbiy qoraqalpoq, Davlatnazarbiy, Toʻlagan yuzboshi, Toʻrabek yuzboshi, Oymirzabiy, Doʻsimbiy, Qodirberdibiy, Qulyumribiy, turkman bahodirlaridan: Murod sardor, Suyun bahodir, Qoqa sardor, Mengli Ali sardor kabi shaxslarni u hamisha hurmat qilgan va qaltis paytlarda ularga tayanib, mamlakatni boshqargan³⁸. Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” asarini yozishda Munis anʼanalarini izchil davom ettirgan. Muhammad Rahimxon I ning faoliyatini yilma-yil, oyma-oy, baʼzan kunma-kun boʻlib oʻtgan voqealar bayoni orqali aks ettirgan. Har bir voqeaga mos holda qurʼon oyatlaridan dalillar keltirgan. Eng asosiysi, tarixiy asarning oʻqimishlilik va taʼsirchanligini taʼminlash maqsadida sheʼriy asarlarga, ayrim rivoyat va naqlarga murojaat etgan.

Aslida bu anʼana Abu Rayhon Beruniy asarlariga xos uslubdir. Buyuk olimning oʻzi bu haqida shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz oʻquvchini toliqtirib qoʻymaslikdir. Ha deb bir narsani oʻqiy berish zerikarli boʻladi va toqatni toq qiladi. Agar oʻquvchi bir masaladan boshqa bir masalaga oʻtib tursa, u xuddi turli-tuman bogʻ-roqʻlarda sayr qilgandek boʻladi, bir bogʻdan oʻtar-oʻtmas, boshqa bogʻ boshlanadi. Kishi ularning hammasini koʻrgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa rohat bagʻ ishlaydi”, deb behuda aytilmagan³⁹.

Munis va Ogahiylar ham hatto ulardan burungi Abulgʻoziy Bahodirxon ham tarixiy asarlar yozishda oʻsha uslubga rioya qilishgan.

Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarining oʻzi yozgan qismida sheʼriy janrlarga eʼtibor qaratishda ustoz Munis izidan borgan.

³⁷ Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 г. М., 1822. – стр. 53-55.

³⁸ Ўша манба, 330-бет.

³⁹ Беруни. Избранные произведения, том I. - Т.: 1957. – стр. 89.

Tarixiy asrning Ogahiy qalamiga mansub qismida 58 ta masnaviy, 10 ta nazm, 6 qit'a, 1 munojot, 7 bayt, 1 ruboiy, 1 ta'rix, 2 fard ishlatilgan. Bu janrlarning orasida masnaviylar eng faol she'riy janr bo'lib, ularning hajmi 840 misrani tashkil etadi. Barcha she'riy misralarning umumiy soni 1100 dan oshadi.

Ogahiyning masnaviy janriga ko'proq ahamiyat berishining asosiy sababi, bu janrda epiklik xususiyatining kuchliligidir. Boshqacha aytganda, bu janrda voqeani bayon qilishga qulaylik mavjud.

Nazm deb nomlangan she'riy parchalar ham asosan masnaviy janriga mos keladi. Bu janrda ham voqeani masnaviy shaklida bayon etish asosiy xususiyat hisoblanadi.

Ogahiy ushbu janrlardan tarixiy asarning o'sha janrlarga ehtiyoj tug'ilgan o'rinlarda foydalangan. Masalan, asardagi voqealarni Munisga tegishli qismidan keyin davom ettirar ekan, bu ishga qo'l urayotganda xudoga hamdu sano aytadi. Natijada munojot janriga murojaat qilishiga to'g'ri keladi:

Ilohiy man ojizu benavo,

Tuganmas ish etgumdurur ibtido.

Hazin xotirimni yetur komig'a,

Ki, ishim yetkur anjomig'a⁴⁰.

Har bir ishga qo'l urganda munojot janriga murojaat qilish Sharq adabiyoti va tarixnavisligida qadimiy an'anadir.

Ogahiy tarixiy voqealarni sharhlar ekan, biror bir muhim hodisa tavsifidan keyin ibratomuz xalqona fikr bilan uni yakunlab o'tadi. Bunday o'rinlarda u bayt janridan foydalanadi. Chunki bu janr qissadan hissa chiqarishga juda qulay keladi. Tarixnavis Muhammad Rahimxon I hukmronligining 13–yili voqealarini tasvirlab, Sunbor sardorning takalar beboshligiga qarshi yurishi haqida so'z yuritadi. Sardor qo'shni Mahin va Durun atroflariga borganda, bularning xabari bu joyga sal burun yetib kelib, barcha xaloyiq mol-u mulkini tashlab qochib ketgan bo'ladi. Sunbor sulton kishilari tayyor o'ljaga ega bo'lishadi. O'sha joyda tarixnavis voqeaga mos quyidagi baytni keltiradi:

⁴⁰ “Фирдавс ул-икбол”, 279-бет.

Berur o'lsa agar xudo qo'lig'a,
Matlabin kelturub qo'yor yo'lig'a⁴¹.

Tarixnavis biror voqeani falsafiy g'oyalar orqali yakunlamoqchi bo'lsa, ruboiy janriga, voqea yakunini olqishlamoqchi bo'lsa, qisqagina fard janriga, biror qat'iy fikrni ta'kidlamoqchi bo'lsa, qit'a janriga murojaat qiladi.

Tarixnavis qo'llagan janrlar orasida eng murakkabi ta'rixlardir. Ma'lumki, tarixiy asarlarda muhim voqealar harflarga jo bo'lgan raqamlar vositasida qayd etiladi. "Firdavs ul-iqbol"ning Ogahiy yozgan qismida ham Munis qalamiga mansub ikkita ta'rix kiritilgan bo'lib, ular Sultonmirob vafotiga bag'ishlangan.

Uchinchi bob yuzasidan quyidagi qisqa xulosalarga kelish mumkin:

1. Muhammad Rahimxon I faoliyatining so'nggi yillarida mamlakatning hududiy yaxlitligi ta'minlandi. Uning qo'shni davlatlar va chet ellar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalari rivojlandi.
2. Mamlakatda osoyishtalikning yuzaga kelishi, madaniy hayotning yuksalishiga imkoniyat yaratdi. Xivadagi adabiy muhit, kitobatchilik yangi bosqichga ko'tarildi, ko'plab madrasalar, ko'priklar qurildi, sug'orish inshootlari barpo qilindi.
3. Ogahiy Munis boshlagan monumental asarni ustozining uslubini saqlagan holda, mukammal darajada yozib tugalladi, shu jarayonda xonlikda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni to'laligicha kitob sahifalariga ko'chirdi. Bu asarni yozish jarayoni Ogahiyning tarixnavislikka bo'lgan havasini kuchaytirdi va kelajakda yaratadigan tarixiy asarlarining ro'yobga chiqishida tagzamin bo'ldi.
4. Ogahiy "Firdavs ul-iqbol" asarini tugallar ekan, eski o'zbek adabiy tilini yanada boyitishga va o'zbek ilmiy-adabiy nasrining rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.
5. Xiva xonligi tarixini yozar ekan, o'z navbatida qardosh turkman, qoraqalpoq, qisman qozoq xalqlari tarixining muhim qirralarini ham nazardan chetda qoldirmadi.
6. Asarda ko'plab afsonalar, rivoyatlar va boshqa adabiy janrlarga murojaat qildi, ko'pgina adiblar hayotiga oid qiziqarli lavhalarni yozib qoldirdi.

⁴¹ "Фирдавс ул-иқбол", 342-бет.

7. Tarixiy voqealarni yozish jarayonida ko‘plab etnografik ma’lumotlarni, vohadagi hayvonot olami, parrandalar dunyosi, turli tabiat manzaralari tasvirini ham kitob sahifalariga muhrladi. Shevaga xos so‘zlar, toponimika, onomastikaga aloqador ko‘plab noyob materiallarni meros qilib qoldirdi.

XULOSA

“Firdavs ul-iqbol” bebaho tarixiy adabiy manbadir. Xorazm tarixnavisligida mashhurlik qozongan Munis va Ogahiyalar ushbu asarni ro‘yobga chiqarishda o‘zlarining barcha iste‘dod va mahoratlarini namoyish etganlar.

Biz tadqiq qilayotgan mavzu – Muhammad Rahimxon I davridagi voqealar silsilasi har ikkala tarixchi bayonida o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Ular bayon qilgan tafsilotlar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Shermuhammad Munis Muhammad Rahimxon I faoliyatining 7 yillik davrini tarix sahifasiga tushirgan. Ushbu davr Xorazm xonligi tarixida o‘zining eng qaltis va murakkabligi bilan alohida ko‘zga tashlanadi.

Muhammad Rahimxon I zimmasiga mamlakat sarhadlarini mustahkamlash, kuchli davlat siyosatini shakllantirish, turli ayirmachilik, guruhbozlik, sotqinlik kabi ichki nizolarga barham berish, mamlakat mudofaa quvvatini yuksaltirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish vazifasi tushdi va u ushbu masalalarni oqilona hal qildi.

2. Xon mamlakatdagi urug‘ va qabilalarni barlashtirish, davlat ishlarini bamaslahat yurgizish maqsadida Oliy kengash ta‘sis qildi.

Xiva xonligining ichki ishlariga aralashish payida bo‘lgan ayrim davlatlar siyosatiga qat‘iy qarashlik ko‘rsatdi. Natijada uning siyosati qator davlatlar tomonidan e‘tirof etilib, diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yildi. Iqtisodiy-madaniy aloqalar doirasi tobora kengayib bordi. Bu holat mamlakat iqtisodiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

3. Xiva xonligida o‘zbek, turkman, qoraqalpoq va boshqa qator xalqlar istiqomat qilganligi uchun millatlar birligini ta‘minlash murakkab masalalardan biri edi. Xon ushbu muammoni hal qilishda ham muhim qarorlar qabul qildi. Harbiy yurishlarda o‘sha millatlar lashkarboshilariga tayanib, ish tutdi. Biroq, feodalizmning talab va ehtiyojlari yovuzlik va bosqinchilik kabi illatlarni amalga oshirishni taqozo qilar edi. Shu sababli Muhammad Rahimxon I ham o‘sha davr hukmdorlariga xos tamoyilda faoliyat yuritdi.

4. Munis xon faoliyatining 7 yillik muddatida bo‘lib o‘tgan voqealarni tasvirlar ekan, hamisha haqiqatgo‘ylik asosida ish ko‘rdi. U o‘z hukmdorining qilgan barcha xunrezliklarini, yaxshiliklari-yu yovuzliklarini ro‘y-rost bayon qildi. Ko‘plab ko‘ngilsiz voqealarni tasvirlar ekan, o‘zining achinish kayfiyatlarini she‘riy bayon orqali aks ettirdi.

Munisning yozishiga qaraganda, xon dastlabki 7 yilda mamlakatning ichki va tashqi siyosatida muayyan muntazamlikni ro‘yobga chiqara oldi.

5. Muhammad Rahimxon I faoliyati Ogahiy tomonidan yoritilganda ham Munis boshlagan tamoyil asos qilib olingan. Unda haqiqatgo‘ylik va xolislik yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu asarni davom qildirib, oxirgi nuqtani qo‘yish Ogahiyning tarixnavislik faoliyatini boshlashda debocha bo‘lib xizmat etdi. Uning tarixnavislikka bo‘lgan havasini yuksaltirdi va kelajakda yaratadigan tarixiy kitoblarining yuzaga chiqishida tagzamin bo‘ldi.

Ogahiy Muhammad Rahimxon I faoliyatini yozib oxiriga yetkazar ekan, har bir voqea-hodisani batafsil va real tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

6. Tarixchi Xiva xonligi tarixini yozar ekan, vohada yashovchi turkman va qoraqalpoq, qisman qozoq xalqlari tarixining muhim qirralarini ham tarix sahifalariga muhrladi.

Xonning har bir millat lashkarboshilariga bo‘lgan munosabatlarini to‘g‘ri yoritib berdi.

Urush-savashlar, chopovullar, bu ofatlarning oddiy xalq boshiga solgan azob-uqubatlari tarixnavis tomonidan real kartinalarda, ayniqsa, she‘riy parchalarda to‘la tasvirlab berilgan. Ayniqsa, tashqaridan bo‘lgan bosqinchiliklar va uning oqibatlari real tasviriga ega bo‘lgan.

7. Har ikkala tarixnavis xulosasiga ko‘ra, Muhammad Rahimxon I o‘z akasi Eltuzarxon belgilab bergan siyosatni izchil davom ettirdi. Tashqi va ichki siyosatni muntazamlashtirdi. Iqtisodiy-madaniy hayot jonlandi. Ko‘plab irrigatsiya shoxobchalari qurildi. Yangi madrasalar, shaharchalar barpo etildi. Oxir-oqibat qo‘shni Buxoro amirligi bilan ham yaxshi aloqalar o‘rnatildi. Qo‘ng‘irotdagi

To‘ramurod so‘fi ayirmachiligiga barham berildi. Mamlakatda nisbatan tinch hayot yuzaga keldi.

8.“Firdavs ul-iqbol” asarining yozilishi Xorazm tarixini yuzaga chiqarishgina bo‘lib qolmay, eski o‘zbek adabiy tilining boyishiga, milliy nasrning rivojlanishiga ham muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning tarkibidagi adabiy janrlar, adiblar haqidagi ma’lumotlar adabiyot tarixi uchun ham qimmatli ma’lumot berishi bilan muhimdir. Tarixiy voqealarni yozish jarayonida ko‘plab etnografik ma’lumotlar, vohaning hayvonot nabotot olami yozuvga ko‘chdi. Shevaga xos so‘zlar, toponimika, onomastikaga aloqador ko‘plab so‘zlar avlodlar uchun muhim manba bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

- 1.Каримов И.А. Танланган асарлар. -Т.1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17.- Тошкент, “Ўзбекистон”, 1990-2009.
- 2.Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. т.4. Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
- 3.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
- 4.Каримов И.А. Хиванинг 2500 йиллиги муносабати билан сўзланган нутқи. “Урганч университети” газетаси, 1997 йил, 20 октябр.
- 5.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент, “Шарқ”, 1998.
- 6.Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: “Маънавият”, 2008.
- 7.Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т., “Ўзбекистон”, 2009.
- 8.Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. Т., “Ўзбекистон” 2010.
- 9.Каримов И.А. Биз бағрикенг ва ҳамдард халқмиз. “Андижон нашриёт матбаа” Маъсулияти чекланган жамият. 2010.
- 10.Каримов И.А. Ҳамкорлик, тараққиёт ва хавфсизликни таъминлаш йўлида. БМТ Бош Ассамблеясининг минг йиллик ривожланиш мақсадлари бўйича олий даражадаги ялпи мажлисидаги нутқи. // Халқ сўзи. – Т., 2010. – № 183.
- 11.Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. “Ўзбекистон овози”. – Т., 2010. – № 132.
- 12.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: “Ўзбекистон”, 2011.

II. Manba va adabiyotlar:

- 1.Баёний М. Шажараи Хоразмшохий. -Т.: “Мерос”, 1991.
- 2.Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. -Л.: 1927.
- 3.Бартольд В.В. Сочинения. Т. 2. ч.2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. –М.: 1964.
- 4.Беруни, Избранные произведения, том I. - Т.: 1957.
- 5.Бекмухаммад У. Хоразмга ошуфта кўнгиллар. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2012.
- 6.Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. –Т.: Институт истории народов средней Азии им. Махпират, 2007.
- 7.Жумахўжа Н. “Фирдавс ул–иқбол”-улкан қомусий, тарихий, адабий манба. “Фирдавс ул–иқбол” –Т.: “Ўқитувчи”, 2010.
- 8.Иванов П.П. Архив хивинских ханов XIX-в –Л.: 1940.
- 9.Иванов П.П. Очерки истории по Средней Азии. XVI-середина XIX в.в. –М.: изд. Вост. Лит., 1958.
- 10.Карриев Б.А. Эпические сказание о Кёроғлы у тюркоязычных народов. – М.: “Восточная литература”, 1968.
- 11.Кун А.Л. Заметки о Хивинском ханстве. Туркестанские ведомости, 1873, №40.
- 12.Кун А.Л. Поездка по хивинскому ханству в 1873 году. Известия русского географического общества. С.Петербург, 1874, т.X, вып. 2.
- 13.Материалы по истории туркмен и Туркмении. Труды Института Востоковедения. Т. XXIX Источники по истории народов СССР. –Т.2 Иранские, бухарские и хивинские источники. –М.: -Л.: 1938.
- 14.Материалы по истории казахских ханств XV-XVIII в. (составители: С.К. Ибрагимов, Н.Н. Мингулов, К.А. Пищулина, В.П. Юдин). -Алма-Ата, 1969.
- 15.Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 г. –М.: 1822.
- 16.Муҳаммад Ризо Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. –Т.: 1999.

- 17.Матниёзов М. Хоразм ва хоразмликлар тарих кўзгусида. –Урганч, “Университет”, 2011.
- 18.Новый источник по истории Хорезма. VIII том. –М.: 1929.
- 19.Огаҳий абадияти.(Муаллифлар жамоаси) –Т.:”Ўзбекистон”, 1999.
- 20.Огаҳий. Асарлар, VI жилдлик, I жилд. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти,1975.
- 21.Рўзимбоев С., Аҳмедов А. “Фирдавс ул-иқбол” асарига сўзбоши. “Фирдавс ул-иқбол”. –Т.: “Ўқитувчи”, 2010.
- 22.Рўзимбоев С. “Фирдавс ул-иқбол” даги эвфемизмлар. Рўзимбоев С.Р. Сайланма, Урганч, “Хоразм”, 2012.
- 23.Рўзимбоев С., Аҳмедов А., Йўлдошев Р. Огаҳийнинг адабий-тарихий мероси. –Урганч.: “Университет”, 2008.
- 24.Сафарбоев М. Агахи-поэт и мыслитель. –Т.: изд. Отдель УрГУ, 2007.
- 25.Сафарбоев М. Огаҳий ҳаёти ва ижоди солномаси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009.
- 26.Толстов С.П. Древний Хорезм. –М.: Изд. МГУ, 1948.
- 27.Толстов С.П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2014. (нашрга тайёрловчи: У. Бекмуҳаммад).
- 28.“Фирдавс ул-иқбол”. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2010 (нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И.Бекчонов, Н.Полвонов).
- 29.Хорезм в истории государственности Узбекистана. –Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2013.
- 30.Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. Т.: “Ўзбекистон”. 1994.
- 31.Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. “Фирдавс-ул-иқбол”.-Тошкент,“Ўқитувчи”,2010.(Нашрга тайёрловчилар: Н.Жумахўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов).
- 32.Шермуҳаммад Мунис Хоразмий ва Муҳаммадризо мироб алмутахаллис бил Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Лейден, 1988.
- 33.Шодмонов Н. “Шоҳид ул-иқбол”-адабий манба.-Т.: “Фан”, 2009.

34. Ҳоҷиаҳмедов А. Оғаҳий даҳосининг олмос қирралари. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.

III. Ilmiy adabiyotlar:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1967.
2. Абдурасулов А. Хива. Тарихий этнографик очерклар. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
3. Вамбери Г. Путешествие по Средней Азии. –М.: 1865.
4. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
5. Муниров Қ. Мунис, Оғаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. –Т.: “Фан”, 1960.
6. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. –Т.: 2002.
7. Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. –Т.: 2005.
8. Оғаҳий асарларининг тавсифи. (Тузувчи Ф. Ғанихўжаев)-Т.: Қўлёзмалар институти нашриёти, 1986.
9. Худойберганов К. Хива хонлари тарихидан. –Урганч.: “Хоразм”, 2008.
10. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати.-Т.: “Академия”, 2002.
11. Ўзбек адабиёти тарихи, IV том. (Муаллифлар жамоаси) –Т.: “Фан”, 1978.
12. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Т.: “Фан”, 1959.

IV. Ilmiy-ommabop maqolalar:

1. Оғаҳий олами (мақолалар тўплами) 1-китоб, Урганч.: “Университет”, 2004.
2. Оғаҳий олами (мақолалар тўплами) 2-китоб, Урганч.: “Университет”, 2005.
3. Оғаҳий олами (мақолалар тўплами) 3-китоб Урганч.: “Университет”, 2008.
4. Оғаҳий олами, 4-китоб. -Урганч, “Хоразм”, 2013.
5. Оғаҳий олами, 5-китоб. -Урганч, “Хоразм”, 2014.

- 6.Рўзимбоев С., Аҳмедов А. “Фирдавс ул–иқбол” даги адабий жанрлар ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, №6.
- 7.Рузимбаев С.Р., Сапарбаев Б.Х. Сочинение Муниса и Агахи “Фирдаус ал-икбал” как исторический источник. Илм сарчашмалари. Урганч 2014, №5.
- 8.Холлиева Г. “Фирдавс ул-иқбол” дебочаси адабий манба сифатида. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2009, №1.
- 9.Холлиева Г. “Фирдавс ул-иқбол” нинг хорижда ўрганилиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 2008, №2.
- 10.Холлиева Г. “Фирдавс ул–иқбол” нинг хорижда нашр қилинган илмий-танқидий матни ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2007, №4.
- 11.Холлиева Г. Огаҳий ижодининг хорижда ўрганилиши. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, №6.

V. Internet saytlar:

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.ziyouz.com.
4. www.history.ru.